

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 82.08

BBK: 83.3-7

Q: - 17

QAYUMXO‘JAYEVA SHAXNOZA G‘AYRATOVNA

**ABE KOBONING “QUMDAGI XOTIN” ROMANI
TARJIMASIDA RANG SIMVOLIKASINING
BERILISHI**

5A120201-Tarjima nazariyasi va amaliyoti (turlari bo‘yicha)

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
fil.fan.dok., prof. Islamdjanova X.

Toshkent – 2014

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Fakultet: Sharq filologiyasi va falsafa Magistratura talabasi: Sh.G‘.Qayumxo‘jayeva
Kafedra: Tarjima nazariyasi va amaliyoti Ilmiy rahbar: fil.fan.dokt., prof. X.I.Islamdjanova
O‘quv yili: 2013-2014 Mutaxassisligi: 5A120201-Tarjima nazariyasi va
amaliyoti (turlari bo‘yicha)

**ABE KOBONING “QUMDAGI XOTIN” ROMANI TARJIMASIDA
RANG SIMVOLIKASINING BERILISHI MAVZUIDAGI
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

Badiiy asarda rang berilishi va u ifodalayotgan g‘oyani qanday aks etishini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang simvolikasining o‘rganilganlik darajasi, romandagi rang bildiruvchi so‘zlar tasnifi, rang berilishidagi turli yondashuv va holatlar, asliyat va tarjima o‘rtasidagi simmetrik va asimmetrik munosabatlar ekvivalentlik darajalari orqali ko‘rib chiqiladi.

Yapon tilidagi rang bildiruvchi so‘zlar va ularning o‘zbek tilida berilishi ishning obyekti, asliyat va tarjimadagi rang simvolikasini ifodalovchi konsept maydoni predmeti hisoblanadi. Mavzu tarjimashunoslikning lingvistik yo‘nalishida o‘rganilgan bo‘lib, konseptual hamda asliyat va tarjima matnining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Ilmiy tadqiqot ishining yangiligi badiiy asar tarjimasida ranglar berilishidagi tillararo asimmetriya hodisasini o‘rganilganligidir.

Mazkur tadqiqot ishi sirasida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar rang va unga oid mavzulardagi muammolarni yechilishida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat.

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida qum yolg‘izlik simvolini ifodalagan va uni turli xil xususiyatlari ranglar berilishida ochilib, holat va yondashuvlar orqali tahlil qilingan.

Ilmiy rahbar

(imzo)

fil.fan.dokt., prof. X.I.Islamdjanova

Magistratura talabasi

(imzo)

Sh.G‘.Qayumxo‘jayeva

REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF HIGHER AND
SECONDARY SPECIAL EDUCATION
TASHKENT INSTITUTE OF ORIENTAL STUDIES

Faculty: Oriental philology and philosophy Masters' Program student: Sh.G.Kayumkhodjaeva
Department: Theory and practice of translation Research Supervisor: doctor of philology,
prof. X.I.Islamdjanova
Academic year: 2013-2014 Major: 5A120201-Theory and practice of translation
(types)

ANNOTATION TO MASTER'S THESIS

On use of color symbolism in translation of Abe Kobo's novel "The Woman on Sand"

Study of use of color in the work of fiction and how the described idea is reflected are the topic subjects. The degree of study of color symbolism in Abe Kobo's novel "The Woman on Sand" is studied through classification of words defining colors in the novel, various approaches and situations in use of colors, degrees of equivalence in symmetric and asymmetric relations between the original work and translation.

The words defining colors in Japanese and their use in Uzbek are the subject of the field of concept describing the color symbolism in the original work and translation. The subject was studied in the linguistics of the science of translation, comparative analysis of the conceptual and original and translated text. The novelty of the research is the study of interlingual asymmetry in the use of colors in the translation of the work of fiction.

The scientific/theoretical conclusions arrived at in the process of this research are theoretically and practically important in addressing the colors and problems related to them. The research consists of introduction, three chapters, summary, the list of references and attachment.

In Abe Kobo's novel "The Woman on Sand" sand meant loneliness and its different features were presented in color meaning and analyzed through different approaches.

Research Supervisor: _____ doctor of philology, prof. X.I.Islamdjanova
(signature)
Masters' Program student: _____ Sh.G.Kayumkhodjaeva
(signature)

MUNDARIJA

Kirish	5
I bob. Zamonaviy tilshunoslikda rang simvolikasining o‘rganilganlik darajasi.....	11
1. Simvol va uning talqinidagi yondashuvlar	11
2. Konsept va uning fandagi talqini	15
3. Badiiy asarda simvol va konseptning o‘zaro uyg‘unligi	20
4. Rang bildiruvchi so‘zlarning lingvokulturologik talqini	24
I bob bo‘yicha xulosa	28
II bob. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang masalasi va uning ifodalanishi.....	31
1. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang masalasiga kirish	31
2. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang masalasini ochib berishdagi yondashuvlar:	
2.1. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida predmet rangini aks ettirishda yorug‘likning ahamiyati	44
2.2. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinishi	49
3. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang simvolikasi gen syujeti sifatida	51
II bob bo‘yicha xulosa	53
III bob. V. Ro‘zimatov tarjimasidagi Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang simvolikasining berilishidagi simmetrik va asimmetrik munosabatlar.....	56
1. Tarjima jarayonida simmetriya va asimmetriya hodisasi	56
2. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlar berilishida simmetrik munosabat:	
2.1. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlarning simmetrik berilishidagi holatlar	60
2.2. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlarning simmetrik berilishidagi yondashuvlar	68
3. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlar berilishida asimmetrik hodisasining ko‘rinishi.....	71
3.1. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlarning asimmetrik tarjimasini va uning berilishidagi holatlar	78
3.2. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlarning asimmetrik berilishidagi yondashuvlar.....	84
III bob bo‘yicha xulosa.....	89
Xulosa.....	91
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	94
Ilova.....	99

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi, ayniqsa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjima sohalari jadal suratlar bilan rivojlanib kelmoqda. Tilshunoslik sohasidan ajralib chiqqan yangi yo‘nalishlar diqqat markaziga “til va madaniyat”, “til va jamiyat”, “til va inson” kabi muammolarni qamrab oldi. Jahon tilshunosligida XX asr so‘nggida shakllanib, rivojlanayotgan lingvomadaniyatshunoslik, lingvokognitologiya kabi ilg‘or fan yo‘nalishlari aynan shu muammolar bilan shug‘ullanmoqda.

Bugungi integratsiyalashuv jarayonida O‘zbekiston hamda jahon xalqlarining umumiy nuqtalari yoki jahon xalqlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar tilshunoslik va boshqa sohalarni yangi daliliy materiallar bilan boyishga xizmat qiladi. Til yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarga Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan alohida e’tibor qaratib, xalqning madaniy va ma’naviy merosini, adabiyoti va folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish muhim vazifalardan biri sifatida ta’kidlaydi¹. Bundan tashqari ta’lim sohasi haqida gapirganda O‘zbekistonda nemis, ingliz, arab, xitoy kabi bir qancha tillar bilan bir qatorda yapon tiliga bo‘lgan qiziqish ham ortib bormoqda ekanligiga to‘xtaladilar². E.Sepirning yozishicha ham: “Til – bu madaniyatni ilmiy o‘rganishda yetakchilik, boshlovchilik qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir”³. Boshqa til va uning adabiyotidagi asarlar bilan tanishish uchun tarjima sohasi birinchi o‘rinda turadi. Tarjima orqali biz noyob durdonalardan xabardor bo‘lib, bir millat bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. “Badiiy asar tarjimasining o‘ziga xosligi shundaki, u chinakam nafis narsadan bahramand etishdan tashqari, xususan, estetik tuyg‘uni o‘stirish, did

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B.266.

² Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – B.8.

³ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 2001. – С.132.

paydo qilish va nafis narsa to'g'risida haqqoniy tushuncha tarqalishiga xizmat qiladi⁴. Shuning uchun ham bugungi kunda ko'plab asarlar tarjima qilinib, ular borasida turli xil tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, badiiy asar tarjimasida rang simvolikasiga doir mavzular, ranglarni matnda qanday ifodalanishiga e'tibor qaratilmoqda. Biz ham shu maqsadda yapon tilidagi badiiy asar misolida rang simvolikasini ochib berishni oldimizga vazifa qilib qo'ydik. Badiiy asarda ranglar berilishi nimaga asoslanadi, holat va yondashuvlar, rang simvolikasi ifodalayotgan g'oyani konsept va simvol uyg'unligida ochib berish, ushbu holatlarni tarjimada qanday aks etishini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida rang simvolikasining berilishi nomli magistirlilik dissertatsiyasi tanlandi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Badiiy asar tarjimasida g'oyalar tizimini ifodalayotgan rang simvolikasining tabiati va ranglar berilishi nimaga asoslanganligini ochib berish tadqiqot ishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Oldimizga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot ishiga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

1. Rang simvolikasining o'rganilganlik darajasini aniqlash;
2. Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida qanday rang bildiruvchi so'zlar berilganligi tasnifini berish;
3. Badiiy asarda rang berilishi nimaga asoslanganligi, ular berilishidagi yondashuv va holatlar haqida xulosalar berish;
4. Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida ranglar berilishidagi holat va yondashuvlarni tahlil qilish;
5. Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang simvolikasi ekvivalentlikning qaysi darajasi orqali tarjima qilinganligi, asliyat va tarjima o'rtasidagi simmetrik va asimmetrik munosabatlarni ko'rib chiqish.

⁴ Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.11.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Yapon tilidagi rang bildiruvchi soʻzlar va ularning oʻzbek tilida berilishi tadqiqotning obyekti, predmeti esa asliyat va tarjimadagi rang simvolikasini ifodalovchi konsept maydoni hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Simvol va konsept talqinidagi yondashuvlar, undan kelib chiqqan holda simvol va konsept uygʻunligida badiiy asarda berilgan rang simvolikasi ifodalayotgan gʻoyani aniqlash, Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani va uning tarjimasida rang bildiruvchi soʻzlarning holat va yondashuvlarini tahlil qilish, romanda rang bildiruvchi soʻzlar tarjimai qanday amalga oshirilganligini aniqlash ishning asosini tashkil etadi.

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida ranglarning berilishi nisbiy holatdir. Birinchidan, rangni aks ettirishda yorugʻlikning ahamiyati, ikkinchidan, qahramonlar tomonidan qabul qilinishi, uchinchidan, badiiy matnda ranglar orqali asosiy simvolni ochib berilishiga qaralgan.

Mavzuning oʻrganilganligi. Adabiyotlar tahlili rang mavzusini oʻrganishda turli xil yoʻnalish va yondashuvlar mavjudligini koʻrsatdi. Tadqiq qilingan ishlardan kulturologik va lingvokulturologik yoʻnalishlarda rang mavzusiga oid ishlar olib borilganligi koʻrildi.

Kulturologik ishlarda turli xil madaniyatlardagi ranglarni tahlili amalga oshiriladi. V.M. Alpatov predmet va rang oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki nisbiy aloqa mavjudligi sabablariga⁵, A.Vejbitskaya rang narsaning xususiyatlaridan kelib chiqib predmetga berilishiga⁶, M.Sodiqovning nomzodlik dissertatsiyasida oʻzbek tilidagi rang bildiruvchi soʻzlarga⁷, “Xazoyin ulmaoniy” devoni asosida yaratilgan Yo.Isxoqovning “Ranglar ramzi” maqolasida rang maʼnolariga⁸, I.Haqqulovning “Yana qorarang haqida” sarlavhasi ostidagi maqolasida faqat qora rangga toʻxtalangan⁹.

⁵ Алпатов В.М. Язык и культура. – М.: Языки славянских культур, 2003. – 225 с.

⁶ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 124 с.

⁷ Sodiqova M. Oʻzbek tilida rang-tus bildiruvchi soʻzlar: Filol.nom.diss. – Toshkent, 1963. – 168 b.

⁸ Isxoqov Yo. Ranglar ramzi // Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 123-138.

⁹ Haqqulov I. Yana qorarang talqini haqida // Oʻzbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – №3. – B.17-24.

Yevropa va jahon adabiyotida ham ranglarning turli xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, jumladan, nemis olimi I.V.Gyotening "Rang haqida ta'limot" kitobida ranglarning fiziologik, psixologik jihatlariga e'tibor qaratilib, ular iliq va sovuq ranglarga ajratilgan. L.N.Mironovanning "Rangshunoslik" kitobida dastlab qanday ranglar paydo bo'lgan, uning arxitektura, haykaltaroshlik, qurilishdagi o'rni, adabiyotda qanday tasvir etilganligi haqida fikr yuritilgan. L.V.Samarina umumiy madaniyatdagi ranglarni o'rgangan bo'lsa¹⁰, O.P.Frolova yapon tilidagi rang bildiruvchi so'zlarga e'tibor qaratgan¹¹, yapon tadqiqotchisi Fukuda Kunio qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko'k va binafsharang va ularning madaniy ma'nosini tadqiq qilgan¹².

Lingvokulturologik ishlarda til nuqtai nazaridan rang bildiruvchi so'zlarning lug'aviy ma'nolari va matn nuqtai nazaridan ranglar ma'nosi o'rganilgan.

E.A.Samodelova badiiy asardagi rang simvolikasi¹³, O.V.Sedova esa nasrdagi rang ma'nolarini o'rgangan¹⁴. V.A.Maslova rang ma'nosi madaniyatdan tashqari tabiat va predmet bilan bog'liqligini¹⁵, A.V.Kudrina, B.G.Mesheryakov ilmiy tadqiqot ishida turli xil madaniyatdagi ranglar semantikasi¹⁶, E.A.Yushkina badiiy asarda rang va yorug'lik muammosini¹⁷, Yu.M.Lotman simvolni matn orqali tahlil qilgan¹⁸. N.M.Djusupov badiiy

¹⁰ Самарина Л.В. Традиционная культура и цвет: основные направления и проблемы зарубежных исследований // Этнографическое обозрение. 1992. – С. 147-156.

¹¹ Фролова О.П. Цветообозначения в японском языке // Языковые категории в лексикологии и синтаксисе. – Новосибирск, 1991. – С. 71-87.

¹² 福田邦夫色の意味と文化赤橙黄緑青藍紫. – 日本: 研究店, 1979. – 254 p. [Fukuda Kunio Iro no imi to bunka sekitōryokuseiaishi. – Nihon: Kenkyū-ten, 1979. – 254 p.] – "Fukuda Kunio Qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko'k va binafsharang va ularning madaniy ma'nosi. –Yaponiya: Ilmiy tadqiqot instituti, 1979. – 254 b."

¹³ Самodelова Е.А. Символика цвета у С.А.Есенина и свадебная поэзия рязанщины // Филологические науки. – М., 1992. – С. 12-22.

¹⁴ Седова О.В. Поэтика цвета в прозе Е.И.Замятина. Канд.филол.наук диссер. – Елец, 2006. – 200 с.

¹⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

¹⁶ Кудрина А.В., Мещеряков Б.Г. Семантика цвета в разных культурах // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. – Дубна, 2011. – 18 с.

¹⁷ Юшкина Е.А. Поэтика цвета и света в прозе М.А.Булгакова. – Волгоград, 2008. – 201 с.

¹⁸ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000. – 703 с.

asardagi simvol¹⁹, K.T.Mustayevning kitobida esa “Alpomish” dostonidagi rang ramzlari haqida²⁰, S.Hasanov Navoiyning “Sabbai sayyor” dostonida rang simbolikasiga bag‘ishlangan maqolasida ilmiy-nazariy xulosalar bergan bo‘lsa²¹, S.Jumatovning “Hozirgi o‘zbek she‘riyatidagi rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar” nomli nomzodlik ishida XX asr o‘zbek shoirlari ijodida qo‘llanilgan rang ramzlari²², Sh.A. Atayev esa bitta asar misolida simvol va obrazni²³, yapon tadqiqotchilaridan E. Nakamura ikki asarni rang sistemasi²⁴, Yu.Yoshioka “Genji haqidagi asar” ning rang lug‘atini o‘rgangan²⁵.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari. Mavzu tarjimashunoslikning lingvistik yo‘nalishida o‘rganilib, konseptual hamda asliyat va tarjima matnining qiyosiy tahlili amalga oshiriladi.

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani va uning tarjimasidan manba sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishi sirasida chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar rang va unga oid mavzulardagi muammolarni yechilishida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Badiiy asar tarjimasida ranglarning berilishidagi tillararo asimmetriya hodisasini o‘rganish ilmiy tadqiqot ishining yangiligidir.

¹⁹ Джусупов Н.М. Тюркский символ в художественном тексте. – Астана: Сарыарка, 2011. – 218 с.

²⁰ Мустаев К.Т. Поэтика цвета и числовых знаков-символов в “Песне о Роланде” и “Алпамыше”. – Самарканд: Зарафшон, 1995. – 152 с.

²¹ Hasanov S. Go‘zallikdagi ranglar olami. Navoiyning yetti tuhfasi. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1991. – 192 b.

²² Jumatova N.S. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar: Filol.fan.nomz.diss. – Toshkent, 2000. – 126 b.

²³ Атаев Ш.А. Символ и образ в трагедии Гете «Фауст» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2010. – № 3. – С. 32-35.

²⁴ Накамура Е. Слово о полку Игореве и Повесть о доме Тайра // Слово о полку Игореве: комплексные исследования. – М., 1988. – С. 80-89

²⁵ 吉岡幸雄源氏物語の色辞典 – 日本: 研究社, 2008. – 302 p. [Yoshioka Sachio Genjimonogatari no iro jiten – Nihon: Kenkyushya, 2008. – 302 p.] – “Yoshioka Yukio Genji haqidagi asarining rang lug‘ati. – Yaponiya: Tadqiqot markazi, 2008. – 302 b.”

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida “yolg‘izlik” simvoli rang konsepti maydoni orqali ochiladi. Rang berilishidagi nisbiylikni tarjimada ifodalanish xususiyati, bundagi simmetrik va asimmetrik munosabatni ekvivalentlik darajalari orqali o‘rganiladi.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Ilmiy tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ishning ilmiy yangiligi, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari ko‘rib chiqiladi. Birinchi bob zamonaviy tilshunoslikda rang simvolikasining o‘rganilganlik darajasida simvol, konsept va ularning o‘zaro uyg‘unligi, rang bildiruvchi so‘zlarning lingvokulturologik talqini, ikkinchi bobda Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanidagi rang masalasi, rang berilishidagi holat va yondashuvlar, rang simvolikasi ifodalagan g‘oya, uchinchi bobda esa roman tarjimasidagi rang simvolikasining berilishi, asliyat va tarjima o‘rtasidagi simmetrik va asimmetrik munosabatlar o‘rganiladi. So‘ng tadqiqot ishi bo‘yicha xulosalar qilinib, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilova keltiriladi.

I bob. Zamonaviy tilshunoslikda rang simvolikasining o'rganilganlik darajasi

1.Simvol va uning talqinidagi yondashuvlar

Insoniyat oddiy olamda emas, simvollar dunyosida yashaydi. Simvol ma'lum bir ma'nolar yig'indisini ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyot namunalarida birgina g'oya emas, balki bir qancha fikr-mulohazalar talqini nazarda tutiladi. Bu esa simvollilikni keltirib chiqaradi. Mashhur fransuz olimi Rolan Bart: "simvol – bu obraz emas, bu fikr-g'oyalar ko'pligining naq o'zidir", - deydi. Rus olimi Yu.Borev adabiy simvolni "u o'zida timsol va g'oyani birlashtiradi", deya ta'riflaydi. S.T.Kolridj esa: "Simvol umumiylikning individuallikda namoyon bo'lishidir", deya simvolni mohiyatini yana-da aniqroq sharhlaydi. Bundan ko'rinadiki, simvolning badiiy vazifasi obrazga nisbatan kengroq. U bir timsol vositasida keng qamrovli, rang-barang mulohazalarni ifodalash imkonini beradi. Shu sababli undan adabiyotda unumli foydalaniladi²⁶.

Ko'pgina tadqiqotlarda simvol belgi, obraz, konsept tushunchalari bilan taqqoslanadi. Simvol va belgi semiotik uch asosga qurilgan. Ya'ni "tushunuvchi, tushuntirib beruvchi, semiotik bog'lanish". Ammo belgi simvoldan farqli aniqlikni talab etadi. Simvol belgi kabi to'g'ridan-to'g'ri ifodalayotgan ma'nosiga ishora qilmaydi. Belgini asosiy xususiyati aniq ishora bo'lsa, simvol ishoradan ko'proq turli xil reallikni semantik voqelikda aks ettiradi. Simvol asosida obraz yotadi. Har qanday simvol obraz, lekin obraz har doim ham simvol bo'la olmaydi. U simvol bo'lishi uchun quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga olishi darkor: 1) simvol ma'nolari kontekstda namoyon bo'lsa; 2) obrazning so'zma-so'z talqinini amalga oshirish imkoni bo'lmaganda; 3) simvol obraz, mif, afsona, folklor bilan namoyon bo'lganda²⁷. Simvol badiiy asarda

²⁶ Adizova I. <http://sharqyulduzi.uz/p=175>.

²⁷ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000. – С.240.

konsept shaklida namoyon bo‘ladi. Simvollar yig‘indisi asarda yotgan ma’noni ochib berishga xizmat qiladi.

Simvol tushunchasini olimlar turli xil talqin qilishadi. Simvolga qiziqish nafaqat lingvistika, balki, falsafa, semiotika, psixologiya, adabiyotshunoslik va boshqa sohalarda ham katta. Biz simvolga berilgan ta’riflarni ikkiga bo‘lib, bir qancha olimlar va Yu.M.Lotman bergan xulosalariga qarab ko‘rib chiqamiz.

Falsafa nuqtai nazaridan “simvol – san’at, umumiy estetik kategoriya, taqqoslash orqali ochilish xususiyatiga ega, badiiy obraz, belgi”²⁸. A.F.Losev yozishicha, simvol bir vaqtning o‘zida ijtimoiy xabarni yetkazib beruvchi²⁹.

Psixologiya sohasida simvol tushuncha, narsa va hodisalarni tasvirlash imkoniyati, hissiyotli obrazlarni ideal tasviri, hissiy va hayotiy farqdir.

Semiotikada “simvol tabiati qarama-qarshilikni bog‘lashdan iborat”dir³⁰. Shu yondashuvda simvolga mif orqali qarash K.Levi-Stros tomonidan amalga oshirilgan. Mifologiya obrazlar va tushunchalarni ma’nolarini ochuvchi semiotik kod vazifasini bajaradi³¹. Bu qarashlar V.A. Maslova tadqiqotlarida ham mavjud. Jumladan, uning fikricha simvol – “ma’lumotlar ombori”. Uning ko‘rinishi dumaloq o‘rama shaklida, bir-biriga uzviy berkitilgan, ketma-ket o‘tuvchi so‘zlardan tashkil topgan. Bu ma’noviy ketma-ketlik keng yashiringan mazmundan tortib bir-birini o‘rnini bosuvchi semiotik shaklni o‘z ichiga oladi³².

Tilshunoslik nuqtai nazaridan birinchilar qatorida A.A.Potebna tadqiqotlarini aytish muhim. Uning fikricha, faqatgina til orqali simvolni to‘liq tushunish, uni tartibga solish mumkin. U simvol: birinchidan, tushuncha, tildagi belgi; ikkinchidan, umumiy kategoriya, adabiyotdagi obrazli xususiyatni ifodalovchi; uchinchidan, ma’nosi lug‘atlarda berilgan madaniyat obyekti;

²⁸ Аверинцев С.С. Символ // Литературный энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1987. – С.378.

²⁹ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С.78.

³⁰ O‘sha asar. – B.83.

³¹ O‘sha asar. – B.79.

³² O‘sha asar. – B.78.

to'rtinchidan, simvol o'zining asosiy ma'nosini boshqa sohalarda ham qo'llash xususiyati mavjud belgi, deb ta'kidlaydi³³.

Ilmiy adabiyotlar tahlilida simvol talqinida turli yondashuvlarni o'zaro bog'liqlikda o'rganish mumkinligi ko'rildi. Masalan, Yu.S.Stepanov tomonidan "simvol" tushunchasi turli tomonlama talqin qilinadi. Uning ta'kidlashicha, simvol – ilmiy meros, poetik tushuncha. U doimo poetik sistemada ma'noga ega va unda u haqiqiydir.

Simvollar talqini diniy qarashlar bilan ham bog'lanishi mumkin. Masalan, V.A.Maslova insoniyat o'tmishdan yashagan simvollar dunyosi din orqali paydo bo'lgan. Dindagi urf-odatlar simvol rolini bajarib, shaxsning madaniy va siyosiy jihatdan mavqeini belgilaganligini aytib o'tgan³⁴.

Yuqorida keltirilgan simvollar va uning xususiyatlariga oid fikrlardan farqli Yu.M.Lotman simvolning obrazlilik va belgi xususiyatini birga ko'rib chiqadi. U simvol masalasiga "gen syujeti" va "simvol – madaniyat tizimida" nuqtai nazaridan qarab quyidagi xulosalarni beradi.

Birinchidan, "simvol" semiotika fanida eng ko'p ma'noli so'z. Kontekstda mazmun va iboraning munosabati haqida gap ketganda simvolga e'tibor qaratiladi. Simvol milliy xarakterni ifodalaydi va mazmunni ochib berishda adekvat tarjima qiroli. Simvol madaniy dunyodan obrazli dunyoga o'tish ko'prigi. Simvol mazmun va ifodada ham doimo o'zida tugallangan mazmunni namoyon qiladi. Matnda o'zining yagona ma'nosini beradi va semiotik kontekst oralig'ida aniq ifoda chegarasini belgilaydi.

Ikkinchidan, simvol madaniy yo'nalish, ijtimoiy muhitdan kelib chiqadi. Simvol madaniyat, butun bir simvol obrazlari insoniyat tarixi yoki hududiy chegara bilan bog'liq. Yozuvchi individualligi nafaqat mavjud simvollarni berish bilan, balki arxaik obrazlarni simvolik xarakterini ochib berishda ham ko'rinadi³⁵.

³³ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С.77.

³⁴ O'sha asar. – B.77.

³⁵ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000. – С.225.

Uchinchidan, ko'pgina misollardan simvol ijodiy jarayondagi holatligini aytish mumkin. Voqealar rivoji simvolda yashiringan bo'ladi. Bu o'z navbatida "syujet gen"i deb nomlanadi. Ammo bitta bir xil simvol har xil syujetlarda bo'lishi va bu jarayon aniq xususiyatlarga ega emas. Simvol dunyosi tabiatan qarama-qarshidir³⁶.

To'rtinchidan, simvolda har vaqt arxaik xususiyat mavjud. Har bir madaniyat matn orqali saqlanib qolinadi. Yopiq holda keng va muhim matn saqlash xususiyati simvolda mujassamlashgan³⁷.

Beshinchidan, badiiy g'oya – milliy ochib beriluvchi mavzu, simvol - uni o'rab olgan matndir. Simvol madaniyatni tashkil etadi³⁸.

Oltinchidan, simvol o'zida matndagi bog'liqlik qatorini saqlaydi. Bu holatda ma'naviy va tuzilishli alohidalik saqlanib qolinadi. Simvol semiotik bog'lanadi va yangi matnga onsonlik bilan ko'chadi. Bu uning asosiy xususiyati bilan bog'liq³⁹.

Yettinchidan, madaniyatning eng muhim mexanizmi simvol matnga ko'chib, qayta ma'no kasb etadi. Faqatgina ushbu narsa asosiy simvollar va ularning madaniyatdagi doimiyliigi, milliy va hududiy chegarasini belgilab beradi. Simvol tabiati bu nuqtai nazardan qaralganda ikki xil. Bir tarafdin, simvol madaniyatga kirib o'zining invariant xususiyatini ochib beradi. Ikkinchi tarafdin, simvol madaniyat konteksti bilan uzviy transformatsiya jarayonini amalga oshiradi.

Sakkizinchidan, muhimi simvol ma'nolari uning doimiy ifodalanishidan ko'ra kengroq. Bunda simvol o'ziga aloqador semiotik iboralar bilan ifoda etiladi⁴⁰.

³⁶ O'sha asar. – B.239.

³⁷ O'sha asar. – B.240.

³⁸ O'sha asar. – B.240.

³⁹ O'sha asar. – B.241.

⁴⁰ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000. – С.242.

To'qqizinchi, simvol madaniyat kontekstida har xil bo'lishi mumkin, lekin u gen syujeti sifatida saqlanib qolinadi. Simvolda gen syujeti sifatida belgi va xususiyatlar o'tkazib turish xossasi mavjudligi, boshqa madaniy belgilarda ham o'xshash taraflar ko'p bo'lishi, ularni xarakterli belgilarni saqlab berish uchun imkon beradi.

O'ninchidan, simvol – konsept. Simvol matn ko'rinishida boshqa madaniy davr, boshqa madaniyat, umuman boshqa ma'nodagi matnda qayta jonlanishi uning ko'p imkoniyatlari borligini ko'rsatadi. Simvol matnda konsept maydonida namoyon bo'ladi.

Yuqorida simvolga berilgan xulosalardan simvolni til, matn, lingvopoetika jihatdan ko'rilganligi va unda lingvokulturologiya, lingvopoetika, semiotika yo'nalishlari mavjud degan xulosaga kelindi.

Yu.M.Lotman simvol tabiatini semiotik jihatdan ochib bergan, uning o'rganilish mexanizmi mavjud. Ushbu mexanizm til, matn, madaniyatga bog'liq va simvol gen syujeti orqali bog'lanish xususiyatiga ega.

Mazkur dissertatsiyada simvol matndagi konsept maydoni ko'rinishida talqin qilinadi. Fanda olimlarning konsept haqida turli xil ta'rif va talqinlari mavjud. Quyida konseptning zamonaviy fandagi yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

2. Konsept va uning fandagi talqini

Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalishlarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik⁴¹ sohalari nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan.

⁴¹ Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М., 2002. – № 21. – С.5-7.

Psixolingvistika nuqtai nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega.

Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo'lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi⁴². Konseptning o'zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi⁴³.

Konsept – bir millatga tegishli bo'lgan hayotiy tajriba natijalarini o'zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig'indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo'lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o'y-fikrlar, qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo'lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o'z ichiga oladi⁴⁴.

Konsept insonni o'rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig'indisi va tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Bu qarashlar Yu.S.Stepanov xulosalarida ham keltirilgan. Uning fikricha, konsept inson ongidagi madaniyat bo'lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamini mental birligi bo'lib madaniyatga kirgan. Konsept oddiy inson qiyofasida madaniy qadriyat yaratadi va madaniyatga kirib, ba'zi vaqtda madaniyatga ta'sir ko'rsatadi⁴⁵. Shu qarashlarga N.D.Artyunova tomonidan aniqlik kiritilgan. Olimani fikricha, konsept bir qancha faktorlarni o'zaro aloqa natijasi: folklor,

⁴² O'sha asar. – B.5.

⁴³ O'sha asar. – B.7.

⁴⁴ Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Московский гос. ун-т, 1996. – С.31.

⁴⁵ Степанов, Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е. – М.: Академический проект, 2001. – С.43.

milliy urf-odatlar, din, hayotiy tajriba, obraz, qadrlilik tuygʻusi. Konsept oʻziga xos madaniy qatlam, inson va olam oʻrtasidagi aloqa tasviri⁴⁶.

Bizga maʼlumki, konsept lisoniy birliklar (soʻz, gap, matn) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasidir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obyektiv borliq, predmet va hodisalar haqida maʼlumot, tushuncha, tasavvurlarni oʻzida tashishi, saqlashi, oʻzgaga yetkazib berishi bilan jamiyat aʼzolarining predmet va hodisalarga boʻlgan munosabatini qayd etishi bilan oʻziga xosdir.

Turli madaniyatlarda konseptlar olami turlicha aks etadi. Konsept imkoniyati individual hissiy va madaniy tajriba natijasida til egalari tomonidan boyitiladi⁴⁷.

Konsept maʼnosi murakkab tuzilgan. Shuning uchun olimlar tomonidan konseptga tizimli hodisa sifatida qaraladi. Bu tizim *qatlam* soʻzi bilan talqin qilinadi. Qatlam nuqtai nazaridan konsept turlarga ajratiladi. Bu turlar ikkita asosga qaratilgan. Birinchi asos – diaxronik, ikkinchisi – sinxronik. Diaxronik nuqtai nazariga koʻra konseptlar zamonaviy va tarixiy qatlamga ajratiladi. Sinxronik nuqtai nazarida konseptlar ostida yotgan obraz asosiga qaraladi⁴⁸.

Mana shu murakkabliklar V.A.Maslova ishlarida ham oʻrganilib chiqilgan. U konsept maʼnosiga koʻp qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan oʻylanadigan, balki ular oʻzlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani oʻz ichiga olishini koʻrsatadi⁴⁹ va konsept tuzilishida oʻzgacha nuqtai nazar borligini taʼkidlaydi. Konsept markazida qadrlilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrlilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uygʻunligi, maʼnoviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalanayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki

⁴⁶ Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С.37.

⁴⁷ Леонтович О.А. Россия и США: Введение в межкультурную коммуникацию. – Волгоград, 2003. – С.117.

⁴⁸ Рябкова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М., 2012. – №4 (59). – С.187.

⁴⁹ Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004. – С.36.

umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi, deb ta'kidlaydi⁵⁰.

Konsept tuzilishini o'rganishda boshqacha qarashlar ham mavjud. Masalan, buni Yu.S.Stepanov ishlarida kuzatamiz. U bir tomondan, konsept tuzilishida hamma turg'un tushunchalarni ajratadi, boshqa tomondan konseptni madaniyat asosiga aylantiradigan ichki tuzilish-etimologiyasini ko'rsatadi⁵¹.

Z.D.Papova va I.A.Sternin esa konsept tuzilishini uch xil komponenti: obraz, ma'lumotlar saqllovchisi, tahlil maydoni haqida gapiradi. Konseptda obrazni mavjudligi umumiy predmet kodini xarakterlash bilan tushuntiriladi. Ma'lumot saqlashda esa konsept alohida kognitiv belgilarni kiritadi, predmet yoki holatni asosiy xususiyatlarini aniqlashtiradi. Tahlil maydoni u yoki bu aspektda ma'lumotlar orqali konseptni tahlil qilib, undan xulosaviy bilimlar oladi yoki unga baho beradi⁵².

Olimlar fikricha, konseptni ma'no va tuzilishidan tashqari xususiyatlari ham mavjud. Konseptni barcha qabul qilgan xususiyati ko'p ma'noligi. Uning bu xususiyati uch pog'onada ko'rinadi. Ular quyidagilar:

1. Sistemada simvol madaniyat tashuvchisi, madaniyatda leksikografiyadan yozib olingan lingvistik holat saqllovchisi;
2. Til vositasida madaniyat saqllovchisi;
3. Matnda namoyon bo'luvchi⁵³;

Keltirilgan yondashuvlardan tashqari zamonaviy tilshunoslikda konseptni lingvomadaniy talqini ham mavjud.

Lingvomadaniy jihatdan konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, uning tarkibiga belgilar, etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy asotsatsiyalari, unga munosabat yoki uni baholash kiradi. Kognitiv va til strukturasini bog'lab

⁵⁰ O'sha asar. – B.45.

⁵¹ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд. 2-е. – М.: Академический проект, 2001. – С.43.

⁵² Попова, З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – С.82.

⁵³ Слышкин Г.Г. Лингвистика и межкультурная коммуникация. // "Лингвокультурный концепт как системное образование". – Волгоград, 2004. – № 1. – С.33.

turuvchi birlikka konsept deyiladi. Lingvomadaniyatshunoslikda konsept quyidagi til birliklarida ifoda etiladi: leksik va frazeologik birliklarda; nutq birliklarida (soʻz birikmasi, gap), grammatik tuzilishda. Keltirilgan til birliklarida konsept oʻz mazmunining maʼlum qismini bera oladi. Konseptda lingvistik ifoda vositalari yotadi. Lingvistik vositalar konseptni soʻz munosabatida lingvomadaniyatni namoyon qilishi uchun muhimdir. Leksik va frazeologik birlik til sistemasiga kiruvchi kommunikativ jarayonni talab etuvchi konseptlarda yashaydi. Konseptni toʻliq anglash uchun bir-biriga oʻxshash kategoriyalarni tushunish darkor. Bular qatoriga birinchi navbatda mantiqiy tushuncha va til maʼnolari kiradi⁵⁴.

Lingvomadaniyatshunoslikda konseptni bir tomondan soʻz, ikkinchi tomondan tushuncha bilan munosabati oʻrganiladi.

D.S.Lixachov fikricha, konsept soʻzni leksik-semantik turi bilan uygʻunlashgan. Soʻz maʼnolari belgilar bilan oʻralgan konseptni tashkil qiladi. Konsept obyektiv olam obrazi, tashqi dunyo bilan toʻgʻridan-toʻgʻri aloqador, soʻz esa faqat oʻz semantikasida odatda konseptni ochib beradi. Ammo olimlar fikricha konsept va tushuncha oʻrtasida sinonimik munosabatlar mavjud.

Lingvomadaniyatshunoslikda konsept logik tushuncha va leksik maʼnoda har xil maʼnoviy tuzilishni oladi. Jumladan, tushuncha va konsept kategoriyalari ikki xil yoʻnalishga ega. Tushuncha falsafa va mantiqqa; konsept esa matematik mantiq, madaniyatshunoslik, lingvomadaniyat, kognitiv lingvistika yoʻnalishlariga tegishli⁵⁵.

Xulosa qilib, konsept koʻrinmas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Konsept bir-biriga bogʻliq, bir butun qoidaga ega gʻoyalar yigʻindisi. Konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun koʻrinishda namoyon boʻlib, matnda aks etgan mazmunni

⁵⁴ Рябова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М.:, 2012. – №4 (59). – С.187.

⁵⁵ Oʻsha asar. – B.188.

ochib berishga xizmat qiladi. Konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli konsept tarkibining tizimiy xarakterga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

Yuqorida simvol va konseptni alohida o'rganib chiqildi. Keyingi bo'limda ularni birga matnda qanday namoyon bo'lishi ko'riladi.

3.Badiiy asarda simvol va konseptning o'zaro uyg'unligi

Har qanday matnni semiotik tahlilida "simvol" va "konsept" ning ko'p ma'noli farqini ochib berish muhim sanaladi. Badiiy asarda konsept estetik olamni bilish usuli va asar muallifining jumbog'i, simvol esa bitta belgi ostida madaniy ma'no.

Simvol keng ma'no tushunchasi, narsalarning modiiy imkoniyatlari, voqea-hodisa, hissiy obrazlar ifodasini matnda aks ettiradi⁵⁶. Simvol badiiy asarda konsept shaklida namoyon bo'ladi. Simvollar yig'indisi asarda yotgan ma'no, g'oya, konseptni ochib berishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, adabiyotning bosh xususiyati g'oyaviy mazmunni badiiy shaklda ifodalanishi. Bu muammoni hal qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Biz tadqiqot ishimizda badiiy asar g'oyasini ochib berishda simvol va konseptning o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqishni maqsad qilib qo'yganmiz. Bu fikr bir qancha mashhur faylasuf va tilshunos olimlar tomonidan ilgari surilgan.

A.F.Losev bu haqda shunday deydi: "...badiiy obrazlilik hech qachon simvolsiz hosil qilinishi mumkin emas, garchand bunda simvol o'ziga xos

⁵⁶ Философский энциклопедический словарь. – М.: Инфра, 1998. – С.123.

bo‘lsada”⁵⁷. A.A. Potebning fikricha, poetik obraz belgi, simvolga tayanadi, chunki aynan ular obraz haqida tasavvur uyg‘otadi.

V.V.Kolesov ta’kidlashicha, madaniyatdagi belgilar orqali konsept va uni harakatini simvol orqali qayta yaratish mumkin⁵⁸. Ushbu fikr quyidagi chizmada aks ettirilgan.




Рис. 1. Динамическая модель взаимодействия символа, концепта и контекста

Simvol, konsept va kontekstni o‘zaro bog‘liqlik modeli

Yuqoridagi chizmada tasvirlanganidek simvol va konsept *ifodalovchi* va *ifodalanuvchi* vazifani bajaradi. Bunda simvolning ma’noviy bog‘liqligi konsept tuzilishida boshqa simvollarga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Chizmada ko‘rib turganizdek А,Б,В,Г da simvol semantik obyektni А,Б,В,Г yoki ularning komponentlarini o‘ziga tortadi. Natijada bunda semantik, simvol va obyektlar o‘rtasida almashinuv yuz beradi. А va Б, Б va В, В va Г, Г va А, А va В, В va Г obyektlarni o‘zi А,Б,В,Г da simvol bilan o‘zaro harakatda belgiga aylanib, matnda ma’noviy maydonni yaratadi⁵⁹. Bu ma’noviy maydonni ya’na konsept maydoni deb ham atash mumkin.

G.I.Bogin matnga shakl va mazmun ko‘rinishida yondashadi. Uning fikricha, badiiy asarda shakl va mazmun, badiiy ifodaviy usullar kengayib, qandaydir ma’no yashaydi. Inson badiiy matnni shakl ko‘rinishida ko‘radi va uning ostidagi fikriy tuzilish matn tahlilida ochiladi. Matnda obrazlar yig‘indisi bog‘liqligi mavjud. Simvolda esa ma’no yaralib, konseptni tashkil etadi va bu

⁵⁷ Лосев А.Ф. Проблема символа и реалистическое искусство. – М.: Искусство, 1976. – С.144.

⁵⁸ Колесов В.В. Концепт культуры: образ- понятие- символ // Вестник. – СПб., 1992. – №16. – С.35-36.

⁵⁹ Авдеев И.А. Символ, концепт, текст пространство эксперимента. – Амурско, 2010. – С.47.

ong tahlilida o'z ifodasini topadi⁶⁰. Olim ta'kidlashicha, shakl va mazmun matnning murakkabligini keltirib chiqaradi, badiiy asar tuzilishi murakkabligini tuzilishli forma deb nomlab, belgili qatorga teng bo'lmagan, real tushunchalardan o'tuvchi, deb ta'kidlaydi⁶¹. Badiiy asarning mazmun jihatdan tahlilida simvol sintez qilinadi, ko'p ma'noli obrazni logik qatlami tushunilib, ma'no formasi konseptga aylanadi. Badiiy matnda konsept tahlil jarayonida tuzilishga kiruvchi konseptual qayta ishlangan ma'no. Simvolni o'zi chegaralangan va estetik kategoriyanı namoyon qilib, doimo badiiy asardagi sistemaga-konseptga ishora qiladi⁶².

Yu.M.Lotman esa simvol va konsept uyg'unligini o'rganishda semantikada simvolning bir taraflama izohidan qochiladi, chunki ustki ma'noda simvolni ochib berish yetarli emas, u matnda qayta hayot kasb etishiga to'xtaladi. Yu.M.Lotman "simvol o'zida ma'noviy va tuzilishli alohidalik saqlab qolib, konsept maydonida namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi⁶³.

Matnga bevosita yoki bilvosita yondashish bir butun tushuncha va xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi, ma'noviy va kommunikativ butunlikda muallif g'oyasini aks ettiradi. Muallif matnni konseptual tahlil jarayonida asosiy g'oyani aniqlashtiradi.

Simvolning konsept ko'rinishi:

- konsept tuzilishi ma'no tasvir yordamida matnda vositasiz forma, muallif tasavvurlarini tushuncha, predmet, hissiyotlar, obraz, usul va til belgilarini transformatsiya jarayonida qo'llash, semantik tahlil;
- konsepti asosiy matn hissiyoti, ularning usullari til belgilari orqali namoyon bo'lishi, matnning ma'noviy-hissiy ko'rinishi simvolning semantik tahlildagi bog'liqligi;

⁶⁰ Минералова И.Г. Анализ художественного произведения: стиль и внутренняя форма. – М.: Наука, 2011. – С.122.

⁶¹ Богин Г.И. Обретение способности понимать: работы разных лет. – Тверь: Твер.гос.ун-т, 2009. – С.10-12.

⁶² O'sha asar. – B.10-12.

⁶³ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000. – С.241.

- konsept muallif ajratib olgan, asosiy xususiyat va mantiqiy bog‘lanish, tuzilishli-voqeaviy jarayon;

- mavhum-mantiqiy mavjud konseptni simvol orqali matnda namoyon bo‘lishi.

N.S.Valgino badiiy matn ostidagi chuqur ma’no asarga asosiy xususiyat beruvchi, uni individual badiiy qiymatini belgilab beradi. U badiiy matn hayotiy voqealari muallif nuqtai nazari bilan qaraladi. Shuning uchun badiiy asarda doimo matn ostida yotuvchi g‘oya mavjud bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi⁶⁴.

Badiiy asarda konsept ma’noviy va estetik kategoriya, individual tajribani o‘zida aks ettirgan, dunyoqarash, yangi badiiy ma’no shakllantiruvchidir.

Badiiy asarda so‘zni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosi yangi, o‘zgacha ma’noga kiradi. Bu badiiy konsept yaralishiga olib keladi. Badiiy konsept o‘rin bosuvchi funksiyani bajarib, quyidagi xususiyatlarga ega:

- 1) mantiqiy qonun-qoidalarga bo‘ysunmaydi;
- 2) real hayot voqealari bilan uzviy bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin;
- 3) biron-bir obrazga yaqinlik xususiyati mavjud;
- 4) obrazlilik;
- 5) estetik tushuncha;
- 6) individual xususiyat mavjud;

Badiiy matnda konseptni o‘rganish madaniyatdagi umumiy konsept bilan bog‘liq. Ammo muallif dunyoqarashi bilan farq qilishi mumkin. Badiiy asarda muallif konsepti badiiy asar tahlili orqali ochiladi⁶⁵.

Yuqoridagilardan simvol va konseptni alohida o‘rganishdan tashqari ularni o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rish, simvol badiiy asarda konsept maydoni shaklida namoyon bo‘ladi degan xulosa kelib chiqdi. Rang simvolikasi simvol

⁶⁴ Лотман Ю.М. Избранные статьи. Т.1. – Таллинн: Александра, 1992. – С.129-132.

⁶⁵ Черкасова И.П. Лингвокультурный концепт «ангел» в пространстве художественного мышления. – Армавир: АГПУ, 2005. – С.256.

va konsept uyg'unligida, ya'ni lingvokulturologik ham tadqiq qilingan bo'lib, keyingi bo'limda ushbu ishlar ko'rib chiqiladi.

4.Rang bildiruvchi so'zlarning lingvokulturologik talqini

Rang nazariyasining o'zi bir ilm, u bizni falsafiy mushohadaga chorlaydi. Shuning uchun til va matnda ranglarning talqini turli xil ishlarda tadqiq qilingan V.M.Alpatov, Fukuda Kunio, L.V.Samarina, A.V.Kudrina, B.G.Mesheryakov, V.A.Maslova, A.Vejbitskaya, Yu.M.Lotman kabi olimlarning bu hususdagi ishlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Ilmiy adabiyotlar tahlili rang mavzusini o'rganishda turli xil yo'nalish va yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiq qilingan ishlardan *kulturologik* va *lingvokulturologik* yo'nalishlarda olib borilganligi ko'rildi.

Kulturologik ishlarda tadqiqotchi diqqat markaziga turli xil nuqtai nazardan madaniyatdagi ranglarni tahlil qilish muammosi turadi. Bu yo'nalishda qanday ranglar tasnifi mavjud, rang nimalarga asoslanadi, ranglar xususiyati, uni to'g'ridan-to'g'ri va nisbiy berilgandagi ma'nolari ochib berilgan.

Ilk yondashuvlardan biri V.M. Alpatovga tegishlidir⁶⁶. Ushbu ishda V.M.Alpatov rang shkalasi va uni nima sabablarga ko'ra shu predmetga berilganligiga to'xtaladi. U yapon tilida o'n ikki xil rang bor, ulardan so'ng "iro" qo'shimchasi qo'shiladi va ranglar nimagadir o'xshatish orqali ifodalanilgan deb, yapon tilidagi besh xil kamalak rangini rang shkalasiligini ko'rsatadi.

Aoi rangi kontekstdan kelib chiqib, *yashil*, *ko'k*, *havorang* bo'lishi, yaponlar uchun *oq*, *qora*, *qizil*, *ko'k*, *sariq*, *yashil*, *binafsha* va *jigarrang* asosiy ranglar ekanligiga to'xtaladi⁶⁷.

V.M. Alpatovning fikricha, predmet va rang o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri emas, balki nisbiy aloqa mavjud. Bunda bir nechta sabablar mavjudligini

⁶⁶ Алпатов В.М. Язык и культура. – М.: Языки славянских культур, 2003. – С.76-87.

⁶⁷ O'sha asar. – B.77.

ko'rsatib beradi. Ya'ni: 1) predmetni tabiiy va suniylilik xususiyati; 2) ta'sirchanligi; 3) rang bildiruvchi so'zlar yapon tilidan yoki boshqa tildan olinganligi bilan asoslab bergan⁶⁸.

Rang shkalasidagi ranglar birinchidan, rang ishlatilish holatlariga qarab: barg, tabiiy narsalar midori, suniy narsalar, masalan, golf maydoni green; ikkinchidan, ta'sirchanlik: yapon ayollari yapon tilidagi *kulrang* emas, *gray* rangdagi koftichkani kiyadilar, chunki yapon tilidagi *kulrang* yoki sichqon ma'nosini ifodalaydigan *kulrang* ular uchun yoqimsiz holat; uchinchidan, rang asl yapon so'zimi yoki boshqa tildan o'zlashgan so'zmi: yashil-midori green so'zdan, pink-pushti, orenji-olovrang, gray-kulrang, brown-jigarrang, qaymoqrang, *krem rangi* kabi ingliz tilidan olingan rang bildiruvchi so'zlar o'zlashgan predmetlar izohlashda ishlatiladi⁶⁹.

Kulturologik yo'nalishning ikkinchi yondashuviga A.Vejbitskaya olg'a surgan fikrlar asos bo'lgan. U o'z tadqiqotida yapon tilidagi *yashil*, *havorang*, *ko'k* ranglarning farqlarini tushuntiradi va qachon qaysi rang ishlatilishini ko'rsatib beradi⁷⁰.

A.Vejbitskaya fikriga ko'ra, rang narsaning xususiyatlaridan kelib chiqib predmetga beriladi. Aoi deganda *ko'k*, *havorang*, *yashil* tushuniladi. Shuning uchun yapon tilida *aoi* rangi *ko'k* osmon, o't rangi, svetaforning yashil rangini ifodalaydi. A.Vejbitskaya predmetning rangini tasvirlashda predmetni inobatga oladi. Ranglarni berish umumiy inson tajriba elementlariga, umumiy elementlar: kun va tun, quyosh, olov, o'simlik, osmon va yerni tashkil etishi, insonning rangni ko'rish hissiyoti ongda paydo bo'ladi⁷¹.

O't yoki daraxtga nisbatan yashil emas, ko'k rangni ishlatish bu ularning holatiga bog'liq. Masalan, o't, daraxtni rangi doimo yashil. Lekin ularni yomg'irdan keyin tasvirlaganda yaponlar "Yomg'irdan so'ng o'tlar yoki daraxt

⁶⁸ O'sha asar. – B.76-82.

⁶⁹ O'sha asar. – B.80.

⁷⁰ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – С.231-291.

⁷¹ O'sha asar. – B.20-21.

to‘qko‘k rangga kirdi” deydilar. Yaponlar bu bilan u doimo ko‘k rangligini emas, yomg‘irdan keyin shu holat bo‘lganligini nazarda tutadilar. Bundan midori-yashil deganda narsalarni tabiiy rangiga, aoi-ko‘krang narsalarni qandaydir o‘zgarish holati yoki vaqtinchalik ko‘rish taassurotiga qarab qo‘llaniladi. Daryoga nisbatan ham *aoi - ko‘k* rangi qo‘llaniladi. Chunki daryo turli vaqtda *ko‘k* yoki *yashil* rangda bo‘lishi mumkin⁷².

Ikkinchi yo‘nalishda lingvokulturologiyaning ikkita yondashuvi mavjud. Lingvokulturologik ishlarda rang qanday berilgan, uni berilishi nima bilan bog‘liq va asosiysi rang berilishida qanday g‘oya olg‘a surilgan degan savollar o‘rtaga tashlanadi.

Birinchi yondashuvda rangga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, unga til orqali nisbiy qaralgan. Ranglar tahlili umumiy tarzda, ya’ni til va adabiyot orqali ko‘riladi⁷³. V.A. Maslova rang ifodalanishi madaniyat, tabiat, predmet bilan bog‘liq degan fikrni ilgari suradi. Oxirgi qilingan tadqiqotlar insonning o‘n xil pigment geni rangga tegishlilik uchun bitta rangni ikkita inson ikki xil ko‘rishi, rang tasviri va uni nomi inson ongida boshqa boshqa holatni ko‘rsatishi mumkin degan xulosaga keladi. Bu turli xil davlatlarda ranglarni qanday qabul qilinishiga, yashil – AQSH da “tinchlik”, Fransiyada – “jinoyat” , oqrang–xitoyliklar uchun “g‘am” ni, yevropaliklar uchun bu ma’no qora rangda ifodalanishini ta’kidlab o‘tadi. V.A.Maslova shimol taraflarda asosiy tasavvurdagi rang oq va sariq yoki kun ikki xil: oq va qizil rang bo‘lib, u quyosh va olov hukumdori, oq va qizil – go‘zallik, oqni o‘zi muhabbat ramzi, qizil – olov ramzi, qora – g‘urbat, g‘am ramzi, kechqurun ham qora rangda, yashil – yoshlik rangda ifodalanishi har bir xalq madaniyatidagi asosiy ranglar va ranglarni tasavvuri bilan bog‘liq hodisa ekanligi haqida umumiy xulosalarida beradi.

⁷² Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – С.20.

⁷³ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – С.208.

Lingvokulturologiyaning ikkinchi yondashuvida rang muammosi matn nuqtai nazaridan o'rganilgan va ushbu yondashuvda uch xil qarashlar mavjud.

A.V.Kudrina, B.G.Mesheryakov matnda ranglar tahlili obyektiv haqiqatlar bilan bog'liqligini ko'rsatsa, E.A.Yushkina rang muammosiga badiiy asar orqali yondashib, ranglar ifodalanishi yorug'likka bog'liqligini aniqlaydi. Yu.M.Lotman badiiy asardagi ranglarni berilishiga emas, simvollarni, jumladan, rang simbolikasini badiiy asardagi talqiniga e'tiborini qaratadi.

A.V.Kudrina, B.G.Mesheryakov har bir aniq obrazda "tashqi dunyo – predmetli holat; madaniyat dunyosi – ma'nolar; til namoyon qiluvchisi – so'z; ichki dunyo – shaxsiy tushuncha" ni namoyon qiladi va madaniyat ma'nolar, hissiyot, ta'sirchanlikka borib taqalishini ta'kidlaydi. Masalan, qizil qon bosimini oshiradi, qon aylanishini tezlashtiradi. Lyusher fikricha, qadimgi davrdan boshlab qizil xavf, hujumni bildirgan⁷⁴. B.G.Mesheryakov fikriga ko'ra esa, imperator davridan yapon bayrog'ida qizil rangli dumaloqni aks etishi "biz jahon miqyosidagi rivojlangan mamlakatlar miqyosiga chiqamiz", degan ma'noni anglatgan. Qizilrang sintoizimda olov va quyosh, ular yordamida qora kuchlar quvuladi; qizil – qon, hayot; sintoistlar ibodatxonasiga eltuvchi darvoza qizil bo'lgan; oq – poklik; qizil va oq rangning qo'shilishi baxtli va tashvishsiz kelajakni ifodalagani haqida gap boradi⁷⁵.

E.A.Yushkinaning tadqiqotida rangni tahlil qilish nafaqat uni til yoki adabiyotdagi ramziy ma'nolari orqali, balki yorug'lik va rang degan muammoni ham o'rganish muhim sanalishi muhimligi aytiladi. Yorug'lik va rangni adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan talqinida badiiy ekanligi, boshqa badiiy kategoriyalar, ya'ni, vaqt va makonni hisobga olish kerak. Badiiy asarda rangni yorug'lik va rang yo'nalishida o'rganish asardagi ma'noviy va bir butun obrazlar, yozuvchining psixologik portreti, o'sha muhit va vaqtdagi psixologik holatni ochib beradi. E.A.Yushkina badiiy asardagi ranglar tahlili juda murakkab,

⁷⁴ Кудрина А.В., Мещеряков Б.Г. Семантика цвета в разных культурах // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. – Дубна, 2011. – С.2.

⁷⁵ Мещеряков А.Н. Книга японских символов. – М.: Наталис, 2010. – С.38.

bir butun tahlilni talab etgani bois psixologik, kulturologik, falsafiy, badiiy va lingvistik jihatdan yondashish kerakligi haqida xulosaga keladi⁷⁶.

Yu.M. Lotman simvol belgi, arxaik xususiyatga ega, u tugallangan ma'no, o'ziga bog'lanish xususiyatini oladi, lekin unda ma'noviy va tuzilishli alohidalik saqlanib qoladi; madaniyatda simvol matnga ko'chib, syujetli sxema va boshqa semiotik o'zgarishga o'tishi, u keng ma'noda milliy va hududiy chegarani belgilashi haqida gapiradi.

Simvolda gen syujeti sifatida belgi va xususiyatlar o'tkazib turish xossasiga ega. Ushbu xususiyati boshqa madaniyatga ham xos bo'lishi, ularni xarakterli belgilarini saqlab berish uchun imkon beradi degan xulosaga kelgan⁷⁷.

Xulosa qilib aytganda, rang mavzusini o'rganishda kulturologik va lingvokulturologik yondashuvlar mavjud. Lingvokulturologik jihatdan rang bildiruvchi so'zlarning ma'nosi ikki xil yo'nalish: til va matn nuqtai nazaridan o'rganilgan. Til nuqtai nazaridan rang bildiruvchi so'zlarning lug'aviy ma'nolari va ma'no ko'chish yo'llari kuzatiladi. Matn nuqtai nazaridan rang bildiruvchi so'zlarning ma'nosi matnda boyib, murakkablashib, konsept maydonini tashkil qilishi o'rganiladi. Tadqiqot ishimizda asarda rang berilishi nimalarga asoslanishini o'rganishda lingvokulturologik yondashuvning matn nuqtai nazaridan yo'nalishi asos qilib olindi.

I bob bo'yicha xulosa

Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang simolikasini ochib berish maqsadida simvol, konsept, ularning o'zaro uyg'unligi o'rganib chiqilib, bir qancha xulosalarga kelindi.

Simvol va uning yondashuvlari o'rganilib quyidagi xulosalar berildi:

- simvolni o'rganishda lingvokulturologiya, lingvopoetika, semiotika yo'nalishlari mavjud;

⁷⁶ Юшкина Е.А. Поэтика цвета и света в прозе М.А.Булгакова. – Волгоград, 2008. – С.14.

⁷⁷ Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. – СПб.: Искусство, 2000. – С.220-240.

- simvol badiiy adabiyotdagi g'oyani birlashtiradi. Simvol belgi, obraz, konsept tushunchalari bilan taqqoslanadi. Belgini asosiy xususiyati aniq ishora bo'lsa, simvol esa turli xil reallikni semantik voqelikda aks ettiradi. Simvol asosida obraz yotadi. Simvol badiiy asarda konsept shaklida namoyon bo'ladi;

- simvol yashiringan mazmundan tortib bir-birini o'rnini bosuvchi semiotik shaklni o'z ichiga oladi. Simvol mazmun va ifodada matnni namoyon qilib, o'zining yagona ma'nosini beradi;

- simvollar orasidagi munosabat yozuvchi ijodiy xususiyatidan kelib chiqadi;

- simvol tushuncha, tildagi belgi, adabiyotda obrazli xususiyatni ifodalovchi.

- simvolning xususiyatlari turli xil namoyon bo'lishi gen syujeti deb nomlanadi. Simvolga gen syujeti sifatida qarashda uni belgili, ma'no xususiyatlarini matnda namoyon bo'lishi nazarda tutiladi. Gen xususiyati badiiy asar bir butun ko'rilganda ochiladi va konsept maydonida namoyon bo'ladi.

Konseptni fanda tahlil qilinganda esa quyidagi xulosalarga kelindi:

- tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi;

- konsept tushunchaning obrazda, mazmun va belgida aks etuvchi tarkibiy shakllarida mujassamlashgan mohiyatidir. Konsept matnda bir butun ko'rinishda namoyon bo'lib, matnda aks etgan mazmunni ochib berishga xizmat qiladi;

- konsept bir millatning nimadir haqida o'y-fikrlar, qarashlari;

- konsept inson ongidagi madaniyat bo'lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamini mental birligi bo'lib madaniyatga kirgan;

- konseptning obraz, ma'lumotlar saqlovchisi, tahlil maydoni xususiyatlari mavjud;

Simvol va konseptga qilingan xulosalardan ularni o'zaro uyg'unlikda o'rganish dolzarb hisoblanadi degan fikrga kelindi:

- madaniyatdagi belgilar orqali konsept va uni harakatini simvol orqali qayta yaratish mumkin;

- badiiy asarning mazmun jihatdan tahlilida simvol sintez qilinadi, ko'p ma'noli obrazning logik qatlami tushunilib, ma'no formasi konseptga aylanadi;
- simvol chegaralangan va estetik kategoriyani namoyon qilib, doimo badiiy asardagi konseptga ishora qiladi;
- simvol va konsept uyg'unligini o'rganishda semantikada simvolning bir taraflama izohidan qochiladi, chunki ustki ma'noda simvolni ochib berish yetarli emas, u matnda qayta hayot kasb etadi.

Rang simvolikasi ham simvol va konsept tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiq qilingan ishlardan *kulturologik* va *lingvokulturologik* yo'nalishlarda rang mavzusiga oid ishlar olib borilganligi ko'rildi. Kulturologik ishlarda ranglar tasnifi, nimaga asoslanishi, xususiyatlari, ma'nolari ochib berilgan. Lingvokulturologik ishlarda rang berilishi nima bilan bog'liq va unda qanday g'oya olg'a surilgan degan savollarga javob beriladi. Lingvokulturologik jihatdan rang bildiruvchi so'zlarning ma'nosi o'rganilishida til va matn yo'nalishi mavjud. Til nuqtai nazaridan rang bildiruvchi so'zlarning lug'aviy ma'nolari, matn nuqtai nazaridan rang bildiruvchi so'zlarning ma'nosi matnda konsept maydonini tashkil qiladi degan xulosaga kelindi.

II bob. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang masalasi va uning ifodalanishi

1. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang masalasiga kirish⁷⁸

Yuqorida til va matnda ranglarning talqini V.M.Alpatov, V.A.Maslova, A.Vejbitskaya, Fukuda Kunio va boshqa ko‘plab olimlar ishlarida tadqiq qilinganligi ko‘rildi. Rang doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ranglar tasnifi va xususiyatlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va nisbiy berilgandagi rang ma‘nolari, rang berilishida qanday g‘oya olg‘a surilgan degan savollar ochib berilgan.

Biz ham ilmiy tadqiqot ishimizda ushbu savollarga javob topish maqsadida “Qumdagi xotin” romanida ranglar berilishidagi holat va yondashuvlarni ko‘rib chiqamiz.

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida berilgan ranglar yig‘indisining talqini kognitiv tahlilni talab etadi. Asardagi ranglarni ko‘rib chiqishdan avval, til birligida mavjud bo‘lgan lug‘atdagi ranglarga to‘xtalib o‘tamiz.

Yapon tilida o‘n ikkita asosiy ranglar mavjud bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1.青 [ao] ko‘k

2.赤 [aka] qizil

3.茶色 [chairo] jigarrang (choy rangiga qarab)

⁷⁸ 1924-yilda tug‘ilgan yapon yozuvchisi, ko‘p qirrali ijodkor, noyob asarlar muallifi Abe Koboning yapon adabiyotida o‘zining alohida o‘rni bor. Uning “Yashik-odam”, “Begona yuz”, “Yashirin ma‘lumot” va bundan tashqari yana ko‘plab asarlari yaponiya hayoti, inson ichki ruhiyati va olamiga bag‘ishlangandir. Jumladan, “Qumdagi xotin” (1964) romani. Ushbu romanda Niki Dzyupey maktab o‘qituvchisi hashoratlarni kolleksiya qilishni yaxshi ko‘rgani sababli, ularni yangi turini qidirish maqsadida cho‘lga sayohatga jo‘naydi. Cho‘lda uni mahalliy aholi yolg‘on bilan g‘orli uyga tashlaydilar. Ushbu joydan biron kimsani yordamisiz chiqishni iloji yo‘q edi. Chorasiz qolgan Niki bir ayol bilan yashay boshlaydi. Cho‘lda har kuni shamol, to‘zon ko‘tarilib aholi yashaydigan uylarni qum bosib qolar, har bir uyni qumdan tozalash kerak bo‘lardi. Aholi soni kam, ishchi kuchi yetishmasligidan shaharlik o‘qituvchi Niki ham shu maqsadda mahalliy aholi tomonidan qopqonga tushirilib, shu uylardan birida yashashga mahkum etilgandi. U har qancha urinsa ham, har qanday qochish yo‘llarini qilib ko‘rsa ham, bu ishini uddalay olmadi. Oradan yetti yil o‘tgandan so‘ng Niki Dzyupey toplimaganligi uchun o‘likka chiqariladi.

4. 橙色 [daidaiiro] olovrang
5. 灰色 [haiiro] kulrang (kul rangiga qarab)
6. 黄色 [kiiro] sariq
7. 黒 [kuro] qora
8. 緑 [midori] yashil (ko‘kat rangiga qarab)
9. 水色 [mizuiro] havorang (suv rangigga qarab)
10. 桃色 [momoiro] pushti (shaftoli rangiga qarab)
11. 紫 [murasaki] binafsharang
12. 白 [shiro] oq⁷⁹

O‘n ikkita rangdan yettita rang (ko‘k, qizil, olovrang, sariq, qora, binafsharang va oq) ni o‘zini alohida nomlanishi mavjud bo‘lib, beshta rang (jigarrang, kulrang, yashil, havorang, pushti) biron-bir narsaga o‘xshatish orqali nomlangan. Romanni o‘rganish jarayonida o‘ttiz beshta ranglarni ifodalagan so‘zlar keldi (qora, qop-qora, ko‘k, alvon, qizil, qizg‘ish, qip-qizil, tong rangi, sutrang, ochsutrang, sariq, sarg‘ish, to‘qsariq, oq, oqish, oppoq, kulrang, ochkulrang, ochyashil, qoramtiriyashil, yashil, qahvarang, qo‘ng‘ir, eski siyoh rangi, g‘ishtrang, toshbaqa kosasi rangi, qo‘rg‘oshin, yupqa, tiniq, nimshaffof rangi, qum rangi, kumush, jigarrang, ochpushti, oltin rangi). Ikki manbani solishtirish natijasida lug‘atdagi asosiy ranglardan tashqari bunga qo‘shimcha yana yigirma uchta ranglarni ham kelishi kuzatildi. Asosiy ranglar matnda turli

⁷⁹ Сатоу Идзаму Коданся японско-русский словарь. – Япония: Коданся Токио, 1981. – 1186 с.

xil darajalarda ham (qop-qora, qizg'ish, qip-qizil, sarg'ish, to'qsariq, oqish, oppoq, ochyashil, qoramtiryashil, ochpushti, ochkulrang, ochsutrang) kelgan. Asarda ifodasini topgan ranglarni uch xil holatda tahlil qilishimiz mumkin. 1) bevosita: to'g'ridan-to'g'ri va doimo qo'llanilishiga qarab; 2) bilvosita: o'xshatish, boshqa predmet orqali; 3) rang qaysi predmetga nisbatan qo'llanilishiga qarab ifoda etilgan.

Birinchi holatda ranglarni berilishiga bevosita qaraladi va uning ikki turi mavjud. Birinchi turda "Qumdagi xotin" romanidagi ranglar to'g'ridan-to'g'ri berilgan. Bunda rangni hech qanday narsalarga o'xshatilmay, o'z ma'nosida kelganligi ko'rildi (qora, alvon, sariq, qo'ng'ir, jigarrang, oq) .

むろん、その中の何軒かは、黒い瓦ぶきだったり、べにがら色のトタンぶきだったりした⁸⁰。

[Muron, sono Chū no nangen ka wa, kuroi kawara bukidattari, be ni gara-iro no totan bukidattari shita]

Bir qancha uyning tomi *qora* rangli cherepitsa, ba'zilar *alvon* rangli tunuka bilan yopib qo'yilgandi.

ふつう、ハンミョウ属の前足は、いかにも敏捷そうに、黒くほっそりしているものだ。ところが、そいつの前足ときたら、まるで部厚い鞆をかぶせたように、もっこりとしていて、黄味がかった。 (砂漠の女 121)

⁸⁰ 安部公房全 1962.04-1962.11. – 東京: Abe Neri, 1998. – p.119. [Abe Kobo Zenshyu 1962.04-1962.11. – Tokyo: Abe Neri, 1998. – p.119] – “Abe Kobo To'plam. 1962.04- 1962.11. – Tokio: Abe Neri, 1998. – 119 b.” Keyingi o'rinlarda 砂漠の女 qisqartma shaklida ketadi.

[Futsū, hanmyou zoku no maeashi wa, ikanimo binshō-sō ni, kuroku hossori shite iru monoda. Tokoroga, soitsu no maeashi tokitara, marude buatsui saya o kabuseta yōni, mok kori to shite ite, ki aji gakatte ita]

Odatda ispan pashshasi guruhidan boʻlgan hashoratlarning oldingi oyoqlari harakatchan, *qora* rangli va ingichka boʻladi. Biroq bu pashshaning oldingi oyoqlari dumaloq, qaychi idishiga oʻxshash yumaloq, *toʻqsariq* rangli edi.

こうして彼は、その黄色い前足をもった二ワハンミョウに、すっかりとりこにされてしまったのである。(砂漠の女 122)

[Kōshite kare wa, sono kiroi maeashi o motta ni wahanmyouni, sukkari toriko ni sa rete shimatta nodearu]

Shu tariqa erkak oldingi oyoqlari *sariq* ispan pashshasiga ishqiboz boʻlib qoldi.

絶えまなく、海から風が吹きつづけ、はるか眼の下の砂丘のふもとをちぎれた白い波が嚙んでいる。(砂漠の女 124)

[Taema naku, umi kara kaze ga fuki tsudzuke, Haruka me no shita no sakyū no fumoto o chigireta shiroi nami ga kande iru]

Dengizdan shamol esar, *oq* asov toʻlqinlar qum tepa etagiga yopishardi.

「ノコギリ?」「赤っぽい、ひげの長いやつだろう?」「いいえ、からかね色の、米粒みたいな形ですけど」「そうか、それじゃ、オバタマムシだ。」(砂漠の女 129)

[Nokogiri? Akappoi, higeno nagai yatsudarou? Īe, karakane-irono, kometsubu mitaina katachidesukedo. Sōka, sore ja, obatamamushida]

- Yogʻoch teshar qoʻngʻizmi? – Qizgʻish moʻylovi uzun qoʻngʻizmi? – Yoʻq, *qoʻngʻir* rangli, tuzilishi sholi donasiga oʻxshagani. – Ha shunaqa degin. Unda kamalak qoʻngʻiz ekan.

唾は、泡だらけの褐色のかたまりになって、唇の端からふきだしてきた。(砂漠の女 144)

[Tsubawa, awadarake no kasshoku no katamari ni natte, kuchibiru no hashi kara fukidashite kita]

So‘lagi og‘zining chetlarida *jigarrang*, quyqali ko‘pik bo‘lib yig‘ilib qolibdi.

黄色胃液と、涙が、あふれだしてきた。(砂漠の女 196)

[Kiiro ieki to, namida ga, afure dashite kita].

Sariq safro qayt qildi, ko‘zlaridan tirqirab yosh oqib ketdi.

返事のかわりに、燻製の鰯のような、薄い唇をめく唇り上げ、隙間に砂がつまった

黄色い牙をむきだした。。。 (砂漠の女 214)

[Henji no kawari ni, kunsei no nishin no yōna, usui kuchibiru o meku kuchibiruri age, sukima ni suna ga tsumatta kiiroi kiba o muki dashita].

It javob o‘rniga lunjlarini tirishtirib, qum yopishib qolgan *sariq* tishlarini irjaytirdi.

もっといけないことは、おれの鴉が逃げたことと、鴉の群のなかに一羽、足に白い紙片れをつけたのがいることと、この二つを結びつけば、部落の連中にも、こちらの意図がそっくり筒抜けになってしまうことだ。。。 (砂漠の女 233)

[Motto ikenai koto wa, ore no karasu ga nigeta koto to, karasu no gun no naka ni ippa, ashi ni shiroi shihenre o tsuketa no ga iru koto to, kono futatsu o musubitsukereba, buraku no renchū ni mo , Kochira no ito ga sokkuri tsutsunuke ni natte shimau kotoda. . .]

Shuni ham ehtimolga olish kerakki, buning qarg‘asi uchib ketgani bilan, qarg‘alar ichida oyog‘iga bir parcha oq qog‘oz bog‘langan qarg‘a paydo bo‘lgan ikkita dalilni taqqoslasalar, siri ularga ochilib qoladi...

黒い、草の実のようなつぶつぶが、土間に飛びちり、たちまち砂にしみこんでしま
う。(砂漠の女 238)

[Kuroi, kusano jitsuno youna tsubu tsubuga, domain tobichiri, tachimachi sunani
shimikonde shimaui]

Qora rangli o‘simlikning mevasiga o‘xshash munchoqlar yerga sochilib, qumga
ko‘mildi.

力なくたるんだ唇から、黄色い唾液といっしょに、添えたうめきがこぼれだした。

(砂漠の女 238)

[Chikara naku tarunda kuchibiru kara, kiroi daeki to issho ni, soeta umeki ga
kobore dashita]

Kuchsiz lablaridan *sariq* so‘lak bilan kuchli faryod chiqdi.

殺虫瓶の底の、粉を粉ふいた白い錠剤．．．(砂漠の女 241)

[Satsuchyubinno sokono, konawo kofuita shiroi jo’zai]

Hashoratlari solinadigan shishaning tagida ustini kukun bosgan *oq* kristallar...

Birinchi holatni ikkinchi turida ranglar odat bo‘lib qolgan so‘zlar yoki
ifodalayotgan predmeti bilan doimo qo‘llanilishiga qarab berilgan. Masalan, yuz
yoki tishga nisbatan *oq*, tuproq turlariga qarab *qizil*, rangsiz labga *oppoq*,
shafaqqa *qizil* rang bildiruvchi so‘zlar qo‘llanilganligini quyidagi misollardan
kuzatamiz.

昨夜ランプの光で、いやに色白に見えたのは、やはり化粧のせいだったらしい。(砂
漠の女 142)

[Sakuya ranpuno hikaride, iyaniiro shironi mietanowa, yahari keshyouno
seidattarashi]

Kecha kechqurun chiroqning yorug‘ida *oq* ko‘ringan yuzi bo‘yoq tufayli ekan.

白い歯をみせて、さわやかに笑うのだ。(砂漠の女 170)

[Shiroi ha o misete, sawayaka ni warau noda]

Oq tishlarini koʻrsatib qahqah kulib yubordi.

赤土でも、自然に切り出された赤土と、盛土した赤土とでは、圧力に対する抵抗力がまるでちがうという。(砂漠の女 154)

[Akatsuchi demo, shizen ni kiridasa reta akatsuchi to, morido shita akatsuchi tode wa, atsuryoku ni taisuru teikouryoku ga marude chigau to iu]

Qizil tuproqda, tabiiy *qizil* tuproq bilan qazib olingan qizil tuproqni bosimi farq qiladi.

丸くすりへった刃の先が、瀬戸物の割れ目のような白い光をはなっていた。(砂漠の女 153)

[Maruku surihetta ha no saki ga, setomono no wareme no yōna shiroi hikari o hanatte ita]

Yarim doira shaklidagi charxlangan kurakning uchi chinni parchasiga oʻxshash oq yorugʻlik taratardi.

ただでさえ冴えない色の唇を、ほとんど血の気が失せるまでに、左右に強くひきのばし、そこだけ見ると、まるで妖怪の形相である。したたる唾液が、顎の下の畳を黒く染めている。(砂漠の女 173)

[Tadade sae saenai iro no kuchibiru o, hotondo chinoke ga useru made ni, sayū ni tsuyoku hikinobashi, soko dake miru to, marude yōkai no keisōdearu. Shitataru daeki ga, yatsureno shita no tatami o kuroku somete iru]

Oʻzi rangsiz lablaridan qon ham qochib *oqarib* ketibdi, burilganda tuzilishi xuddi uzun tayoqdek suratining oʻzi qolibdi. Ogʻzidan oqayotgan soʻlagida *qora* rangli xalqob yigʻilibdi.

朝の陽差しの、赤いくまどりで、やっと見分けられる。(砂漠の女 184)

[Asa no yō-sashi no, akai kuma doride, yatto miwake rareru]

Ertalab *qizil* shafaqda momiq bulutchalarni ko‘rish qiyin edi.

あの、ずんぐりした掘立て小屋の赤犬が、後ろの方から、けしかけているのかもしれない。(砂漠の女 224)

[Ano, zunguri shita hottate koya no aka inu ga, ushiro no kata kara, keshikakete iru no kamo shirenai]

Kichik vayrona kulbadan chiqqan *qizil* it ularga orqadan turib qarsak chalayotgan bo‘lishi ham mumkin.

Ikkinchi holatga ko‘ra “Qumdagi xotin” romanida ranglar berilishiga bilvosita qaralib, ularni birinchi nimagadir o‘xshatish; ikkinchi rangni o‘ziga o‘xshatish; uchinchi ranglar nimadir orqali ham ifodalanilganligini quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

I. *O‘xshatish orqali*. Bu holatda rang sichqon, kul, yuz, hashorat, qahva, oltin ranglariga o‘xshatilgan holda aks etgan.

Sichqon rangiga qarab:

ある八月の午後、大きな木箱と水筒を、肩から十文字にかけ、まるでこれから山登りでもするように、ズボンの裾を靴下のなかにたくしこんだ、ネズミ色のピク帽の男が一人、S 駅のプラットホームに降り立った。(砂漠の女 118)

[Aru hachigatsu no gogo, ōkina hako to suitō o, kata kara jūmonji ni kake, marude korekara yamanobori demo suru yō ni, zubon no suso o kutsushita no naka ni takushikonda, nezumi-iro no piku-bō no otoko ga hitori, S-eki no Purattohōmu ni oritatta]

Avgust oyining kunlaridan birida tushlik vaqtidan keyin yelkasiga katta quti va suvdon osib olgan, toqqa chiqib ketayotgandek shimini pochasini paypog‘iga tiqib olgan, *sichqon rang*dagi bosh kiyim kiyib olgan odam S stansiyada turardi.

Kul rangiga qarab:

それから、苦しそうに、軒や壁の隙間から、さらさらと灰色の血をこぼし始める。

(砂漠の女 143)

[Sorekara, kurushi-sō ni, noki ya kabe no sukima kara, sarasara to haiiro no chi o koboshi hajimeru]

Shundan so‘ng iztirobli devor va uy tomidan *kul* rangidagi qon tirqirab oqishni boshladi.

Yuz rangiga qarab:

それより、婆さんなどというから、よほどの年寄りかと思っていたのが、ランプを
棒げて迎えてくれた女は、まだ三十前後の、いかにも人が好きそうな小柄の女だっ
たし、化粧をしているのかもしれないが、浜の女にしては、珍らしく色白だった。

(砂漠の女 128)

[Sore yori, bāsan nado to iukara, yohodo no toshiyori ka to omotte ita no ga, ranpu o bō-gete mukaete kureta on'na wa, mada san jū zengo no, ikanimo hito ga suki-sōna kogara no on'nadattashi, keshō O shite iru no kamo shirenaiga, hama no on'na ni shite wa, chinrashiku irojirodatta].

Xotin deyishsa u kekxa yoshdagi xotinni ko‘raman deb o‘ylagandi, ammo uni fonar bilan kutib olgan ayol o‘ttizlardan oshmagan, o‘rta bo‘yli, yuzi pardozi qilingan, dengiz yonida yashaydigan ayollarning *yuzlariga nisbatan oq rangli* edi.

Hashorat rangiga qarab:

朝は、窓ガラスの向こうから、鼻や額を、なめくじの腹のように白くつぶして、彼
をからかっているようだ。(砂漠の女 182)

[Asawa, madogarasuno mukoukara, hanaya atamawo, namekujino harano youni shiroku tsubushite, karewo karakatte iruyouda]

Ertalab derazadan peshanasi va burnidan oʻrmalagan *shilliq qurtning qornidek* oq tong otdi.

Qahva rangiga qarab:

それから、会場の天井には、まだ見たこともないほど大掛りな、コーヒー色の雨もりの跡があった。(砂漠の女 204)

[Sorekara, kaijō no tenjō ni wa, mada mita koto mo nai hodo ōgakarina, kōhī-iro no ame mori no ato ga atta]

Shiftda hali shu kungacha koʻrmagan katta-katta dogʻlar *qahva rangidagi* yomgʻir tomchilariga oʻxshab yoyilib yotardi.

Oltin rangiga qarab:

眼の端で、砂丘の稜線の一つが、金色に輝いた。なだらかに盛上ってきた曲面が、その黄金の線を境に、急角度で影のなかに滑りこむ。(砂漠の女 216)

[Me no hashi de, sakyū no ryōsen no hitotsu ga, kin'iro ni kagayaita. Nadaraka ni mori kami tte kita kyokumen ga, sono kogane no sen o sakai ni, kyū kakudo de kage no naka ni suberi komu]

U koʻz qiri bilan qum tepani *oltin rangdek* tovlanayotganini koʻrdi. Bir oqimda koʻtarilib borgan qiyalik zarhal chiziqda shartta kesilardi.

II. *Rangni oʻziga oʻxshatish.* Bunda aniq rangni nomi berilmay, rang darajalari ifoda etiladi (ochpushti, qop-qora, qizʻgish, ochyashil, qip-qizil, sargʻish, ochkulrang).

ある日家の近くの河原で、鞘翅目ハンミョウ属の、ニフハンミョウに似た、小っぱけな薄桃色の虫を見つけたものだ。(砂漠の女 121)

[Aru hi ieno chikakuno kawarade, kenshimoku hanmyouzokuno.

Niwahanmyouni nita, chippokena hakuto'no mushiwo mitsuketa monoda]

Bir kuni u uyi yaqinidagi ariq yonida qattiq qanotlilar guruhiga kiruvchi, ispan pashshasiga oʻxshash kichkinagina *ochpushti* rangli hashoratni koʻrib qoldi.

だから、将集マニアの額と鼻の頭は、いつも真っ黒にやけている。(砂漠の女 124)

[Dakara, shō-shū mania no gaku to hana no atama wa, itsumo makkuro ni yakete iru]

Shuning uchun hashorat ovlovchilarning peshanalari va burunlari har doim oftobdan *qop-qora* bo‘lib kuyib ketadi.

「ノコギリ?」「赤っぽい、ひげの長いやつだろう?」(砂漠の女 129)

[Nokogiri? Akappoi, higeno nagai yatsudarou?]

Yog‘och teshar qo‘ng‘izmi? – *Qizg‘ish* mo‘ylovdor bo‘ladimi?

着物とそろいのモンペの、淡い緑がかったかすりの色合からは、まるでハッカ入りの傷薬のような匂いさえ感じられたし、これならなにも文句を言うことはない。(砂漠の女 146)

[Kimono to soroi no Mon peno, awai midori gakatta ka suri no iroai kara wa, marude hakka-iri no kizu-yaku no yōna nioi sae kanji raretashi, korenara nani mo monku o iu koto wanai].

Kimonosi *ochyashil rangda* va naqsh tushirilgan, xuddi yalpizning isi taralayotgandek, bu holatda unga hech qanday e’tirozni gapirishni hojati yo‘q edi.

小さな、薄桃色の、しょうじょう虫が飛んでいた。(砂漠の女 163)

[Chīsana, usu momoiro no, shi youjou mushi ga tonde ita]

Kichkinagina, *ochpushti* rangli pashsha uchib yurardi.

いましめの跡は、赤黒い痣になっていた。その痣の表面に、白くふやけた膜がかかっている。(砂漠の女 184)

[Imashime no ato wa, akaguroi aza ni natte ita. Sono aza aza no hyōmen ni, shiroku fuyaketa maku ga kakatte iru]

Arqon *qip-qizil* izlar qoldirgandi. Ularning ust qatlami oq po‘st bilan qoplangan edi.

とたんに、あたりが暗く、錆色に塗りつぶされる。(砂漠の女 202)

[Totan'ni, atari ga kuraku, sabihiro ni nuritsubusa reru]

Qiya ochiq eshikdan *sarg‘ish* rangli oy nuri tushib turardi.

一面どんよりと赤味をおびた、砂の起伏にそって、けだるそうに長い影が流れ出した飛砂の膜が、次々と、また別の影の下に吸いこまれていく。(砂漠の女 212)

[Ichimen don'yorī to akami o obita, suna no kifuku ni sotto, kedaru-sō ni nagai kage ga nagaredashita tobisuna no maku ga, tsugitsugi to, mata betsu no kage no shita ni suikoma rete iku]

U bor kuchi bilan boshini ko‘targan edi *qizg‘ish* rangdagi qum to‘lqinlari uzun soyalar bo‘ylab alohida-alohida bo‘lib cho‘zilib ketgan edi.

ある日、穴のふちにかかった、一とかかえほどもありそうな灰白色の月を正面に見て、小便の最中、とつぜん男は激しい悪寒におそわれた。(砂漠の女 240)

[Aruhi, ana no fuchi ni kakatta, ichi to kakae hodo mo ari-sōna kaihakushoku no tsuki o shōmen ni mite, shōben no saichū, totsuzen otoko wa hageshī okan ni osowa reta]

Bir kuni chuqurning ustida qo‘l bilan ushlab ko‘rish mumkin bo‘lgan *ochkulrang* oyni tomosha qilayotgan erkak birdan eti qattiq uvushayotganini sezdi.

III. Asarda o‘z ifodasini topgan ranglar o‘xshatishdan tashqari boshqa narsalarning rangi orqali ham berilgan. Masalan, qo‘rg‘oshin, siyoh yoki sut ranglari orqali ifoda etilgan.

Qo‘rg‘oshin rangi:

魚の死骸から湧く波打際の鉛色のあぶく。。。 (砂漠の女 169)

[Sakana no shigai kara waku namiuchi sai no 鉛色 no abu ku]

O‘lgan baliqlar ko‘p, *qo‘rg‘oshin rangli* to‘lqinlar kelib uriladigan sohil...

Siyoh rangi:

手首もすでに、赤黒くむくみを帯びて、篋のようにつぶれたも、古いインクのしみ
のような色に変わっていた。(砂漠の女 173)

[Tekubi mo sudeni, akaguroku mukumi o obite, hera no yō ni tsubureta mo,
furui inku no shimi no yōna iro ni kawatte ita]

Qo‘llari, bilaklari ham ko‘karib mo‘mataloq bo‘lib ketibdi, etlari ko‘rinib qolgan
tirmoqlari quyulib qolgan *eski siyoh rangiga* kiribdi.

記事のまわりに、赤インクで枠を入れてなかっただけでも、めっけものだ。(砂漠の
女 167)

[Kiji no mawari ni, aka inku de waku o ire tenakatta dake demo,-me kke
monoda]

Maqolaning atrofini *qizil siyoh* bilan o‘rab qo‘yishmabdi.

Sut rangi:

男は、自分の裏切りに、やりきれない思い出、ざっしを投げだし、外にでった。崖
の上には、乳色の霧が、大きくうねりながら巻いていた。(砂漠の女 235)

[Otoko wa, jibun no uragiri ni, yarikirenai omoide, zasshi o nagedashi,-gai ni
detta. Gake no ue ni wa, nyūshoku no kiri ga, ōkiku unerinagara maite ita]

Erkak o‘ziga nisbatan xiyonatga chidayolmaganidan jurnalni otib, tashqariga
chiqib ketdi. Chuqur ustida *sutrang* tuman o‘raladi.

Uchinchi holatga ko‘ra romanda ranglar to‘g‘ridan – to‘g‘ri yoki
o‘xshatish orqali berilishidan tashqari, nimani ifodalayotganligi bilan ham
bog‘liq. Masalan, *tuman* yoki *yorug‘lik*ni berilishida lug‘atda uchramaydigan
ranglardan biri *sutrang* keltiriladi.

二つ折れになった黒い嘔吐のまわりを、淡い乳色の光が、ただぼんやりとなぞっていた。(砂漠の女 155)

[Futatsu ore ni natta kuroi ōto no mawari o, awai chichihiro no hikari ga, tada bon'yari to nazotte ita]

Ikki bukilgancha o‘z qusug‘iga belanib yotar, tevarak-atrofini *ochsutrang* yorug‘lik chulg‘agan edi.

Romanda rangga ega narsalardan tashqari, mavhum tushunchalar ham rangga ega ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, o‘zini himoya qilish rangi *qum rangi*, g‘am *tong rangi*, tashvish g‘*ishtrang* va *yashil* bilan aks etgan.

街は、近くのほうが棟瓦色で、遠ざかるにつれて、緑色にかすんでいく。その色の配合には、妙に不安をそそるものがあつた。(砂漠の女 159)

[Machi wa, chikaku no hō ga 棟瓦-iro de, tōzakarū ni tsurete, midoriiro ni kasunde iku. Sono-iro no haigō ni wa, myōni fuan o sosoru mono ga atta]
Ko‘cha yaqindan g‘*ishtrang* bo‘lib ko‘rinar, uzoqroqda esa *yashil* rangga kirib, ko‘zdan yo‘qolardi. Bu ranglar qo‘shilmasida tashvishli bir narsa bor edi.

「すると、なんだろうか」声までが、保護色に身をひそめ、砂の色になり、「ぼくのほかに、誰か、捕まっているやつがいるわけなんだね」(砂漠の女 180)

[Suruto, nandarouka koemadega, hogoshyokuni nowo hisome, sunano ironi nari, bokuno hokanimo, dareka, tsukamatte iru yatsuga iru wakenanne]

Shunday bo‘lsa nima bo‘ladi degan ovoz o‘zini himoya qiluvchi *qum rangiga* kirib, mendan boshqa kimdir ham tutilgan shubha bor edi.

ふと、夜明けの色の悲しみが、こみ上げてくる。(砂漠の女 231)

[Futo, yoake no iro no kanashimi ga, komiagetekuru]

To‘satdan *tong tusidek* g‘am qalbini egallab oldi...

Yuqoridagilardan xulosa qilib, Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida ranglar oddiy rang ma’nosida, doimo qo‘llanilishiga qarab, o‘xshatish yoki boshqa narsalarning ranglari orqali o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari mavhum tushunchalar va narsalarga ham rang berilgan.

Asarda ranglar berilishiga nisbiy qaralgan. Shu boisdan lug‘atda va matnda berilgan ranglar o‘rtasida sezilarli farqlar borligi aniqlandi. Bundan tashqari romanda ranglar berilishi asarda yotuvchi g‘oya bilan ham bog‘liq.

Ikkinchi bobimizning keyingi bo‘limlarida romanda aks etgan ranglar berilishidagi boshqa omillar ko‘rib chiqiladi.

2. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang masalasini ochib berishdagi yondashuvlar

2.1. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida predmet rangini aks ettirishda yorug‘likning ahamiyati

Ikkinchi bobimizning birinchi qismida Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida ranglar berilishidagi holatlarni ko‘rib chiqdik. Ushbu qismda ranglarning nisbiy berilishidagi predmet rangini aks ettirishda yorug‘likning ahamiyati, ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinishi va yolg‘izlik simbolikasini ochib berilishda ranglarning ahamiyati ko‘riladi.

Ushbu bo‘limda birinchi yondashuv tahlil qilinadi. Asardagi rang ifodasida yorug‘lik ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasiga ko‘ra “rang – moddalar chiqargan yoki qaytargan nurlanish spektoriga mos

ravishda yorug‘likning muayyan ko‘rish tuyg‘usini hosil qilish xossasi”⁸¹. Ranga berilgan ta’rifdan u yorug‘likka bog‘liq hodisa ekanligini anglaymiz. Uning bu xususiyatini boshqa olimlar ham ta’kidlab o‘tganlar. Jumladan, B.A. Normurodov rangning sezish omillarini quyoshga yoki yorug‘likka, ko‘zga bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, rangni sezish uchta asosiy omilga:

- 1) Predmetning, ayniqsa uning quyosh spektorining u yoki bu nurlarini qabul qilib oladigan yoki aks ettiradigan sirt tuzilishi.
- 2) Predmetdan kishi ko‘ziga ko‘rinadigan yorug‘lik nurlarining tabiati va sifati.
- 3) Mazkur axborotni olib, uni miyaga oshiruvchi ko‘zga bog‘liq⁸².

Fizik I.Nyuton ham rangning sezish omillari mavjudligini aniqlagan⁸³.

M.A.Borodina va V.G.Gakning ta’rificha ranglarning ikki turi mavjud. Bulardan, birinchisi – rangli tusga va to‘liqlikka ega, ikkinchisi – avvalo “yorug‘lik” degan tushuncha bilan bog‘liq; yorug‘likning mutlaqo bo‘lmasligi qora rangni, ayni vaqtda barcha rangli nurlarning bir tekisda aks etishi – oq rangni hosil qiladi⁸⁴.

“Qumdagi xotin” romanidagi voqealar rivojida kechqurungi holatni tasvirida yorug‘likni umuman bo‘lmasligi sababli barcha narsalar *qora* rangda aks etadi.

その向こうに、黒い砂の壁が、のしかかるようにそそり立って。(砂漠の女 133)

[Sono mukō ni, kuroi suna no kabe ga, noshikakaru yō ni sosoritatte]

Orqasida *qora* qum devori qad ko‘tarib turardi.

⁸¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-tom. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B.49.

⁸² Normurodov B.A. Til va adabiyotda ranglarning ramziy ahamiyati. – Toshkent: Bilim, 1987. – B.8.

⁸³ Rangni sezish omillarini I.Nyuton to‘laroq quyidagicha tushuntiradi. Uning fikricha, quyosh nurini yettita rangga: qizil, to‘qsariq, sariq, yashil, moviy, ko‘k, binafsha ranglarga ajratgan. Rang to‘lqin uzunligiga bog‘liq. Bizni o‘rab olgan predmetlar turli-tuman rangga ega, chunki ular turli to‘lqin uzunligidagi nurlarni qabul qilib oladi yoki aks ettiradi: barcha oltita rangdagi spektorni qabul qilib va faqat sariq nurni aks ettirgan predmet bizga sariq bo‘lib tuyuladi. Shunga muvofiq barcha ranglar ikkita asosiy guruhga bo‘linadi: 1) xromatik, ya’ni quyosh nuridagi barcha ranglar va ularning tuslari; 2) axromatik-oq, qora, kulrang.

⁸⁴ Normurodov B.A. Til va adabiyotda ranglarning ramziy ahamiyati. – Toshkent: Bilim, 1987. – B.7.

底にこびりついた黒い砂が、わずかに指先をよごしただけだった。(砂漠の女 183)

[Soko ni kobi ri tsuita kuroi suna ga, wazuka ni yubisaki o yogoshita dakedatta]
Tagiga cho‘kib qolgan *qora* qum quyqasi barmoqlarining uchini iflos qilgan edi.

小屋の後ろに、まわりこもうとしたとたん、中から黒いものが這い出してきた。(砂漠の女 214)

[Koya no ushiro ni, mawarikomou to shita totan,naka kara kuroi mono ga haidashite kita]

Kulbani orqasidan aylanib o‘tmoqchi bo‘lganida, undan *qora* sharpa chiqib keldi.

Uzoq masofadagi narsalar tasvirida yorug‘likni tushmasligi sababli ham ko‘pincha *qora* rangni berilishi kuzatildi.

肘の深さまで掘ると、砂が黒く、しめり気をおびてくる。(砂漠の女 196)

[Hiji no fukasa made horu to, suna ga kuroku, shimeri ki o obite kuru]
Tirsagining uchigacha chuqur qazigach qum *qora* rangga kirib, namxush bo‘lib qolgan edi.

海側の崖の下に立って、見上げると、なるほど黒い櫓の先端が、小指の先ほどの頭をぞけている。(砂漠の女 197)

[Umigawa no gake no shita ni tatte, miageru to, naruhodo kuroi yagura no sentan ga, koyubi no saki hodo no atama o zo kete iru]

Dengiz tomonidagi chuqur yonida to‘xtab, yuqoriga qaradi, kichik barmog‘ini uchidan katta bo‘lmagan *qora* havozeni uchini ko‘rdi.

水平線に、距離も大きさも分からない、黒い船の影が、点になって停っていた。(砂漠の女 214)

[Suiheisen ni, kyori mo ōki-sa mo wakaranai, kuroi fune no kage ga, ten ni natte tomatte ita]

Ufqda, masofasi va hajmi noaniq, *qora* kema soyasi qimir etmay bir joyda turar edi.

男は、その黒い棘にむかって、スコップをかざし、力いっぱい左右に振った。(砂漠の女 197)

[Otokowa, sono kuroi odoroni mukatte, sukoppuwo kazashi, chikara ippai sayuni furutta]

Erkak *qora* ko‘ringan kichkina narsaga o‘girilib, belkurakni ko‘tardi-da, bor kuchi bilan silkitdi.

Yorug‘likda barcha rangli nurlarning bir tekisda aks etishi – *oq* yoki och rangni hosil qiladi. Buni romandagi misollarda ham ko‘rish mumkin.

次第に白っぽく枯れてい海辺に向かって、さらに歩きつづけた。(砂漠の女 118)

[Shidaini shiropoku karete iku umibe ni mukatte, sarani aruki tsudzuketa]

Birdan tuproqning rangi *oqarib*, qurib bormoqda, u baribir yurishda davom etdi.

わずかに土が露出しているところもあったが、大半は白く乾いた砂地だった。(砂漠の女 119)

[Wazuka ni tsuchi ga roshutsu shite iru tokoro mo attaga, taihan wa shiroku kawaita sunajidatta]

Atrofida bir qancha hosildor ekin maydonlar, qolgan yarmi esa *oq* qumloq yer edi.

砂と粘土で、しっくいのように固められた道端には、くだかれた貝殻が、白い山をつくっていたりしました。(砂漠の女 119)

[Suna to nendo de, shikkui no yō ni katame rareta michibata ni wa, kudaka reta kaigara ga, shiroi yama o tsukutte itarimashita]

Qum bilan tuproqda, sementlangandek yoʻlning chetida chaqilgan chigʻanoqlar
oq togʻ boʻlib yotardi.

絶えまなく、海から風が吹きつづけ、はるか眼の下の砂丘のふもとをちぎれた白い
波が囃んでいる。(砂漠の女 124)

[Taema naku, umi kara kaze ga fuki tsudzuke, Haruka me no shita no sakyū no
fumoto o chigireta shiroi nami ga kande iru]

Toʻxtovsiz dengizdan shamol esishi davom etar, qum tepa etagiga oq asov
toʻlqinlar yopishardi.

貝殻をまいた道が、薄暗がりの中に、ほの白く浮くんでいた。(砂漠の女 127)

[Kaigara o maita michi ga, usukuragari no naka ni, ho no shiroku ukunde ita]
Chigʻanoq yoʻl qorongʻulikda *oqarib* turardi.

火の見から見れば、こちらは、ちょうど逆光線の万角にあたり、わずかな靄でも、
厚い乳色の幕になって、すっかり視界をさえぎってしまうにちがいない。(砂漠の女
207)

[Hinomi kara mireba, kochira wa, chōdo gyakukōsen no bankaku ni atari,
wazukana moya demo, atsui chichi-iro no maku ni natte, sukkari shikai o
saegitte shimau ni chigainai]

Olovning yonish burchagidan qaralganda, bu yer unga nisbatan yorugʻlik
qaytish burchagi, ozgina tuman ham qalin *ochsutrang* pardaga aylanib, diqqatlik
bilan kuzatilganda ham koʻzdan gʻoyib boʻlish mumkin.

沈みかけている太陽を、クレヨン色にぼかし、あたりを乳色にけむらせているのは、
ただ飛砂のせいだけではなかったのだ。(砂漠の女 212)

[Shizumi kakete iru taiyō o, kureyon-iro ni bokashi, atari o nyūshoku ni kemura
sete iru no wa, tada tobisuna no sei dakede wa nakatta noda]

Botayotgan quyosh rangli qalam bilan bo'yab qo'yilgandek, atrof-muhitni *sutrang* tuman bilan chulg'agan edi.

Yorug'likni inson ko'ziga tushishida ham ranglarni ko'rishda ta'siri mavjud.

戸口にたって、砂の壁を見上げた。光が眼にしみ、あたりが黄色く燃えはじめた。

(砂漠の女 162)

[Toguchi ni tatte, suna no kabe o miageta. Hikari ga me ni shimi, atari ga kiiroku moe hajimeta]

U ostonada turib qum devorga qaradi. Ko'ziga shu'la tushib, atrofni *sariq* alanga chulg'ab olishni boshladi.

鴉の鳴き声がした。突然、光線が黄色から青に変わった。(砂漠の女 202)

[Kyouno nakigoe ga shita. Totsuzen, kōsen ga kiirō kara ao ni kawatta]

Qarg'a qag'illadi. Yorug'lik birdan *sariq* rangdan *moviy* tusga kirdi.

Uzoq masofada turgan to'q rangli predmetlar sovuq tusga, ko'pincha yorqin ranglar esa issiq tusga kiradi. Romanda ham uzoqroq masofada turgan qarg'a qanotlari ham sovuq rang - qoramtir rangda keltirilgan.

ひろげた翼の先が、暗緑色に輝き、すると男は、なぜか殺虫瓶のなかの青酸カリのことを思い出していた。(砂漠の女 202)

[Hirogeta tsubasa no saki ga, anryokushoku ni kagayaki, suruto otoko wa, naze ka satchū bin no naka no seisankari no koto o omoidashite ita]

Qanotlarining uchlari *qoramtiryashil* tovlanardi, erkak nimagadir hashoratlar solinadigan bankadagi kaliyini esladi.

Yorug'lik va rang o'zaro aloqador tushuncha. Buni Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida berilgan ranglar misolida ko'rdik. Ranglarni qabul qilish ko'p jihatdan yorug'likka ham bog'liq hodisa ekan. Keyingi bo'limda

ranglar berilishidagi yorug‘likning ahamiyatidan tashqari, ularni qahramon tomonidan qabul qilinish yondashuvi ko‘rib chiqiladi.

2.2. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinishi

Ma’lumki, rang dunyoni anglab yetish va tartibga solish vositalaridan biridir. U har doim narsaning tabiiy alomati bo‘lib xizmat qilmaydi. U qandaydir g‘oyaning mavjudligini bildiradi. Shuning uchun har bir rang muayyan estetik qiymatga ega. Rang inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi vosita bo‘lib, u insonda quvonch va mayuslik, tetiklik yoki g‘amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg‘ularini ug‘otishi mumkin. Yozuvchi uchun rangning ana shu kuchi muhim omil bo‘lib, ular asarning g‘oyaviy yechimida muhim rol o‘ynaydi.

“Qumdagi xotin” romanida ham ranglarda qahramon ichki his-tuyg‘ulari, kechinmalari, hayotga bo‘lgan munosabatini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Yo‘qlik – *moviyrang*, *ochiqmoviy*, *oqishyaltiroq*; faryod – *sarg‘ish* rang bildiruvchi so‘zda berilgan.

Asarni o‘qish jarayonida kundalik hayotda uchramaydigan rang bildiruvchi so‘zlar ham kelishi kuzatildi. Qahramon his qilgan g‘am *tong rangi* bilan aks etgan.

ふと、夜明けの色の悲しみが、こみ上げてくる。(砂漠の女 231)

[Futo, yoake no iro no kanashimi ga, komiagetekuru]

To‘satdan *tong tusidek* g‘am qalbini egallab oldi...

Romanda moviyrang, ochiqmoviy, oqishyaltiroq qahramon hissiyoti bilan bog‘liq. Bu ranglar och, yorug‘likda, quyosh nuri qiya tushganda rangsiz ko‘rinadi. Qahramon tomonidan osmon, dengizni ushbu ranglarda ko‘rishi sirlilikka, mavhum narsaga, ya’ni davomi ko‘rinmaydigan hayotiga ishora qiladi.

戸口の上に、ちょっぴりのぞいている空は、もうとっくに青をとおりこし、貝殻の腹みたいにぎらついていた。(砂漠の女 186)

[Toguchi no ue ni, choppiri nozoite iru sora wa, mō tokkuni ao o tōri koshi, kaigara no hara mitai ni giratsuite ita]

Eshikning tepasida, bir parcha osmon *moviy rangdan chigʻanogʻga oʻxshash oqishyaltiroq* rangda yaltirardi.

Bundan tashqari qahramon ichki his-tuygʻularini ochib berish maqsadida uning kechinmalari tabiatga bogʻlangan holda yupqa, tiniq, nimshaffof ranglar ifodasida berilishini quyidagi misoldan koʻrishimiz mumkin.

地上に上がれば、すべては追憶の手帳のあいだで、小さな押し花になってくれるだろう。。。毒草だろうと、食肉植物だろうと、薄い半透明な一片の色紙になり、居間で、番茶でもすすりながら、電燈の光にかざして、世間話の薬味にすることができものだ。(砂漠の女 211)

[Chijō ni agareba, subete wa tsuioku no techō no aida de, chīsana oshibana ni natte kurerudarou. . . Dokusōdarou to, shokunikushokubutsudarou to, usui han tōmeina ippen no shikishi ni nari, ima de, bancha demo susurinagara,-den daidai no hikari ni kazashite, yokenbanashi no yakumi ni suru koto ga dekiru monoda]. Yerga chiqib olsa, xotiralari kundalik daftarining varaqlari orasida quritilgan kichkina gullarga aylanadi...Ularning zaharlari, yaxshilari ham –*yupqa, tiniq, nimshaffof rangli* qogʻoz parchalariga aylanib, u uyida choy ichib oʻtirib ularni yorugʻga tutib, boshiga tushganlarini aytib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida ranglar berilishidagi holat va yondashuvlar kuzatildi. Asarda rang berilishi bevosita yoki oʻxshatish orqali; yorugʻlik taʼsiri ostida yoki qahramon his-tuygʻularini ifodasi sifatida aks etishi koʻrib chiqildi. Bundan tashqari badiiy asarda rang gen syujeti sifatida koʻrilishi mumkin. Bunda rang bildiruvchi soʻzlar asosiy gʻoyani ochib

beruvchi vosita sifatida ko‘riladi. Ushbu fikrni keyingi bo‘limimizda ko‘rishni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

3. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang simvolikasi gen syujeti sifatida

Badiiy asarni tahlil qilar ekanmiz bevosita unda berilgan simvol, g‘oya yoki konseptni yozuvchi tomonidan qay usulda berilganligiga e‘tibor qaratish lozim. Ma’lumki, “yozuvchi qay darajada mohir bo‘lmasin, asar uchun simvolni jalb qilishda juda ham erkin harakat qila olmaydi. San’atkor bu ishda doim ikkita mantiqqa asoslanadi. Ulardan biri hayot mantig‘i, ikkinchisi muayyan asarda kuzatilgan badiiy mantiqdir. Yozuvchining mahorati uning mana shu ikki mantiqqa mukammal amal qila bilishida ko‘zga tashlanadi”⁸⁵.

Badiiy asardagi barcha ranglar ma’no-mazmun, obrazlar, g‘oya yoki konseptni ifodalashga xizmat qiluvchi vositalardan biri. Shuning uchun asardagi ranglar o‘z-o‘zidan berilmaydi. Badiiy asardagi ranglar yig‘indisi to‘liq asar markazida yotuvchi, muallif o‘quvchiga ochib bermoqchi bo‘lgan g‘oyani ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu fikrga aniqlik kiritilib, quyidagicha ta’kidlangan: “badiiy asarning kompozitsion markazi g‘oyaning tashkil qiluvchi kuchiga bog‘liq. Shunday ekan, asar g‘oyasi hamma qismlarni yakka ma’noni ifodalashga bo‘ysundirgan bo‘lgandagina, kompozitsion jihatdan yetuk bo‘ladi”⁸⁶. Shuning uchun ushbu g‘oyani ochib berishda simvol va konseptni o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganish masalasini ko‘rib chiqish muhim.

⁸⁵ Adabiyot nazariyasi. 1 tom. – Toshkent: Fan, 1978. – B.285.

⁸⁶ O‘sha asar. – B.271.

Yu.M.Lotman simvolga gen syujeti va simvol madaniyat tizimi sifatida qarab xulosalarini beradi. Uning fikricha, yozuvchini simvol berishi individual emas. Simvolda davr, madaniy yoʻnalish, ijtimoiy doira mujassamlashgan boʻladi. Simvol maʼno doirasi doimo koʻp qirrali, badiiy asarda asosiy obraz va simvol munosabati muhim. Yozuvchi simvol maʼno doirasini chegaralab, asar gʻoyasining xususiyatini koʻrsatib beradi. Badiiy asardagi voqealar rivoji “gen syujeti” orqali ochiladi. Gen syujeti – badiiy asarda aks etgan simvolning xususiyatlarini turli xil namoyon boʻlishidir. Simvolga gen syujeti sifatida qarash uni belgili, maʼno xususiyatlarini matnda namoyon boʻlishi nazarda tutiladi. Gen xususiyati badiiy asar bir butun koʻrilganda ochiladi. Ushbu xulosalar “Qumdagi xotin” romanidagi ranglarni gen syujeti sifatida koʻrib chiqish imkonini beradi.

“Qumdagi xotin” romanida qum simvol qilib olingan. Qumni ikki xil tushunish mumkin: birinchisi, lugʻatlarda qum – bir-biri bilan birlashmaydigan, mayda zarrachalardan tashkil topgan choʻkindi togʻ jinsi, deb taʼrif beriladi⁸⁷. Aynan shu xususiyati qumni simvol sifatida koʻrib chiqish imkonini beradi. Ikkinchisi, badiiy adabiyotda qum va uning ramzi doimo hayot yoʻlida inson yolgʻizligini ifodalagan. Biz tadqiqot ishimizda ikkinchi yondashuvga asoslandik. Asardan kelib chiqqan holda asosiy gʻoyalar tizimini ochib berish, romandagi rang simvolikasi bosh qahramonni cheksiz choʻlda, umidsiz qolgan hayotida yolgʻizligini ifodalab kelgan.

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida yolgʻizlik simvoli uni turli xil xususiyatlari orqali rang ifodasida ochilganligini kuzatdik. Yolgʻizlikni *qora rangda* 1) chorasizlik; 2) xavf-hatar xususiyati; 3) yolgʻizlikda ishonch, oʻziga tayanch boʻlish xususiyati *qum rangi* bilan; 4) vaqtni oʻtishi *oq rangi* orqali; 5)

⁸⁷ 西尾実岩淵悦太郎岩波国語辞典. – 日本: 岩波書店, 1963. – 256 p. [Nishio Minoru. Iwabuchi etsutarō

Iwanami kokugoshiten. – Nihon: Iwanamishoten, 1963. – 256 p.] – “Nishio Minoru. Qomusiy lugʻat. – Yaponiya: Iwanami, 1963. – 256 b.”

yolgʻizlikda gʻam *tong rangi* bilan; 6) yolgʻizlikda oʻziga nisbatan xiyonat tuygʻusini his qilinishi *sutrang* bilan ifoda etilgan.

その向こうに、黒い砂の壁が、のしかかるようにそそり立って。(砂漠の女 133)

[Sono mukō ni, kuroi suna no kabe ga, noshikakaru yō ni sosoritatte]

Orqasida *qora* qum devori qad koʻtarib turardi.

「すると、なんだろうか」声までが、保護色に身をひそめ、砂の色になり、「ぼくのほかに、誰か、捕まっているやつがいるわけなんだね?」(砂漠の女 180)

[Suruto, na ndarouka' koe made ga, hogoshoku ni mi o hisome, suna no iro ni nari, boku no hoka ni mo, dareka, tsukamatte iru yatsu ga iru wakenanda ne?]

Shunday boʻlsa nima boʻladi, degan ovoz oʻzini himoya qiluvchi bir rangga – *qum rangiga* kirib, mendan boshqa kimdir ham tutilgan degan shubha bor edi.

霧になって降る砂に、女の頭がみるみる白く粉をふく。(砂漠の女 194)

[Kiri ni natte furu suna ni, on'na no atama ga mirumiru shiroku kona o fuku]

Koʻz ochib yumguncha xotinning boshini oq gard qopladi.

Gʻamni *tong rangida* berilishi qahramon hayotining maʼnosizligi, unda faqat hasrat yashiringanligini anglatadi.

ふと、夜明けの色の悲しみが、こみ上げてくる。(砂漠の女 231)

[Futo, yoake no iro no kanashimi ga, komiagetekuru]

Toʻsatdan *tong tusidek* gʻam qalbini egallab oldi...

男は、自分の裏切りに、やりきれない思い出、ざっしを投げだし、外にでった。崖の上には、乳色の霧が、大きくうねりながら巻いていた。(砂漠の女 235)

[Otoko wa, jibun no uragiri ni, yarikirenai omoide, zasshi o nagedashi,-gai ni detta. Gake no ue ni wa, nyūshoku no kiri ga, ōkiku unerinagara maite ita]

Erkak oʻziga nisbatan xiyonatga chidayolmaganidan jurnalni otib, tashqariga chiqib ketdi. Chuqur ustida *sutrang* tuman oʻraladi.

“Qumdagi xotin” romanini tahlil qilish jarayonida yolgʻizlik simvolining xususiyati saqlanib qolinganligi, uni ochib berishda quvonch yoki baxtiyorlikni ifodalovchi ranglar emas, rangsiz, xira, och ranglardan: qora, sutrang, oq rang bildiruvchi soʻzlardan foydalanilgan degan xulosaga kelindi.

II bob boʻyicha xulosa

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida gʻoyalar tizimini ifodalayotgan rang simbolikasini ochib berishdan avval romandagi ranglar tahlil qilinib, ular berilishidagi holat va yondashuvlar koʻrib chiqildi.

✓ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida oʻttiz beshta: qora, qop-qora, moviy, alvon, qizil, qizgʻish, qip-qizil, tong rangi, sutrang, ochsutrang, sariq, sargʻish, toʻqsariq, oq, oqishyaltiroq, oppoq, kulrang, ochkulrang, ochyashil, qoramtiryashil, yashil, qahva rangi, qoʻngʻir, eski siyoh rangi, gʻishtrang, toshbaqa kosasi rangi, qoʻrgʻoshin, kumush, yupqa, tiniq, nimshaffof rangi, qum rangi, jigarrang, ochpushti, oltin rang bildiruvchi soʻzlar keldi;

✓ Asarda ifodasini topgan ranglarga birinchidan bevosita qaralgan va uning ikkita turi mavjud. Birinchi turda rang togʻridan-toʻgʻri, oʻz maʼnosida, ikkinchi turda rang ifodalayotgan narsa bilan doimo qoʻllanilishiga qarab berilgan. Ikkinchidan, rang bildiruvchi soʻzlar berilishiga bilvosita qaralib, oʻxshatish, predmet orqali, uchinchidan rang qaysi predmetga nisbatan qoʻllanilishiga qarab romanda oʻz aksini topgan;

✓ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida ranglarni toʻgʻri rang maʼnosida kelgan holatidan tashqari, ularning berilishidagi yondashuvlar mavjud. Bunda predmet rangini aks ettirishda yorugʻlik, ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinishi, yolgʻizlik simbolikasini ochib berishda ranglarning ahamiyati eʼtiborga olingan;

✓ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida berilgan ranglar misolida ranglarni qabul qilish koʻp jihatdan yorugʻlikka ham bogʻliq hodisa ekan degan xulosaga kelindi. Chunki kechqurungi holatni tasvirida, uzoq masofadagi

narsalar tasvirida yorug‘likni tushmasligi sababli qora rangi, yorug‘likda barcha rangli nurlarning bir tekisda aks etishida oq yoki och ranglar berilgan. Bundan tashqari yorug‘likni inson ko‘ziga tushishi ham ranglarni ko‘rishda ta’siri mavjudligi, uzoq masofada turgan to‘q rangli predmetlar sovuq tusga, yorqin ranglar esa issiq tusga kiradi.

✓ Badiiy asarda ranglar berilishi qahramon tomonidan qabul qilinish xususiyatiga ham bog‘liq hodisa. “Qumdagi xotin” romanidagi ranglar qahramon ichki his-tuyg‘ulari, kechinmalari, hayotga bo‘lgan munosabatini ochib bergan;

✓ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida yolg‘izlik simvoli turli xil xususiyatlari orqali rang ifodasida ochilgan. Qora rangda – yolg‘izlikning chorasizlik, xavf-hatar xususiyati; qum rangida – yolg‘izlikda ishonch, o‘ziga tayanch bo‘lish xususiyati; oq rangda – yolg‘izlikda vaqtni o‘tishi; tong rangi bilan – g‘am, hasrat; sut rangi bilan – yolg‘izlikda o‘ziga nisbatan xiyonat tuyg‘usini his qilish xususiyatlarining ifodasini ko‘rdik;

✓ “Qumdagi xotin” romanida aks etgan ranglarni tahlil qilish jarayonida yolg‘izlik simvoli xususiyati saqlanib qolinganligi, uni ochib berishda quvonch yoki baxtiyorlikni ifodalovchi ranglar emas, rangsiz, xira, och ranglardan foydalanilgan degan xulosaga kelindi;

✓ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanidagi ranglar yig‘indisi asar markazida yotgan asosiy g‘oya, ya’ni cho‘l hayot timsolida olinib, qum simvoli orqali qahramon hayotda yolg‘izligini ifodalagan.

III bob V. Roʻzimatov tarjimasidagi Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang simvolikasining berilishidagi simmetrik va asimmetrik munosabatlar⁸⁸

1. Tarjima jarayonida simmetriya va asimmetriya hodisasi

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida ham rang bildiruvchi soʻzlar berilishidagi holat va yondashuvlar koʻrib chiqiladi. Bu qanday tarjima qilinganligini ochib berish maqsadida ushbu boʻlimda tarjima turlaridan biri boʻlgan ekvivalent tarjima, ekvivalent tarjimada koʻriladigan simmetrik va asimmetrik munosabatlarni tahlil qilamiz.

Asliyat matniga mos va teng boʻlmagan matn yaratish tarjima jarayonini tashkil qiladi. Aynan oʻsha moslikni taʼminlash asliyat matnini tushunish, oʻqishdan boshlanib, tarjima qilingan matnni yaratish bilan yakunlanadi. Tarjimashunoslar fikricha, tarjima qilinayotgan til meyoriga amal qilgan holda asosiy mazmunni berish ekvivalent tarjima boʻlib, bu maqbul

⁸⁸ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani Vahob Roʻzimatov tomonidan 1962-yil tarjima qilingan.

V. Roʻzimatov Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani soʻnggi yillarda yaratilgan yetuk asarlardan biri ekanligini taʼkidlaydi. Bu falsafiy asarni oʻqigan kitobxon unda bayon etilgan hodisalarni kuzatish bilan birga, kitob muallifi va asar qahramonlari bilan mulohazaga berilib ketadi. Ushbu roman ostida yotgan asosiy gʻoya ham asarni bir butun koʻrish imkonini beradi. “Qumdagi xotin” romanida aks etgan gʻoyani ochib berishda unda berilgan ranglarni tahlil qilish muhim sanaladi.

holatdir⁸⁹. Tilshunos va tarjimashunos olimlar ekvivalentlikning bir necha darajalari mavjud ekanligini ta'kidlashadi⁹⁰. Ulardan ko'pchiligi, jumladan, V. Komissarov ham ekvivalentlikning beshta darajasini ajratib ko'rsatadi⁹¹. Ekvivalentlikning birinchi darajasi maksimal daraja hisoblanib, ushbu darajada matnning strukturaviy qurilishiga maksimal darajada paralellik, leksik tarkibning maksimal uyg'unligi, tarjimada asliyatning asosi saqlab qolinadi.

Alohida so'zlardagi ekvivalentlik darajasi uch asosiy aspektda semantik qiyoslanadi: 1. mantiqiy yaqinlik (denotativ); 2. aloqa (konnotativ); 3. ichki lingvistik (tilning sistemasi bilan bog'liq ravishda). Ekvivalentlikning ikkinchi darajasida kommunikatsiya maqsadi, situativ orientatsiya, tavsif usulini saqlab qolingani ko'riladi. Ushbu daraja tarjima va asliyatda leksik paralellizmlar mavjudligi bilan xarakterlanadi, ya'ni to'liq bo'lmasa-da sinonimlar uchrashi mumkin. Tarjimada asliyatning sintaktik strukturasi analogik bo'lgan formalar qo'llaniladi. Agar gapda to'liq paralellizmni saqlab qolish imkoniyati bo'lmasa sintaktik turlardan foydalaniladi. Bunga uchta asosiy sintaktik usul kiritiladi: 1) ma'nosi to'g'ridan-to'g'ri yoki teskari tartibdagi sinonimik strukturalarni qo'llash; 2) so'zlar ketma-ketligini o'zgartirgan holda birga analogik strukturalarni qo'llash; 3) so'zlar orasidagi bog'liqlikni o'zgartirgan holda analogik strukturalarni qo'llash.

Ekvivalentlikning uchinchi darajasining asosiy xususiyati tasvir usulining saqlab qolingani sanaladi. Bunda semantik turlarning voqeani detallarda tasvirlash darajasi, axborotlardagi tasvirlanayotgan xususiyatlarini umumiydallash-tirish, xususiyatlardagi aloqa yo'nalishining o'zgarishi, axborotlardagi alohida xususiyatlarning taqsimoti kabi yo'nalishlari uchraydi.

⁸⁹ Bu haqda qarag: Barxudarov L.C. Язык и перевод // Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 2007. – С.240

⁹⁰ Bu haqda qarag: Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslar. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – B. 49-56.

⁹¹ Комиссаров В. Теория перевода. – М.: Высш. шк., 1990. – С.67-69

Ekvivalentlikning to'rtinchi darajasida ham leksik tarkib va sintaktik qurilishning nomuvofiqligi mavjud bo'lib, kommunikatsiya maqsadning to'liq saqlab qolingani va tarjimada aynan asliyatdagi hodisaga ishoraning mavjudligi muhim sanaladi. Beshinchi darajada esa leksik tarkib va sintaktik qurilishning nomuvofiqligi, asliyat va tarjimadagi axborotlar o'rtasida real va mantiqiy aloqaning yo'qligi, asliyat va tarjima matnlari orasida umumiylik darajasining pastligi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Eng asosiysi ekvivalentlikka erishishning asosiy maqsadi qilib kommunikatsiyaning maqsadi tanlanadi. Ekvivalent tarjima darajalarida simmetrik va asimmetrik munosabatni kuzatdik. Simmetrik munosabat asliyatni to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi hisoblanib, ekvivalentlikning birinchi maksimal darajasi, asimmetrik munosabat esa ekvivalentlikning qolgan darajalarida tarjimada asliyatdagi kommunikatsiya maqsadi, tasvirlash pog'onasi, usulini berishda yoki tarjima va asliyatni leksik-semantik mos tushishidagi nisbiy tarjimada ko'rildi.

Til birligida asimmetriya nazariyasi S.I.Kartsevskiy tomonidan 1929-yilda ishlab chiqilgan. U asimmetriyani paradigmatic pog'onaga qo'shib, ikki ko'rinishi: ifodalanuvchini o'zgarmaydigan ma'noda variantlili (allomorfiya) va ifodalovchini o'zgarmaydigan ifodalovchisi (polisemiya) ni ajratib ko'rsatadi. S.I.Karstevskiy asimmetriyani til birligida ifodalanuvchi va ifoda etuvchini bir-biriga o'xshash emasligi bilan izohlaydi. V.G.Gak esa asimmetriyani ma'nosini kengaytirib, sintagmatik va semiotikaga bo'ladi. Sintagmatik aspektida asimmetriyani ikki xil tipi: umumiy ma'noni ifodalovchi va ikki xil holatlarda turli xil va bitta umumiy ma'noni berish haqida gapiradi. Bu holatni semiotikada ham mavjudligiga to'xtaladi⁹².

V.Kashkin asimmetrik munosabat til belgisining ikki tomonini bog'lovchi, bir belgi bir nechta ma'no anglatishi va u bir nechta belgilarda ifodalanishi mumkinligini aytib o'tadi⁹³.

⁹² Литвинская К. Ассиметричный дуализм языкового знака.
http://litvinskaya.blogspot.com/2010/03/blog-post_25.html

⁹³ Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. – М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. – С.178.

Ma'lumki, tarjima amaliyotida ham asl matn ma'nolar sistemasi va tarjimaning ma'nolar sistemasi hech qachon to'liq simmetrik ya'ni to'g'ridan-to'g'ri bo'lmaydi. Agar ushbu jarayonni geometrik figura deb olsak, asl matn va tarjimani ustma-ust qo'yganda aniq mos tushmaslik ko'ringan bo'lardi. To'liq simmetriya, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri ma'nolar mos tushishi kamdan-kam holatlarda, ba'zi alohida so'zlarda ekvivalenti mavjud hollarda bo'lishi mumkin. Bu so'zlarga geografik nomlar, atoqli otlar, fandagi terminlar misol bo'ladi. Ammo ularni ham shartli ravishda ekvivalenti mavjud deb ayta olamiz, chunki ular ham ba'zida ko'chma ma'noda qo'llanilishi mumkin. Olimlar fikricha, bu holatda ular butunlay kontekstga bog'liq bo'ladi.

Tillararo asimmetriyada ma'nolar mos tushmasligi, stilistik, emotsional farqlarda tarjimonga qiyinchilik tug'dirishi mumkin⁹⁴. Til belgilarini ikki xilligi va tillararo asimmetriya dialektiv munosabatda bo'lib, bu tarjima jarayonini murakkablashtiradi. Semantika va uni o'sish chegarasi lug'atlarda berilib, ifodada u kengroq namoyon bo'ladi⁹⁵.

Qiyinchilik va tarjima qilib bo'lmaydigan holat to'g'irlash mumkin bo'lgan imkoniyat. Til o'zining asimmetrik tabiatida turg'un bo'lmagan ma'no, tarjimada interpretatsiyani talab qiladi. Asimmetriya turli xil tillarda tarjima variantlariga tayanadi⁹⁶.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ham V.G.Gak asimmetriyani simmetriya tushunchasi bilan birga o'rganish, uni tushuntirishda o'zaro solishtirib tadqiq qilish kerakligini ta'kidlaydi. Simmetriya tartibga solingan, bir ma'noga ega, saqlash degan tushunchalar bilan teng. Asimmetriya esa

⁹⁴ Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М., 2007. – С.328.

⁹⁵ Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. – М., 2007. – С.180.

⁹⁶ Кашкин В. Асимметричность знака и межъязыковые различия.

<http://kachkine.narod.ru/Articles2010/KashPopovaSign.html>

simmetriyaga qarama-qarshi tushuncha bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri emas degan ma'noni beradi ⁹⁷.

Tarjima va asliyat o'rtasida simmetrik va asimmetrik munosabatlar mavjud. Buni ekvivalent tarjima darajalarini berishda kuzatdik. Asimmetrik munosabat semantika, sintaktika yoki leksik jihatdan namoyon bo'ladi. Asimmetriya tushunchasini o'rganishda simmetriya nazariyasi ham mavjudligi, kamdan-kam holatlarda tarjima jarayonida simmetrik munosabat yuzaga keladi degan xulosaga kelindi. Har qanday asar tarjimasi asimmetrik munosabat ostida vujudga keladi. Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasidagi rang bildiruvchi so'zlar berilishida ham simmetrik va asimmetrik munosabat kuzatildi. Simmetrik munosabat deganda rang bildiruvchi so'zlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinishini, asimmetrik munosabatda esa nisbiy tarjima qilish jarayoni nazarda tutilib, keyingi bo'limda ushbu holatlarni misollar orqali tahlil qilamiz.

2.Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang bildiruvchi so'zlar berilishida simmetrik munosabat

2.1.Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang bildiruvchi so'zlarning simmetrik berilishidagi holatlar

V.Ro'zimatov Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida ranglar berilishiga ikki xil: to'g'ridan-to'g'ri va nisbiy yondashadi. To'g'ridan-to'g'ri deganda rang bildiruvchi so'zlarning simmetrik yo'l bilan tarjimasi nazarda tutilsa, nisbiy tarjimada asimmetrik munosabatlar ko'riladi. Simmetrik munosabatni ekvivalentlikning birinchi maksimal darajasida kuzatdik. Bunda Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang ifodasida asliyatdagi matn tuzilishi, leksik tarkib va asliyat asosi saqlanib qolingan. Ushbu bo'limning

⁹⁷ Поленова Г. Диахронический взгляд на асимметрию в языке.
http://window.edu.ru/window_catalog/pdf2txt?p_id=48228&p_page=11

asosiy maqsadi ranglarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasidagi holatlarni ko‘rib chiqishdan iborat.

Asarda ranglarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasida ham rang berilishi uch xil holatda bevosita: to‘g‘ri rang ma’nosida va doimo qo‘llaniladigan so‘zlar bilan; bilvosita: o‘xshatish, boshqa predmet orqali; rang qaysi predmetga nisbatan qo‘llanilishiga qarab berilgan.

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida ranglarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasida ranglar berilishiga bevosita qaralib, uni ikki turi mavjud. Birinchi turda rang bildiruvchi so‘zlar o‘z ma’nosida keladi:

むろん、その中の何軒かは、黒い瓦ぶきだったり、べにがら色のトタンぶきだったりした。(砂漠の女 119)

[Muron, sono Chū no nangen ka wa, kuroi kawara bukidattari, be ni gara-iro no totan bukidattari shita]

Bir necha uyning tomi *qora* cherepitsa bilan, ba’zilar esa hatto *qizil* rangga o‘yalgan tunuka bilan yopilgan edi⁹⁸.

ふつう、ハンミョウ属の前足は、いかにも敏捷そうに、黒くほっそりしているものだ。ところが、そいつの前足ときたら、まるで部厚い鞆をかぶせたように、もっこりとしていて、黄味がかった。(砂漠の女 121)

[Futsū, hanmyou zoku no maeashi wa, ikanimo binshō-sō ni, kuroku hossori shite iru monoda. Tokoroga, soitsu no maeashi tokitara, marude buatsui saya o kabuseta yōni, mok kori to shite ite, ki aji gakatte ita]

Ispan pashshasi toifasidan bo‘lgan hashoratlarning oldingi oyoqlari odatda ingichka, *qora* va g‘oyatda harakatchan bo‘ladi. Bu pashshaning oldingi oyoqlari esa yumaloq, yo‘g‘on, tusi esa *to‘qsariq* edi. (A.K.Q.X.10)

⁹⁸ Кобо А. Кумдаги хотин. –Тошкент: Фафур Фулом, 1968. – Б.7. Keyingi o‘rinlarda A.K.Q.X. qisqartma shaklida ketadi.

「ああ、それなら、ノコギリカミキリだな」「ノコギリ?」「赤っぼい、ひげの長いやつだろう?」「いいえ、からかね色の、米粒みたいな形ですけど」「そうか、それじゃ、オバタマムシだ。」(砂漠の女 129)

[Ā, sorenara, nokogirikamikirida. Nokogiri? Akappoi, higeno nagai yatsudarou? Īe, karakane-irono, kometsubu mitaina katachidesukedo. Sōka, sore ja, obatamamushida]

- Yog‘och teshar qo‘ng‘iz? –Qizg‘ish mo‘ylovdor bo‘ladi. O‘shalarni aytyapsanmi? –Yo‘q, yo‘q, bular xuddi sholi donasidek keladi, tulari ham qo‘ng‘ir. –E shunaqa degin. Bo‘lmasa u kamalak qo‘ng‘iz ekan.(A.K.Q.X.20)

もっといけないことは、おれの鴉が逃げたことと、鴉の群のなかに一羽、足に白い紙片れをつけたのがいることと、この二つを結びつけば、部落の連中にも、こちらの意図がそっくり筒抜けになってしまうことだ。。。 (砂漠の女 233)

[Motto ikenai koto wa, ore no karasu ga nigeta koto to, karasu no gun no naka ni ippa, ashi ni shiroi shihenre o tsuketa no ga iru koto to, kono futatsu o musubitsukereba, buraku no renchū ni mo , Kochira no ito ga sokkuri tsutsunuke ni natte shimau kotoda. . .]

Shu narsa ham ehtimoldan holi emaski, anovi qishloqdagilar ikki faktni –buning qarg‘asi uchib ketgani bilan qarg‘alar to‘pida oyog‘iga bir parcha oq qog‘oz bog‘langan qarg‘a paydo bo‘lganini taqqoslasalar, siri asrori ularga darhol ayon bo‘lib qoladi...(A.K.Q.X.136)

黒い、草の実のようなつぶつぶが、土間に飛びちり、たちまち砂にしみこんでしま
う。(砂漠の女 238)

[Kuroi, kusa no mi no yōna tsubutsubu ga, doma ni tobi chiri, tachimachi suna ni nijimi konde shimau]

Qandaydir o‘simlikning mevasiga o‘xshagan *qora* munchoqlar yer bilan bitta bo‘lib, bir lahzada qumga ko‘mildi. (A.K.Q.X.141)

殺虫瓶の底の、粉を粉ふいた白い錠剤．．．(砂漠の女 241)

[Satsuchyubinno sokono, konawo kofuita shiroi jo’zai]

Hashoratlar solinadigan shishaning tagidagi ustini kukun bosgan *oq* kristallar...(A.K.Q.X.145)

Birinchi holatni ikkinchi turida esa ranglar odat bo‘lib qolgan so‘zlar bilan, shu narsa bilan doimo qo‘llanilishiga qarab berilgan. Masalan, tuproq turlariga qarab *qizil* yoki boshqa rangni, yorug‘likka *oq*, shafaqqa *qizil* rang bildiruvchi so‘zlar qo‘llanilganligi quyidagi misollarda berilgan:

赤土でも、自然に切り出された赤土と、盛土した赤土とでは、圧力に対する抵抗力がまるでちがうという。(砂漠の女 154)

[Akatsuchi demo, shizen ni kiridasa reta akatsuchi to, morido shita akatsuchi tode wa, atsuryoku ni taisuru teikouryoku ga marude chigau to iu]

Tabiiy holdagi *qizil* tuproq bilan qazib olingandan keyingi *qizil* tuproq mutlaqo turlicha ko‘lamdagi bosimga ega bo‘ladi. (A.K.Q.X.48)

丸くすりへった刃の先が、瀬戸物の割れ目のような白い光をはなっていた。(砂漠の女 153)

[Maruku surihetta ha no saki ga, setomono no wareme no yōna shiroi hikari o hanatte ita]

Yarim doira qilib charxlangan kurakning tig‘i xuddi chinni parchasidek *oq* yorug‘lik taratardi. (A.K.Q.X.47)

朝の陽差しの、赤いくまどりで、やっと見分けられる。(砂漠の女 184)

[Asa no yō-sashi no, akai kuma doride, yatto miwake rareru]

Tong quyoshi taratgan *qizil* shafaqda beozor momiq bulutchalarni arang ilgʻab olishi mumkin edi. (A.K.Q.X.82)

Ikkinchi holatga koʻra “Qumdagi xotin” romani tarjimasidagi ranglarni toʻgʻridan-toʻgʻri berilishiga bilvosita qaralib, ularni nimagadir oʻxshatish, rangni oʻziga oʻxshatish va nimadir orqali ham ifodalanilganligini quyidagi misollar orqali koʻrish mumkin.

1. Oʻxshatish orqali. Asarda ranglar nimagadir oʻxshatish orqali aks etgan.

Sichqon rangiga qarab:

ある八月の午後、大きな木箱と水筒を、肩から十文字にかけ、まるでこれから山登りでもするように、ズボンの裾を靴下のなかにたくしこんだ、ネズミ色のピク帽の男が一人、S 駅のプラットホームに降り立った。(砂漠の女 118)

[Aru hachigatsu no gogo, ōkina hako to suitō o, kata kara jūmonji ni kake, marude korekara yamanobori demo suru yō ni, zubon no suso o kutsushita no naka ni takushikonda, nezumi-iro no piku-bō no otoko ga hitori, S-eki no Purattohōmu ni oritatta]

Avgust kunlaridan birida, tushdan soʻng S stansiyasining platformasida *sichqon rang*dagi pika panama kiygan odam paydo boʻldi. U yelkasiga kattakon taxta quti bilan suvdon osgan, xuddi toqqa chiqib ketayotgandek shimining pochasini paypogʻiga tiqib olgan. (A.K.Q.X.7)

Kul rangiga qarab:

それから、苦しそうに、軒や壁の隙間から、さらさらと灰色の血をこぼし始める。

(砂漠の女 143)

[Sorekara, kurushi-sō ni, noki ya kabe no sukima kara, sarasara to haiiro no chi o koboshi hajimeru]

Xuddi nomaʼlum bir kuch sovut solgandek butun uy zorlanib ingrardi, uning iztiroblarini namoyish qilgandek boʻgʻot bilan devorning tirqishlaridan *kulrang* tusdagi qon tirqirab oqa boshladi. (A.K.Q.X.35)

Yuz rangiga qarab:

それより、婆さんなどというから、よほどの年寄りかと思っていたのが、ランプを
捧げて迎えてくれた女は、まだ三十前後の、いかにも人が好きそうな小柄の女だっ
たし、化粧をしているのかもしれないが、浜の女にしては、珍らしく色白だった。

(砂漠の女 128)

[Sore yori, bāsan nado to iukara, yohodo no toshiyori ka to omotte ita no ga,
ranpu o bō-gete mukaete kureta on'na wa, mada san jū zengo no, ikanimo hito ga
suki-sōna kogara no on'nadattashi, keshō O shite iru no kamo shirenaiga, hama
no on'na ni shite wa, chinrashiku irojirodatta]

Uni fonar bilan kutib olgan xotinni kampir deb atashgan, u ham keksa bir
xotinni ko‘raman, deb o‘ylagan edi, ayol esa hali yosh, o‘ttizlarga borgan, o‘rta
bo‘yli, yoqimtoygina juvon ekan. Xotin upa qo‘ysa kerak, uning yuzi dengiz
bo‘yida yashaydigan ayollarning *yuzlariga nisbatan oq* edi. (A.K.Q.X.18)

Qahva rangiga qarab:

それから、会場の天井には、まだ見たこともないほど大掛りな、コーヒー色の雨も
りの跡があった。(砂漠の女 204)

[Sorekara, kaijō no tenjō ni wa, mada mita koto mo nai hodo ōgakarina, kōhī-iro
no ame mori no ato ga atta]

Shiftda *qahva rangidagi* chakka izlari yoyilib yotar – bu qadar katta dog‘larni u
umrida ko‘rmagan edi. (A.K.Q.X.102)

Oltin rangiga qarab:

眼の端で、砂丘の稜線の一つが、金色に輝いた。なだらかに盛上ってきた曲面が、
その黄金の線を境に、急角度で影のなかに滑りこむ。(砂漠の女 216)

[Me no hashi de, sakyū no ryōsen no hitotsu ga, kin'iro ni kagayaita. Nadaraka ni mori kami tte kita kyokumen ga, sono kogane no sen o sakai ni, kyū kakudo de kage no naka ni suberi komu]

U ko‘z qiri bilan qum tepaning *oltin rangdek* tovlanayotgan sirtini ko‘rdi. Bir maromda ko‘tarilib borgan qiyalik shu zarhal chiziqqa yetgach qora sharpa bilan shartta kesilardi. (A.K.Q.X.117)

2. Rangni o‘ziga o‘xshatish. Bunda aniq rang emas, uning darajalari berilgan:

だから、将集マニアの額と鼻の頭は、いつも真っ黒にやけている。(砂漠の女 124)

[Dakara, shō-shū mania no gaku to hana no atama wa, itsumo makkuro ni yakete iru]

Shuning uchun ham hashorat ovlovchilarning peshanalari bilan burunlari oftobdan *qop-qora* bo‘lib ketadi. (A.K.Q.X.13)

「ノコギリ?」「赤っぽい、ひげの長いやつだろう?」「いいえ、からかね色の、米粒みたいな形ですけど」「そうか、それじゃ、オバタマムシだ。」(砂漠の女 129)

[Nokogiri? Akappoi, higeno nagai yatsudarou? Īe, karakane-irono, kometsubu mitaina katachidesukedo. Sōka, sore ja, obatamamushida]

Yog‘och teshar qo‘ng‘iz? –*Qizg‘ish* mo‘ylovdor bo‘ladi. O‘shalarni aytyapsanmi? (A.K.Q.X.20)

着物とそろいのモンペの、淡い緑がかったかすりの色合からは、まるでハッカ入りの傷薬のような匂いさえ感じられたし、これならなにも文句を言うことはない。(砂漠の女 146)

[Yaketa suna ni sara kireta me ni wa, koya no naka wa hidoku usuguraku, hin'yari to nureta yōna kanjidatta. Shikashi sugu ni,-kin mukashi Satoru ni suginai koto o omoishirasa reru]

Xotin kiyinib olgan edi. *Ochyashil* naqshli kimonosi bilan cholvoridan yalpizli balzamning sarin atri taralayotgandek edi. (A.K.Q.X.39)

一面どんよりと赤味をおびた、砂の起伏にそって、けだるそうに長い影が流れ出した飛砂の膜が、次々と、また別の影の下に吸いこまれていく。(砂漠の女 212)

[Ichimen don'yorī to akami o obita, suna no kifuku ni sotto, kedaru-sō ni nagai kage ga nagaredashita tobisuna no maku ga, tsugitsugi to, mata betsu no kage no shita ni suikoma rete iku]

U shaxt bilan boshini ko'tardi. *Qizg'ish* tUSDagi qum to'lqinlari bo'ylab uzun soyalar cho'zilib ketgan edi. (A.K.Q.X.112)

3. Bu holatda esa rang boshqa narsalarning rangi orqali ifodaniladi. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri rang tarjimasida qo'rg'oshin, kumush, siyoh, sut ranglarini uchratishimiz mumkin.

Qo'rg'oshin rangi:

魚の死骸から湧く波打際の鉛色のあぶく。。。 (砂漠の女 169)

[Sakana no shigai kara waku namiuchi sai no 鉛色 no abu ku]

O'lik baliqlar to'la, *qo'rg'oshin tusli* to'lqinlar kelib uriladigan sohil...

(A.K.Q.X.65)

Kumush rangi:

錆びた壺柑色の星。。。 (砂漠の女 195)

[Sabita bankanshyokuno hoshi]

Stakanning tagidan ko'tariladigan *kumushrang* havo pufakchalari...

(A.K.Q.X.93)

Siyoh rangi:

手首もすでに、赤黒くむくみを帯びて、篋のようにつぶれたも、古いインクのしみのような色に変わっていた。(砂漠の女 173)

[Tekubi mo sudeni, akaguroku mukumi o obite, hera no yō ni tsubureta mo, furui inku no shimi no yōna iro ni kawatte ita]

Qo‘llari ham joyida – bilaklari mo‘mataloq bo‘lib ketibdi, chatnab etlari ko‘rinib qolgan tirnoqlari quyulib qolgan *eski siyoh tusiga* kiribdi. (A.K.Q.X.69)

記事のまわりに、赤インクで枠を入れてなかっただけでも、めっけものだ。(砂漠の女 167)

[Kiji no mawari ni, aka inku de waku o ire tenakatta dake demo,-me kke monoda]

Hayriyatki, maqolaning atrofini *qizil siyoh* bilan o‘rab qo‘yishmabdi. (A.K.Q.X.63)

Sut rangi:

男は、自分の裏切りに、やりきれない思い出、ざっしを投げだし、外にでった。崖の上には、乳色の霧が、大きくうねりながら巻いていた。(砂漠の女 235)

[Otoko wa, jibun no uragiri ni, yarikirenai omoide, zasshi o nagedashi,-gai ni detta. Gake no ue ni wa, nyūshoku no kiri ga, ōkiku unerinagara maite ita]

O‘ziga nisbatan xiyonat qilganiga chidayolmagan erkak jurnalni uloqtirib, chiqib ketdi. Chuqur ustida *sutrang* tuman o‘ralardi.(A.K.Q.X.138)

Uchinchi holatga ko‘ra roman tarjimasida ranglar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘xshatish orqali berilishidan tashqari, mavhum tushunchalar ham rangga ega ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, o‘zini himoya qilish rangi *qum rangi*, tashvish g‘*ishtrang* va *yashil* bilan aks etgan:

街は、近くのほうが棟瓦色で、遠ざかるにつれて、緑色にかすんでいく。その色の配合には、妙に不安をそそるものがあつた。(砂漠の女 159)

[Machi wa, chikaku no hō ga 棟瓦 iro de, tōzakarū ni tsurete, midori-iro ni kasunde iku. Sono-iro no haigō ni wa, myōni fuan o sosoru mono ga atta]

Yaqindan ko‘cha *g‘ishtrang* bo‘lib ko‘rinarmishu, nariroqqa borib *yashil* rangga aylanib, ko‘zdan *g‘oyib* bo‘larmish. Bu ranglar omuxtasida allaqanday tashvish tug‘diruvchi bir narsa bor emish. (A.K.Q.X.55)

「すると、なんだろうか」声までが、保護色に身をひそめ、砂の色になり、「ぼくのほかに、誰か、捕まっているやつがいるわけなんだね?」(砂漠の女 180)

[Suruto, na ndarouka' koe made ga, hogoshoku ni mi o hisome, suna no iro ni nari, boku no hoka ni mo, dareka, tsukamatte iru yatsu ga iru wakenanda ne?]
Erkakning ovozi ham o‘zini himoya qiluvchi bir tusga – *qum tusiga* kirdi. Mendan boshqa ushlab olgan odamlaringiz ham bormi? (A.K.Q.X.78)

Yuqoridagilardan xulosa qilib, Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida ranglar oddiy rang ma’nosida, nimagadir o‘xshatish yoki boshqa narsalar orqali o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari mavhum tushunchalar va narsalarga ham rang berilgan. Uchinchi bobimizning keyingi bo‘limlarida ranglar berilishidagi yondashuvlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri rang tarjimasida ko‘rib chiqiladi.

2.1. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlarning simmetrik berilishidagi yondashuvlar

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi so‘zlarning simmetrik berilishida ham romanda ko‘rib chiqilgan ikkita asosiy: predmet rangini aks ettirishda yorug‘likning ahamiyati va ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinish yondashuvlari mavjud.

Birinchi yondashuvda roman tarjimasidagi rang bildiruvchi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilishida ham yorug‘lik ranglar berilishiga ta’sir ko‘rsatgan.

“Qumdagi xotin” romani tarjimasida voqealar rivojida kechqurungi holatning tasvirida yorug‘likni bo‘lmasligi sababli barcha narsalar *qora* rangda berilgan:

その向こうに、黒い砂の壁が、のしかかるようにそそり立って。(砂漠の女 133)

[Sono mukō ni, kuroi suna no kabe ga, noshikakaru yō ni sosoritatte]

Orqasida qaqqaygancha *qora* qum devori qad ko‘tarib turardi. Taxminan xuddi shu yerning ustida erkak kunduz kuni hashorat ushlagan edi. (A.K.Q.X.24)

底にこびりついた黒い砂が、わずかに指先をよごしただけだった。(砂漠の女 183)

[Soko ni kobi ri tsuita kuroi suna ga, wazuka ni yubisaki o yogoshita dakedatta]

U bakka qo‘lini tiqdi. Tagiga cho‘kib qolgan *qora* qum quyqasi barmoqlarining uchini iflos qildi. (A.K.Q.X.81)

小屋の後ろに、まわりこもうとしたとたん、中から黒いものが這い出してきた。(砂漠の女 214)

[Koya no ushiro ni, mawarikomou to shita totan,naka kara kuroi mono ga haidashite kita]

U kulbani aylanib o‘tmoqchi bo‘lib turgan ediki, birdan uydan allaqanday *qora* sharpa o‘rmalab chiqdi. (A.K.Q.X.115)

Uzoq masofadagi narsalar tasvirida yorug‘likni tushmasligi sababli *qora* rangni berilishi kuzatildi:

水平線に、距離も大きさも分からない、黒い船の影が、点になって停っていた。(砂漠の女 214)

[Suihei-sen ni, kyori mo ōki-sa mo wakaranai, kuroi fune no kage ga,-ten ni natte tomatte ita]

Ufqda *qora* nuqtadek bo‘lib bir kema qimir etmay turibdi, ungacha bo‘lgan masofa bilan uning hajmini aniqlash qiyin albatta. (A.K.Q.X.114)

Yorug‘likda barcha rangli nurlarning bir tekisda aks etishida oq, och rangni hosil qilishini roman tarjimasidagi misollarda ham ko‘rish mumkin.

男はそのまま村を通りぬけ、次第に白っぽく枯れてい海辺に向かって、さらに歩きつづけた。(砂漠の女 118)

[Otoko wa sonomama mura o tōri nuke, shidaini shioppoku karete iku umibe ni mukatte, sarani aruki tsudzuketa]

Yo‘lovchi qishloqdan o‘tib sohil tomonga yo‘l oldi. Tuproqning tobora tusi oqarib, qurib bormoqda edi. (A.K.Q.X.7)

貝殻をまいた道が、薄暗がりの中に、ほの白く浮くんでいた。(砂漠の女 127)

[Kaigara o maita michi ga, usukuragari no naka ni, ho no shiroku ukunde ita]

Quyuglashib borayotgan qorong‘ulikda chig‘anoq yo‘l oppoq oqarib turardi. (A.K.Q.X.17)

Uzoq masofada turgan to‘q rangli predmetlar sovuq tusga, yorqin ranglar issiq tusga kirishi sababli roman tarjimasida ham uzoqroq masofada turgan qarg‘a qanotlari *qoramtir* rangda keltirilgan.

ひろげた翼の先が、暗緑色に輝き、すると男は、なぜか殺虫瓶のなかの青酸カリのことを思い出していた。(砂漠の女 202)

[Hirogeta tsubasa no saki ga, anryokushoku ni kagayaki, suruto otoko wa, naze ka satchū bin no naka no seisankari no koto o omoidashite ita]

Sohil bo‘yidan to‘rtta qarg‘a uchib o‘tdi. Qanotlarining uchlari *qoramtir* – *yashil* tusda tovlanardi, erkak nima uchundir hashoratlar solinadigan bankadagi sinali kaliyni esladi. (A.K.Q.X.100)

Ranglarni qabul qilish ko‘p jihatdan yorug‘likka ham bog‘liq hodisa ekanligini rang berishda kechqurungi holat, uzoq masofadagi narsalar tasvirida yorug‘likni tushmasligi, yorug‘likda barcha rangli nurlarning bir tekisda aks etish holatlaridagi ranglar tarjimasida ko‘rdik.

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra esa Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasidagi rang bildiruvchi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilishida qahramonlar tomonidan qabul qilinishiga e‘tibor qaratilgan.

Qahramon ichki his-tuyg‘ularini ochib berish maqsadida uning kechinmalari tabiatga bog‘langan holda *yupqa*, *tiniq*, *nimshaffof* ranglar ifodasida berilishini quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin.

地上に上がれば、すべては追憶の手帳のあいだで、小さな押し花になってくれるだろう。。。毒草だろうと、食肉植物だろうと、薄い半透明な一片の色紙になり、居間で、番茶でもすすりながら、電燈の光にかざして、世間話の薬味にすることができものだ。(砂漠の女 211)

[Chijō ni agareba, subete wa tsuioku no techō no aida de, chīsana oshibana ni natte kurerudarou. . . Dokusōdarou to, shokunikushokubutsudarou to, usui han tōmeina ippen no shikishi ni nari, ima de, bancha demo susurinagara,-den daidai no hikari ni kazashite, yokenbanashi no yakumi ni suru koto ga dekiru monoda]
Hali yuzaga chiqib olsa bormi, bu yerda ko‘rgan kechirganlarining hammasi xotira uchun yon daftarning varaqlari orasiga solib quritilgan kichkina gullardek bo‘lib qoladi. Ularning zaharlari ham, kushanda xillari ham – hammasi *yupqa*, *tiniq*, *nimshaffof* rangli qog‘oz parchalariga aylanib qoladiki, u uyida choy ichib o‘tirib ularni yoruqqa tutib, boshiga tushgan savdolar to‘g‘risida miriqib hikoya qilib beradi. (A.K.Q.X.111)

Yuqorida Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasidagi rang bildiruvchi so‘zlarning simmetrik munosabatida rang berilishidagi holat va ranglarni roman tarjimasida aks etishidagi yondashuvlar misollar orqali tahlil qilindi. Keyingi bo‘limda shunday holat va yondashuvlar roman tarjimasidagi rang bildiruvchi so‘zlarning nisbiy berilishida ko‘rib chiqiladi.

3. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang

bildiruvchi soʻzlar berilishida asimmetrik hodisasining koʻrinishi

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi soʻzlarni berishda simmetrik munosabatlardan tashqari asimmetrik munosabatni ham kuzatdik. Rang bildiruvchi soʻzlar tarjima usullaridan biri boʻlgan ekvivalent tarjima orqali amalga oshirilganda asimmetrik munosabat koʻrildi.

Quyidagi misollarda roman tarjimasidagi rang bildiruvchi soʻzlar ekvivalentlikning ikkinchi darajasi, yaʼni kommunikatsiya maqsadi, situativ orientatsiya, tavsif usulini saqlab qolinib, faqatgina rang uning darajalari orqali ifodalanilganligida kuzatildi. Masalan, *oq oppoq* yoki *oqish*; *qora* qoramtir, *qop-qora*, *qorayib*; *sariq* sargʻish rang bildiruvchi soʻz bilan almashtirilgan⁹⁹.

Oq oppoq yoki *oqish* rang bildiruvchi soʻzlari orqali berilgan:

霧になって降る砂に、女の頭がみるみる白く粉をふく。(砂漠の女 194)

[Kiri ni natte furu suna ni, on'na no atama ga mirumiru shiroku kona o fuku]

Koʻz ochib yumguncha xotinning boshini *oppoq* gard qopladi. (A.K.Q.X.91)

いましめの跡は、赤黒い痣になっていた。その痣の表面に、白くふやけた膜がかかっている。(砂漠の女 184)

[Imashime no ato wa, akaguroi aza ni natte ita. Sono aza aza no hyōmen ni, shiroku fuyaketa maku ga kakatte iru]

Arqon qip-qizil izlar qoldirgan edi. Ularning usti *oqish* poʻst bilan qoplanibdi. (A.K.Q.X.83)

Qora rang bildiruvchi soʻz *qoramtir*:

⁹⁹ Romandagi rang bildiruvchi soʻzlar tarjimasini V.Komissarov va L.Barxudarov tasniflagan tarjima transformatsiyalarning leksik, grammatik va leksik–grammatik tiplariga koʻra ham tahlil qilish mumkin. Yuqoridagi misollarda leksik transformatsiya tipining leksik-semantik almashinuv turining modulyatsiya usulidan foydalanilib, asliyatdagi soʻz yoki soʻz birikmasi tarjima matnida mantiqan ekvivalent maʼno beradigan birlik bilan almashtirilib, maʼno oʻsishi yuz bergan. (Комиссаров В. Теория перевода. – М.: Высш. шк., 1990. – С.172)

肘の深さまで掘ると、砂が黒く、しめり気をおびてくる。(砂漠の女 196)

[Hiji no fuka-sa made horu to, suna ga kuroku, shimeri ki o obite kuru]

Tirsagi barobar chuqur qazigach qumning *qoramtir* tusga kirganini va namxush bo‘lib qolganini ko‘rdi. (A.K.Q.X.93)

Qora *qop-qora* rangga o‘xshatish orqali berilgan:

海側の崖の下に立って、見上げると、なるほど黒い櫓の先端が、小指の先ほどの頭をぞけている。(砂漠の女 197)

[Umigawa no gake no shita ni tatte, miageru to, naruhodo kuroi yagura no sentan ga, koyubi no saki hodo no atama o zo kete iru]

U dengiz tomonga qaragan chuqur oldida to‘xtab, yuqoriga tikilgan edi, darhaqiqat jimjiloq uchidan katta bo‘lmagan *qop-qora* havoza uchini ko‘rdi. (A.K.Q.X.94)

Qora *qorayib* natija ma’nosida berilgan:

男は、その黒い棘にむかって、スコップをかざし、力いっぱい左右に振った。(砂漠の女 197)

[Otoko wa, sono kuroi toge ni mukatte, sukoppu o kazashi, chikaraippai sayū ni futta]

Erkak *qorayib* ko‘ringan jajji narsaga o‘girilib, belkurakni ko‘tardi-da, shaxt bilan silkita boshladi. (A.K.Q.X.94)

Sariq *sarg‘ish* rang bildiruvchi so‘z bilan almashtirilib, tarjimada ma’no murakkablashib, o‘sishiga olib kelgan:

力なくたるんだ唇から、黄色い唾液といっしょに、添えたうめきがこぼれだした。

(砂漠の女 238)

[Chikara naku tarunda kuchibiru kara, kiirōi daeki to issho ni, soeta umeki ga kobore dashita]

Erkak ham tund bir qiyofada turardi. Jo‘ljaygan lablaridan *sarg‘ish* so‘lak bilan birgalikda zorli faryod uchdi. (A.K.Q.X.141)

Ekvivalentlikning uchinchi ta‘riflash darajasida tarjimon ko‘pincha asliyatda berilgan ma‘noni berishda tarjimada aniqlashtirish, almashtirish usullaridan foydalaniladi. Asliyat matnidagi to‘qqizil *mo‘mataloq*; sariq safro birikmasida sariq rang bildiruvchi so‘zi tushirib; rangsiz, och rangdagi holat *oq* rangi bilan; dog‘ so‘zi *qora* rang bildiruvchi so‘z bilan; tong rangi *bo‘zrang* bilan; ko‘mib qo‘ymoq iborasi *qora* yerga ko‘mib qo‘ymoq tarzida tarjima matnida ancha aniq mazmunga ega so‘z yoki so‘z birikmasi bilan almashtirilib, asliyat va tarjima o‘rtasida asimmetrik munosabat yuzaga kelgan¹⁰⁰.

Misolda *to‘qqizil* jarohat tarjimada *mo‘mataloq* so‘zi bilan tarjima qilingan:

手首もすでに、赤黒くむくみを帯びて、箆のようにつぶれたも、古いインクのしみのような色に変わっていた。(砂漠の女 173)

[Tekubi mo sudeni, akaguroku mukumi o obite, hera no yō ni tsubureta mo, furui inku no shimi no yōna iro ni kawatte ita]

Qo‘llari ham joyida - bilaklari *mo‘mataloq* bo‘lib ketibdi, chatnab etlari ko‘rinib qolgan tirnoqlari quyulib qolgan eski siyoh tusiga kiribdi. (A.K.Q.X.69)

Sariq rang bildiruvchi so‘zi tarjimada sariq tushib qoldirilib *safro* so‘zi bilan berilgan:

黄色胃液と、涙が、あふれだしてきた。(砂漠の女 196)

[Kiiri ieki to, namida ga, afure dashite kita].

Safro qayt qildi, ko‘zlaridan tirqirab yosh oqdi. (A.K.Q.X.93)

¹⁰⁰ Leksik-semantik almashtirish usulining konkretizatsiya usulidan foydalanilgan. Konkretizatsiya deb asliyatda keng mazmun bilan tushuntirilgan so‘z yoki so‘z birikmasini tarjima matnida ancha konkret mazmunga ega so‘z yoki so‘z birikmasiga almashtirishga aytiladi. (Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – B.37.)

Misolda rangsiz, ochrang *oqarib* rang bildiruvchi jarayonni anglatuvchi soʻz bilan ifodalanilgan:

ただでさえ冴えない色の唇を、ほとんど血の気が失せるまでに、左右に強くひきのばし、そこだけ見ると、まるで妖怪の形相である。したたる唾液が、顎の下の畳を黒く染めている。(砂漠の女 173)

[Tadade sae saenai iro no kuchibiru o, hotondo chinoke ga useru made ni, sayū ni tsuyoku hikinobashi, soko dake miru to, marude yōkai no keisōdearu. Shitataru daeki ga, yatsureno shita no tatami o kuroku somete iru]

Oʻzi aslida *qoni yoʻq lablari ham oqarib* ketibdi - naq suratining oʻzi qolibdi. Ogʻzidan oqayotgan soʻlagidan boʻyrada qora xalqob hosil boʻlibdi. (A.K.Q.X.69)

Asarda qoʻlini rangi oʻzgarib holati *oqarib* rang bildiruvchi soʻzi bilan berilgan:

色の変った手の甲にふれてみる。(砂漠の女 182)

[Iro no kawatta tenokō ni furete miru]

Erkak uning *oqarib* ketgan qoʻllarini ushlab koʻrdi. (A.K.Q.X.79)

Asardagi *dogʻ* tarjimada *qora* rangi bilan kengaytirilgan:

その破片が、意識の表面にちらばって、ぶつぶつの斑点になった。(砂漠の女 198)

[Sono hahen ga, ishiki no hyōmen ni chirabatte, butsubutsu no hanten ni natta]

Tashnalik endi chakkalarining allaqayerlarida xuruj qilmoqda edi. Uning mayda-mayda parchalari xushining sirti boʻylab halqa-halqa *qora dogʻlardek* yoyildi.(A.K.Q.X.95)

Asl matnda tong rangiga oʻxshatish orqali berilgan rang tarjimada maʼnosi kengaytirilib, *boʻzrang* bilan ifoda etilgan:

ふと、夜明けの色の悲しみが、こみ上げてくる。(砂漠の女 231)

[Futo, yoake no iro no kanashimi ga, komiagetekuru]

Birdan erkakning qalbini *bo'zrang tong tusidek* hasrat chulg'ab oldi...

(A.K.Q.X.134)

とんだ宝の持ち腐れです。(砂漠の女 216)

[Tonda takaranomochigusaredesu]

Qimmatbaho toshing bo'lsa-da, uni *qora yerga ko'mib qo'ysang*. (A.K.Q.X.117)

Yuqoridagi misolda esa yer *qora* rang bildiruvchi so'z bilan qo'llanilib ma'no o'zgarishiga olib kelgan. *Qora yerga ko'mib qo'ymoq* ma'nosi *yerga ko'mib qo'ymoq* ma'nosidan farqlanib, umuman foydasi yo'q degan ma'noni beradi.

Ekvivalentlikning beshinchi darajasida asliyatda ifodalanilgan rang bildiruvchi so'zlar tarjimada mantiqan ekvivalent ma'no beradigan rang bildiruvchi so'z bilan berilgan. Bunda jigarrang hashorat rangi tarjimada o'zbek kitobxoni ishlatadigan *qo'ng'ir* rang bilan, yapon tilidagi qizil it kundalik hayotimizda itga nisbatan qo'llaniladigan *malla rang* bildiruvchi so'z, hashoratga nisbatan ishlatilmaydigan ochpushti *sarg'ish*, *qo'ng'ir* rangda ifodalanilgan, *sarg'ish* yoki ochkulrang oy *bo'zrang*, narsalar tasvirini berishda ishlatilmaydigan sutrang *oq* yoki *oqish* rang bildiruvchi so'z bilan tarjima qilingan¹⁰¹. Jigarrang *qo'ng'ir*, qizil *malla*, ochpushti *sarg'ish*, *qo'ng'ir sarg'ish*, ochkulrang *bo'zrang* yoki sutrang *oq* rang bildiruvchi so'z bilan tarjima qilinishi tarjima qilingan tilda shu predmetlarga nisbatan qo'llaniladigan rang bilan bog'liq hodisa.

Jigarrang – qo'ng'ir:

唾は、泡だらけの褐色のかたまりになって、唇の端からふきだしてきた。(砂漠の女 144)

¹⁰¹ Leksik-grammatik transformatsiya turidan biri bo'lgan kompensatsiya usuli ham romandagi rang berilishida kuzatildi. Kompensatsiya usuli asliyat matni tarjimasida ayrim elementlarning ma'nosi darz ketgan taqdirda, uning o'rinini boshqa vosita orqali to'ldirishdir. (Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. –Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – B.39.)

[Tsubawa, awadarake no kasshoku no katamari ni natte, kuchibiru no hashi kara fukidashite kita]

So‘lagi og‘zining chetlarida *qo‘ng‘ir*, quyqa ko‘pik bo‘lib yig‘ilib qolibdi. (A.K.Q.X.37)

Qizil – malla:

あの、ずんぐりした掘立て小屋の赤犬が、後ろの方から、けしかけているのかもしれない。(砂漠の女 224)

[Ano, zunguri shita hottate koya no aka inu ga, ushiro no kata kara, keshikakete iru no kamo shirenai]

Vayrona kulbadan chiqqan anovi *malla* it ularni orqadan turib olqishlayotgan bo‘lsa ham ajab emas. (A.K.Q.X.126)

Ochpushti – sarg‘ish:

ある日家の近くの河原で、鞘翅目ハンミョウ属の、ニフハンミョウに似た、小っぱけな薄桃色の虫を見つけたものだ。(砂漠の女 121)

[Aruhi ieno chikakuno kawarade, kenshimoku hanmyouzokuno.

Niwahanmyouni nita, chippokena hakuto’no mushiwo mitsuketa monoda]

Bir kuni u uyi yaqinidagi suvi qurigan ariq o‘zanida qattiq qanotlilar toifasiga mansub bo‘lgan, ispan pashshasini eslatuvchi jajjigina *sarg‘ish* hashoratni ko‘rib qoldi.(A.K.Q.X.10)

Qo‘ng‘ir (to‘q qizil) – sarg‘ish:

とたんに、あたりが暗く、錆色に塗りつぶされる。(砂漠の女 202)

[Totan'ni, atari ga kuraku, sabihiro ni nuritsubusa reru]

Qiya ochiq eshikdan xuddi *sarg‘ish* yelimshakdan o‘tkazilgandek sarin oy nuri tushib turardi. (A.K.Q.X.101)

Ochkulrang-bo‘zrang:

ある日、穴のふちにかかった、一とかかえほどもありそうな灰白色の月を正面に見て、小便の最中、とつぜん男は激しい悪寒におそわれた。(砂漠の女 240)

[Aruhi, anano fuchini kakatte, itto kakaehodomo arisouna kaihakushokuno getsuwo sho'menni mite, sho'benno saichyu, totsuzen otokowa hageshii okanni osowareta]

Bir kuni erkak uyning orqasiga o'tib, xuddi qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgandek yaqinginada, chuqurning labida osilib turgan *bo'zrang* oyni tomosha qilayotgan edi, eti qattiq uvushayotganini sezdi. (A.K.Q.X.144)

Sutrang – oq:

火の見から見れば、こちらは、ちょうど逆光線の万角にあたり、わずかな霧でも、厚い乳色の幕になって、すっかり視界をさえぎってしまうにちがいない。(砂漠の女 207)

[Hinomi kara mireba, kochira wa, chōdo gyakukōsen no bankaku ni atari, wazukana moya demo, atsui chichi-iro no maku ni natte, sukkari shikai o saegitte shimau ni chigainai]

Havozadan qaralganda bu yer unga nisbatan yorug'lik qaytish burchagiga to'g'ri keladi, kuzatib turgan kishi uchun hatto ozgina tuman ham qalin *oq* pardaga aylanib, nazoratchi hech narsani ilg'ayolmay qoladi. (A.K.Q.X.106)

Bu misolda esa *sutrang oqish* rang darajasida:

沈みかけている太陽を、クレヨン色にぼかし、あたりを乳色にけむらせているのは、ただ飛砂のせいだけではなかったのだ。(砂漠の女 212)

[Shizumi kakete iru taiyō o, kureyon-iro ni bokashi,-atari o nyūshoku ni kemura sete iru no wa, tada tobisuna no sei dakede wa nakatta noda]

Yog'du ko'zni qattiq qamashtirarkan, deb tekshirib ko'rmoqchi bo'lgan erkak, hayratdan tang bo'lib qoldi. Chunki botayotgan quyosh uchib yurgan qum

tufayli rangli qalamlar bilan bo'yab qo'yilganga o'xshardi, butun tevarak-atrofni esa *oqish* g'ubor chulg'agan edi. (A.K.Q.X.112)

Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanidagi rang bildiruvchi so'zlarning berilishida asimmetrik munosabat mavjud va u ekvivalentlik darajalari orqali ko'rildi. Keyingi bo'limda rang bildiruvchi so'zlarning asimmetrik munosabatidagi holatlarni misollar orqali tahlil qilamiz.

3.1.Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang bildiruvchi so'zlarning asimmetrik berilishidagi holatlar

Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang bildiruvchi so'zlarning asimmetrik munosabatida ham uch xil: rangni rang ma'nosida, o'xshatish va rang nimadir orqali ifodalanish holatlari va rang berishda yorug'lik va rangni qahramonlar tomonidan qabul qilinish yondashuvlari ko'rildi. Bundan tashqari holat va yonashuvlarda qanday nisbiy tarjima turlari mavjudligi ham aniqlandi.

Ushbu bo'limda "Qumdagi xotin" romanidagi ranglarni nisbiy tarjimasidagi asimmetrik munosabat holatlari qanday namoyon bo'lganligi tahlil qilinadi.

Quyidagi misollarda asl matndagi *sariq rangi* tarjimada *sarg'ish*, *oq* esa *oppoq* deb berilgan. Bu o'z navbatida gapdagi ma'noni murakkablashtirib, sariq, oq rang ma'nosida, sarg'ish, oppoq esa holat yoki rang darajasini bergan. Avval rang bildiruvchi so'zlarning rangni rang darajalari orqali nisbiy berish turi ko'riladi.

I. Rang darajalari orqali berilgan nisbiy tarjima.

Nisbiy tarjimaning ushbu turida rang bildiruvchi soʻzlarning berilishdagi rangni oʻziga oʻxshatish holati ham kuzatildi. (sariq-sargʻish; oq-oppoq)

こうして彼は、その黄色い前足をもったニワハンミョウに、すっかりとりこにされてしまったのである。(砂漠の女 122)

[Kōshite kare wa, sono kiiroi maeashi o motta ni wahanmyouni, sukkari toriko ni sa rete shimatta nodearu]

Shu tariqa u oʻsha oldingi oyoqlari *sargʻish* ispan pashshasining asiri boʻlib qoldi.(A.K.Q.X.11)

返事のかわりに、燻製の鰯のような、薄い唇をめく唇り上げ、隙間に砂がつまった黄色い牙をむきだした。。。 (砂漠の女 214)

[Henji no kawari ni, kunsei no nishin no yōna, usui kuchibiru o meku kuchibiruri age, sukima ni suna ga tsumatta kiiroi kiba o muki dashita]

Unga javoban it yupqa lunjlarini tirishtirib, qum yopishib qolgan *sargʻish* soʻyloq tishlarini irjaytirdi. (A.K.Q.X.115)

力なくたるんだ唇から、黄色い唾液といっしょに、添えたうめきがこぼれだした。

(砂漠の女 238)

[Chikara naku tarunda kuchibiru kara, kiiroi daeki to issho ni, soeta umeki ga kobore dashita]

Erkak ham tund bir qiyofada turardi. Joʻljaygan lablaridan *sargʻish* soʻlak bilan birgalikda zorli faryod uchdi. (A.K.Q.X.141)

霧になって降る砂に、女の頭がみるみる白く粉をふく。(砂漠の女 194)

[Kiri ni natte furu suna ni, on'na no atama ga mirumiru shiroku kona o fuku]

Koʻz ochib yumguncha xotinning boshini *oppoq* gard qopladi. (A.K.Q.X.91)

Keyingi misollarda esa rang berish holatlaridan biri ranglar odat bo‘lib qolgan so‘zlar yoki rang bildiruvchi so‘zlar qo‘llanilishiga qarab berilgan. Masalan, yuz yoki tishga nisbatan *oppoq* rang bildiruvchi so‘z bilan ifodalanilgan :

昨夜ランプの光で、いやに色白に見えたのは、やはり化粧のせいだったらしい。(砂漠の女 142)

[Sakuya ranpu no hikari de, iya ni irojiro ni mieta no wa, yahari keshō no seidattarashī]

Kecha erkakni chiroq yorug‘ida mahliyo qilib qo‘ygan *oppoq* yuzi muqarrar upa bilan oqartirilgan ekan. (A.K.Q.X.34)

そんな噛み合わないやりとりにも、一向に気を悪くした様子はなく、白い歯をみせて、さわやかに笑うのだ。(砂漠の女 170)

[Son'na kamiawanai yaritori ni mo, ikkōni ki o waruku shita yōsu wa naku, shiroi ha o misete, sawayaka ni warau noda]

U odam o‘shanda *oppoq* tishlarini ko‘rsatib qahqah otib kulib yuborgan, bu suhbatning o‘ziga hech yoqmaganini sezdirmagan edi.(A.K.Q.X.66)

Hashorat rangiga o‘xshatish holatidagi *oq* o‘rniga *oppoq* rang bildiruvchi so‘zini berish orqali nisbiy tarjima amalga oshirilgan:

朝は、窓ガラスの向こうから、鼻や額を、なめくじの腹のように白くつぶして、彼をからかっているようだ。(砂漠の女 182)

[Asa wa, mado garasu no mukō kara, hana ya gaku o, namekuji no hara no yō ni shiroku tsubushite, kare o karakatte iru yōda]

Tong otdi. Peshanasi bilan burnidan o‘rmalagan shilliq qurtning qornidek *oppoq* tong tepasidagi derazadan kulib boqdi. (A.K.Q.X.80)

Rang bildiruvchi soʻzni berishda u nimani ifodalayotganligi bilan ham bogʻliq holati inobatga olinib, toʻlqin rangini ifodalashda oq rangi *oppoq* rang darajasida keltirilgan:

絶えまなく、海から風が吹きつづけ、はるか眼の下の砂丘のふもとをちぎれた白い波が囓んでいる。(砂漠の女 124)

[Taema naku, umi kara kaze ga fuki tsudzuke, Haruka me no shita no sakyū no fumoto o chigireta shiroi nami ga kande iru]

Dengizdan hamon shamol esar, *oppoq* asov toʻlqinlar qum tepa etagiga yopishardi. (A.K.Q.X.13)

Keyingi misollarda qoramtirqizil *qip-qizil*, oq rangi *oqish* rang bildiruvchi soʻzi bilan berilgan:

いましめの跡は、赤黒い痣になっていた。その痣の表面に、白くふやけた膜がかかっている。(砂漠の女 184)

[Imashime no ato wa, akaguroi aza ni natte ita. Sono aza aza no hyōmen ni, shiroku fuyaketa maku ga kakatte iru]

Arqon *qip-qizil* izlar qoldirgan edi. Ularning usti *oqish* poʻst bilan qoplanibdi. (A.K.Q.X.83)

II. Rang boshqa rang bilan berilgandagi nisbiy tarjima.

Quyida beriladigan misollarda asl matndagi rang boshqa rang bildiruvchi soʻz bilan aks etadi. Rangni bevosita rang maʼnosida berish holatida *jigarrang* rang bildiruvchi soʻz *qoʻngʻir* qilib tarjima qilingan:

唾は、泡だらけの褐色のかたまりになって、唇の端からふきだしてきた。(砂漠の女 144)

[Tsubawa, awadarake no kasshoku no katamari ni natte, kuchibiru no hashi kara fukidashite kita]

Soʻlagi ogʻzining chetlarida *qoʻngʻir*, quyqa koʻpik boʻlib yigʻilib qolibdi. (A.K.Q.X.37)

Asliyat matnida *qizilrang* o‘zbek tiliga *malla* qilib tarjima qilingan. Bu rang berishda odat bo‘lib qolgan so‘zlarni berish holati bo‘lib, kitobxonga tushunarli ravishda tarjima amalga oshirilgan:

あの、ずんぐりした掘立て小屋の赤犬が、後ろの方から、けしかけているのかもしれない。(砂漠の女 224)

[Ano, zunguri shita hottate koya no aka inu ga, ushiro no kata kara, keshikakete iru no kamo shirenai]

Vayrona kulbadan chiqqan anovi *malla* it ularni orqadan turib olqishlayotgan bo‘lsa ham ajab emas. (A.K.Q.X.126)

Asl matndagi *ochpushti* rangga o‘xshatish orqali berilgan rang tarjimada *sarg‘ish* rangga o‘xshatish holatida aks etgan:

ある日家の近くの河原で、鞆翹目ハンミョウ属の、ニフハンミョウに似た、小っぱけな薄桃色の虫を見つけたものだ。(砂漠の女 121)

[Aruhi ie no chikaku no kawara de, 鞆翹 -Me hanmyo~u zoku no, ni wahanmyo~u ni nita, ko ppo ke na usu momoiro no mushi o mitsuketa monoda]

Bir kuni u uyi yaqinidagi suvi qurigan ariq o‘zanida qattiq qanotlilar toifasiga mansub bo‘lgan, ispan pashshasini eslatuvchi jajjigina *sarg‘ish* hashoratni ko‘rib qoldi.(A.K.Q.X.10)

Bu misolda esa *ochpushti* rangi o‘xshatish holatidan *qo‘ng‘ir* (*to‘q qizil*) rang bildiruvchi so‘zi orqali rang o‘z ma’nosida tarjima qilingan:

小さな、薄桃色の、しょうじょう虫が飛んでいた。(砂漠の女 163)

[Chīsana, usu momoiro no, shi youjou mushi ga tonde ita]

Kichkina *qo‘ng‘ir* drozofilli pashshasi. (A.K.Q.X.57)

O‘xshatish orqali ifodalanilgan zang rangi *sarg‘ish* rangga o‘xshatish holatida tarjima qilingan:

とたんに、あたりが暗く、錆色に塗りつぶされる。(砂漠の女 202)

[Totan'ni, atari ga kuraku, sabihiro ni nuritsubusa reru]

Qiya ochiq eshikdan xuddi *sarg'ish* yelimshakdan o'tkazilgandek sarin oy nuri tushib turardi. (A.K.Q.X.101)

Asarda rangga o'xshatish holatida berilgan *ochkulrang* tarjimada *bo'zrang* bilan tasvirlanadi:

ある日、穴のふちにかかった、一とかかえほどもありそうな灰白色の月を正面に見て、小便の最中、とつぜん男は激しい悪寒におそわれた。(砂漠の女 240)

[Aruhi, ana no fuchi ni kakatta, ichi to kakae hodo mo ari-sōna kaihakushoku no tsuki o shōmen ni mite, shōben no saichū, totsuzen otoko wa hageshī okan ni osowa reta]

Bir kuni erkak uyning orqasiga o'tib, xuddi qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgandek yaqiningada, chuqurning labida osilib turgan *bo'zrang* oyni tomosha qilayotgan edi, eti qattiq uvushayotganini sezdi. (A.K.Q.X.144)

III. *Ma'no toraytirilgan nisbiy tarjima.*

Asarda *to'qqizil* jarohat tarjimada *mo'mataloq* tarzida tarjima qilingan:

手首もすでに、赤黒くむくみを帯びて、篋のようにつぶれたも、古いインクのしみのような色に変わっていた。(砂漠の女 173)

[Tekubi mo sudeni, akaguroku mukumi o obite, hera no yō ni tsubureta mo, furui inku no shimi no yōna iro ni kawatte ita]

Qo'llari ham joyida - bilaklari *mo'mataloq* bo'lib ketibdi, chatnab etlari ko'rinib qolgan tirnoqlari quyulib qolgan eski siyoh tusiga kiribdi. (A.K.Q.X.69-bet)

Sariq safro rang bildiruvchi so'zi esa tarjimasida *sariq* tushib qoldirilgan.

黄色胃液と、涙が、あふれだしてきた。(砂漠の女 196)

[Kihiro ieki to, namida ga, afure dashite kita]

Safro qayt qildi, ko'zlaridan tirqirab yosh oqdi. (A.K.Q.X.93)

IV. *Ma'no kengaytirilgan nisbiy tarjima.*

Rangi yo'q narsalarga *oq* rang bildiruvchi so'z qo'llanilgan:

色の変わった手の甲にふれてみる。(砂漠の女 182)

[Iro no kawatta tenokō ni furete miru]

Erkak uning *oqarib* ketgan qo‘llarini ushlab ko‘rdi. (A.K.Q.X.79)

Misolda rangsiz, ochrang *oq* rang bildiruvchi so‘z bilan ifodalanilib, tarjimada asl matndan murakkabroq ma‘noda aks etgan:

ただでさえ冴えない色の唇を、ほとんど血の気が失せるまでに、左右に強くひきのばし、そこだけ見ると、まるで妖怪の形相である。したたる唾液が、顎の下の畳を黒く染めている。(砂漠の女 173)

[Tadade sae saenai iro no kuchibiru o, hotondo chinoke ga useru made ni, sayū ni tsuyoku hikinobashi, soko dake miru to, marude yōkai no keisōdearu. Shitataru daeki ga, yatsureno shita no tatami o kuroku somete iru]

O‘zi aslida qoni yo‘q lablari ham *oqarib* ketibdi – naq suratining o‘zi qolibdi. Og‘zidan oqayotgan so‘lagidan bo‘yrada qora xalqob hosil bo‘libdi. (A.K.Q.X.69)

Asardagi *dog*‘ tarjimada *qora* rang bildiruvchi so‘z bilan kengaytirilgan: その破片が、意識の表面にちらばって、ぶつぶつの斑点になった。(砂漠の女 198)

[Sono hahen ga, ishiki no hyōmen ni chirabatte, butsubutsu no hanten ni natta]

Tashnalik endi chakkalarining allaqayerlarida xuruj qilmoqda edi. Uning mayda-mayda parchalari xushining sirti bo‘ylab halqa-halqa *qora dog‘lardek* yoyildi. (A.K.Q.X.95)

Roman tarjimasida ham mavhum tushunchalar rangga ega ekanligini kuzatdik. Masalan, qalb rangi *bo‘z rangi* bilan ifoda etilgan.

Asarda tong rangiga o‘xshatish orqali berilgan rang tarjimada ma‘nosi kengayib, *bo‘zrang* bilan berilgan:

ふと、夜明けの色の悲しみが、こみ上げてくる。(砂漠の女 231)

[Futo, yoake no iro no kanashimi ga, komiagetekuru]

Birdan erkakning qalbini *bo'zrang tong tusedek* hasrat chulg'ab oldi...
(A.K.Q.X.134)

Yerga ko'mib qo'ymoq tarjimada *qora* rang bildiruvchi so'z bilan qora yerga ko'mib qo'ymoq tarzida tarjima qilinib, umuman foydasi yo'q degan ma'noni ifodalagan:

とんだ宝の持ち腐れです。(砂漠の女 216)

[Tonda takaranomochigusaredesu]

Qimmatbaho toshing bo'lsa-da, uni *qora yerga ko'mib qo'ysang*.
(A.K.Q.X.117)

Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida ham rang bildiruvchi so'zlar rang ma'nosida, qo'llanilishiga qarab, o'xshatish orqali berilgan. Bundan tashqari mavhum tushunchalar va narsalar ham rang orqali ifodalanilgan. Ushbu keltirilgan rang holatlarining tahlilida ranglarning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi bilan nisbiy tarjimasida sezilarli farqlar borligi ko'rildi. Buni biz tarjima jarayonidagi simmetrik va asimmetrik munosabat deb atadik. Asimmetrik munosabat 1) oddiy rang ma'nosini bildirgan rang bildiruvchi so'zlar rang darajalarida berilganda; 2) rang tarjimada boshqa rang tarzida tarjima qilinganda; 3) rangsiz yoki o'xshatish orqali berilgan rang qo'shimcha rang bilan ifodalanilganda ma'nosi kengayganligida ko'rildi.

Keyingi bo'limda roman tarjimasida aks etgan ranglarning nisbiy berilishidagi yorug'likning ahamiyati va ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilish yondashuvlari tahlil qilinadi.

3.2.Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang bildiruvchi so'zlarning asimmetrik berilishidagi yondashuvlar

Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida ranglarni predmet rangini aks ettirishda yorug'likning ahamiyatiga qarab va qahramonlar

tomonidan qabul qilinish yondashuvlari rang bildiruvchi soʻzlarning nisbiy tarjimasida ham koʻrildi.

Avvalgi boʻlimlarda asarda rang ifodasida yorugʻlik ham katta taʼsir koʻrsatishi haqida xulosaga kelgan edik. “Qumdagi xotin” romani tarjimasida voqealar rivojida ham ranglarning nisbiy berilishida uzoq masofadagi narsalar tasvirida yorugʻlikni tushmasligi sababli predmetlar *qora* rang bildiruvchi soʻzi orqali berilgan.

1. Rang rang darajalari orqali berilgan nisbiy tarjimada *qora* rang bildiruvchi soʻz *qoramtir* rang darajasi bilan:

肘の深さまで掘ると、砂が黒く、しめり気をおびてくる。(砂漠の女 196)

[Hiji no fuka-sa made horu to, suna ga kuroku, shimeri ki o obite kuru]

Tirsagi barobar chuqur qazigach qumning *qoramtir* tusga kirganini va namxush boʻlib qolganini koʻrdi. (A.K.Q.X.93)

Qora *qop-qora* rangga oʻxshatish holati yoki uning darajalari orqali:

海側の崖の下に立って、見上げると、なるほど黒い櫓の先端が、小指の先ほどの頭をぞけている。(砂漠の女 197)

[Umigawa no gake no shita ni tatte, miageru to, naruhodo kuroi yagura no sentan ga, koyubi no saki hodo no atama o zo kete iru]

U dengiz tomonga qaragan chuqur oldida toʻxtab, yuqoriga tikilgan edi, darhaqiqat jimjiloq uchidan katta boʻlmagan *qop-qora* havoza uchini koʻrdi. (A.K.Q.X.94)

Qora qorayib natija maʼnosida berilgan:

男は、その黒い棘にむかって、スコップをかざし、力いっぱい左右に振った。(砂漠の女 197)

[Otoko wa, sono kuroi toge ni mukatte, sukoppu o kazashi, chikaraippai sayū ni futta]

Erkak *qorayib* ko‘ringan jajji narsaga o‘girilib, belkurakni ko‘tardi-da, shaxt bilan silkita boshladi. (A.K.Q.X.94)

Yorug‘likda barcha rangli nurlarning aks etishida *oq* rangini berilishi berilgan misollarda ko‘rildi.

Oq rang bildiruvchi so‘zini ifodalashda ham tarjimada ma‘nosi kengayib *oqish* tarzida berilgan:

わずかに土が露出しているところもあったが、大半は白く乾いた砂地だった。(砂漠の女 119)

[Wazuka ni tsuchi ga roshutsu shite iru tokoro mo attaga, taihan wa shiroku kawaita sunajidatta]

Uning atrofida bir qancha hosildor ekin maydonlar, qolgani *oqish* qumloq yer. (A.K.Q.X.8)

Oq *oppoq* rangga o‘xshatish holati orqali berilgan:

砂と粘土で、しっくいのように固められた道端には、くだかれた貝殻が、白い山をつくっていたりしました。(砂漠の女 119)

[Suna to nendo de, shikkui no yō ni katame rareta michibata ni wa, kudaka reta kaigara ga, shiroi yama o tsukutte itarimashita].

Qum va tuproq bilan sementlangandek zarang yo‘lning chetida chaqilgan *oppoq* chig‘anoqlar tog‘-*tog‘* bo‘lib uyulib yotardi. (A.K.Q.X.8)

絶えまなく、海から風が吹きつづけ、はるか眼の下の砂丘のふもとをちぎれた白い波が噛んでいる。(砂漠の女 124)

[Taema naku, umi kara kaze ga fuki tsudzuke, Haruka me no shita no sakyū no fumoto o chigireta shiroi nami ga kande iru]

Dengizdan hamon shamol esar, *oppoq* asov to‘lqinlar qum tepa etagiga yopishardi. (A.K.Q.X.13)

Yorug‘likni inson ko‘ziga tushishida ranglarni ko‘rishga ta’sir etishi sariq *sarg‘ish* rang bildiruvchi so‘z bilan tarjima qilinishi orqali ko‘rildi:

戸口にたって、砂の壁を見上げた。光が眼にしみ、あたりが黄色く燃えはじめた。

(砂漠の女 162)

[Toguchi ni tatte, suna no kabe o miageta. Hikari ga me ni shimi,-atari ga kiroku moe hajimeta]

U ostonada turgancha yuqoriga, qum devorga qaradi. Ko‘ziga shu‘la tushib, xuddi tevarak-atrofini *sarg‘ish* alanga chulg‘ab olgandek bo‘ldi. (A.K.Q.X.57)

鴉の鳴き声がした。突然、光線が黄色から青に変わった。(砂漠の女 202)

[Kyouno nakigoe ga shita. Totsuzen, kōsen ga kiiru kara ao ni kawatta]

Qarg‘a qag‘illadi. Yorug‘lik birdan *sarg‘ish* rangdan *moviy* tusga kirdi. (A.K.Q.X.100)

Yuqoridagi misollarda rang uning darajalari bilan berilishdan tashqari asl matndagi *ko‘k rangi* tarjimada *moviy* yorug‘likka nisbatan qo‘llanilishiga ham e’tibor qaratilgan.

2. Rangni boshqa rang bilan nisbiy tarjimasida o‘xshatish holatida berilgan sutrang tarjimada *oq* o‘z ma’nosida berilganligini ko‘rishimiz mumkin:

火の見から見れば、こちらは、ちょうど逆光線の万角にあたり、わずかな靄でも、

厚い乳色の幕になって、すっかり視界をさえぎってしまうにちがいない。(砂漠の女

207)

[Hinomi kara mireba, kochira wa, chōdo gyakukōsen no bankaku ni atari, wazukana moya demo, atsui chichi-iro no maku ni natte, sukkari shikai o saegitte shimau ni chigainai]

Havozadan qaralganda bu yer unga nisbatan yorug‘lik qaytish burchagiga to‘g‘ri keladi, kuzatib turgan kishi uchun hatto ozgina tuman ham qalin *oq* pardaga aylanib, nazoratchi hech narsani ilg‘ayolmay qoladi. (A.K.Q.X.106)

Bu misolda esa sutrang *oqish* rang darajasida:

沈みかけている太陽を、クレヨン色にぼかし、あたりを乳色にけむらせているのは、
ただ飛砂のせいだけではなかったのだ。(砂漠の女 212)

[Shizumi kakete iru taiyō o, kureyon-iro ni bokashi,-atari o nyūshoku ni kemura
sete iru no wa, tada tobisuna no sei dakede wa nakatta noda]

Yogʻdu koʻzni qattiq qamashtirarkan, deb tekshirib koʻrmoqchi boʻlgan erkak,
hayratidan tang boʻlib qoldi. Chunki botayotgan quyosh uchib yurgan qum
tufayli rangli qalamlar bilan boʻyab qoʻyilganga oʻxshardi, butun tevarak-atrofni
esa *oqish* gʻubor chulgʻagan edi. (A.K.Q.X.112)

Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida ham uzoq
masofadagi narsalar tasvirida yorugʻlikni tushmasligida *qora*, yorugʻlikda
barcha rangli nurlarning bir tekisda aks etishida *oq* rangini berilganligi rang
bildiruvchi soʻzlarning nisbiy tarjimasida ham kuzatildi.

Roman tarjimasida ranglarning nisbiy berilishida ikkinchi yondashuv
ranglarni qahramon tomonidan qabul qilinishi ham mavjud. Romanda
moviyrang, *ochiqmoviy*, *oqishyaltiroq* rang bildiruvchi soʻzning berilishi
qahramon hissiyoti bilan bogʻliq. Bu ranglar quyosh nuri qiya tushganda rangsiz
koʻrinadi. Qahramon tomonidan osmonni, dengizni ushbu ranglarda koʻrishi
mavhum narsaga yoki maʼnosiz hayotiga ishora qilishini koʻrsatgan.

Misollarda koʻk rangi nurga nisbatan *moviy* yoki *och* ranglarda ifoda
etilgan:

戸口の上に、ちょっぴりのぞいている空は、もうとっくに青をとおりこし、貝殻の
腹みたいにぎらついていた。(砂漠の女 186)

[Toguchi no ue ni, choppiri nozoite iru sora wa, mō tokkuni ao o tōri koshi,
kaigara no hara mitai ni giratsuite ita]

Eshikning qoq tepasidan koʻrinib turgan bir parcha osmon *ochiqmoviy* tusdan
xuddi dengiz chigʻanogʻining ichiga oʻxshab *oqishyaltiroq* tusga kirdi.
(A.K.Q.X.85)

Uchinchi bobda roman tarjimasida ranglarning nisbiy berilishida rang to'g'ridan-to'g'ri, o'xshatish, rang qaysi predmetga nisbatan qo'llanilishi holatlari tahlil qilindi. Bundan tashqari rang berishdagi ikki yondashuv: predmet rangini aks ettirishda yorug'likning ahamiyati va ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinishi ham kuzatildi. Rang bildiruvchi so'zlar nisbiy va to'g'ridan-to'g'ri tarjima orqali aks etgan. Ranglarni to'g'ridan-to'g'ri va nisbiy tarjimasida orasidagi farqlar rang uni darajalari orqali, rang boshqa rang bilan, ma'no kengaytirilgan va toraytirilgan nisbiy tarjima turlarida va romandagi barcha rang bildiruvchi so'zlarning tarjimasida simmetrik va asimmetrik munosabat ekvivalent tarjima usuli orqali tarjima qilingan degan xulosaga kelindi.

III bob bo'yicha xulosa

Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang simvolikasi berilishida simmetrik va asimmetrik munosabat mavjud. Simmetrik munosabat deganda rang bildiruvchi so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi, asimmetrik munosabatda esa nisbiy tarjima amalga oshirilgan. Buni quyidagi xulosalardan ko'rishimiz mumkin:

❖ asliyat matniga mos va teng bo'lmagan matn yaratish tarjima jarayonida simmetrik va asimmetrik munosabatni keltirib chiqaradi. Simmetriya tartibga solingan, bir ma'noga ega, saqlash degan tushunchalar bilan teng. Asimmetriya esa simmetriyaga qarama-qarshi, nisbiy degan ma'noga ega;

❖ tarjima jarayonida simmetrik va asimmetrik holatni ekvivalent tarjima va uning darajalarida aks etgan. Simmetrik munosabat ekvivalentlikning birinchi maksimal darajasida leksik tarkib va asliyatning asosi maksimal saqlanib, rang bildiruvchi so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish orqali ko'rildi;

❖ Abe Koboning "Qumdagi xotin" romani tarjimasida rang bildiruvchi so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri berilishida rang bildiruvchi so'z rang ma'nosida, o'xshatish va rang boshqa narsalar orqali berilgan holatlarda ifodalanilgan;

❖ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi soʻzlarning simmetrik berilishida ham romanda kuzatilgan predmet rangini aks ettirishda yorugʻlikning ahamiyati va qahramonlar tomonidan qabul qilinish yondashuvlari mavjud. Roman tarjimasida simmetrik munosabatda ham qahramon ichki his-tuygʻularini ochib berish maqsadida uning kechinmalari tabiatga bogʻlangan holda aks etgan;

❖ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang bildiruvchi soʻzlar berilishida asimmetrik munosabat tarjima va asliyatdagi paralellizmlar mavjudligi, tasvir usulini berish, tarjimada asliyatdagi hodisaga ishorani berilishi va asliyatdagi kommunikatsiya maqsadi darajalari orqali koʻrildi;

❖ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida asimmetrik munosabatda rang simvolikasini berishda ham romanda va simmetrik tarjimada kuzatilgan uch xil holat va predmet rangini aks ettirishda yorugʻlikning ahamiyati va ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinish yondashuvlari orqali aks etgan degan xulosaga kelindi;

❖ Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani va uning tarjimasidagi rang bildiruvchi soʻzlar tarjimasida asimmetrik munosabatni 1) oddiy rang maʼnosini bildirgan rang bildiruvchi soʻzlar rang darajalarida berilganligi; 2) rang tarjimada boshqa rang qilib tarjima qilinganligi; 3) rangi berilmagan yoki oʻxshatish orqali berilgan rang qoʻshimcha rang bilan ifodalanilib maʼnosi kengayganligi; 4) maʼno toraygan nisbiy tarjima turlarida koʻrildi.

Xulosa

1. Simvol g'oya, obraz, belgi, madaniyat obyekti. U bir nechta fikr, g'oya Yoki tushunchalarni birlashtiruvchi tushuncha. Simvolni lingvopoetika, lingvokulturologiya va semiotik jihatdan o'rganish mumkin. Lingvopoetikada simvol poetik sistemada ma'noga ega poetik tushuncha, lingvokulturologiyada esa obraz va tushunchalarni ma'nolarini ochuvchi, semiotikada simvol obrazlilik va belgi xususiyatiga ega.

2. Semiotik nuqtai nazaridan simvol milliy xarakterni ifodalovchi, asar g'oyasini ochuvchi, madaniyat bo'lagi. Matndagi voqealar rivoji, g'oya yoki ochib berilmoqchi bo'lgan mavzu bitta simvol ostida harakat qiladi. Simvolning xususiyati matnda turli xil namoyon bo'lib, bu gen syujeti deb nomlanadi. Matndagi simvol simvol bo'lmagan so'zlarni birlashtirib, matnni bir butun ko'rish imkonini beradi va u konsept maydonini tashkil qiladi. Simvolning ana shu xususiyati konseptni ham tahlil qilish imkonini yaratadi.

3. Konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida tafakkur birligi, millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Uning obrazli, ma'lumotlar saqllovchisi, tahlil maydoni kabi asosiy xususiyatlari mavjud. Badiiy asardagi konsept estetik olamni bilish usuli va bu simvol orqali bitta belgi ostida madaniy ma'no orqali ochiladi.

4. Adabiyotlar tahlili rang mavzusini o'rganishda kulturologik va lingvokulturologik yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Kulturologik ishlarda rang ma'nolari, rang ifodalanishidagi xususiyatlarni ochib berishga e'tibor

qaratilgan. Lingvokulturologik ishlarda rang qanday tushuncha yoki g'oya anglatishi til va matn nuqtai nazaridan o'rganilgan. Til nuqtai nazaridan ranglar tahlili umumiy tarzda ya'ni til va adabiyot orqali ochiladi. Matn nuqtai nazaridan ranglarning ma'nosi matnda ko'p qirrali va boyib boradi.

5. Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida o'ttiz beshta ranglarni ifodalagan so'zlar mavjud. Bular: qora, qop-qora, ko'k, alvon, qizil, qizg'ish, qip-qizil, tong rangi, sutrang, ochsutrang, sariq, sarg'ish, to'qsariq, oq, oqish, oppoq, kulrang, ochkulrang, ochyashil, qoramtiriyashil, yashil, qahvarang, qo'ng'ir, eski siyoh rangi, g'ishtrang, toshbaqa kosasi rangi, qo'rg'oshin, yupqa, tiniq, nimshaffof rang, qum rangi, kumushr, jigarrang, ochpushti, oltinrang. Ushbu ranglarning berilishida uch xil holat mavjud. Birinchi holatda ranglar berilishiga bevosita qaralib, uni ikki turi ko'rildi. Birinchi turda "Qumdagi xotin" romanidagi ranglar o'z ma'nosida, to'g'ridan-to'g'ri, ranglar hech qanday narsalarga o'xshatilmagan. Ikkinchi turda ranglar odat bo'lib qolgan so'zlar yoki shu narsa bilan doimo qo'llanilishiga qarab berilgan. Ikkinchi holatga ko'ra ranglar berilishiga bilvosita qaralib, o'xshatish, rangni o'ziga o'xshatish, rang boshqa narsalarning rangi orqali ham ifodalanilgan. Uchinchi holatda esa rang qaysi predmetga nisbatan qo'llanilishiga e'tibor qaratilgan.

6. Abe Koboning "Qumdagi xotin" romanida rang berilishiga birinchidan: predmet rangini aks ettirishda yorug'likning ahamiyati; ikkinchidan: ranglarning qahramonlar tomonidan qabul qilinishi; uchinchidan: yolg'izlik simbolikasini ochib berishda ranglarning ta'siri kabi yondashuvlar ham ta'sir ko'rsatgan.

7. Rangda yorug'likning muayyan ko'rish tuyg'usini hosil qilish xossasi mavjudligi asardagi rang ifodasida yorug'lik ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yorug'likning mutlaqo bo'lmasligi yoki uzoq masofadagi narsalar tasvirida yorug'likni tushmasligi – qora rangni, ayni vaqtda barcha rangli nurlarning bir tekisda aks etishi – oq rangni hosil qilishi, yorug'likni inson ko'ziga tushishi ham ranglarni ko'rishda ta'siri mavjudligi, uzoq masofada turgan to'q rangli predmetlar sovuq tusga, ko'pincha yorqin ranglar esa issiq tusga kiradi.

8. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanidagi ranglarda qahramon ichki his-tuyg’ulari, kechinmalari, hayotga bo’lgan munosabatini ko’rdik.

9. Romanda qum yolg’izlik simvolini bildirgan va uni turli xil xususiyatlari rang ifodasida ochilgan. Yolg’izlikni ifodalashda rangsiz, xirarang, och ranglardan foydalanilgan.

10. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romanida rang bildiruvchi so’zlar ekvivalent tarjima darajalari orqali ko’rilgan simmetrik va asimmetrik munosabat ostida harakat qilgan.

11. Simmetrik munosabatda Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida rang ifodasida asliyatdagi matn tuzilishi, leksik tarkib va asliyat asosi saqlanib qolinib, rang bildiruvchi so’zlarning to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilinganda romandagi kabi ranglarning bevosita – to’g’ri rang ma’nosida, bilvosita – o’xshatish va rang qaysi predmetga nisbatan qo’llanilish holatlari va predmet rangini aks ettirishda yorug’likning ahamiyati va ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinish yondashuvlari mavjud.

12. Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tarjimasida asimmetrik munosabat asliyatdagi rang bildiruvchi so’zlar tarjimada rang darajalarida berilishi, asliyatdagi rang tarjimada boshqa rang tarzida tarjima qilinishi, asliyatda rang berilmagan holatda yoki o’xshatish orqali berilganda tarjimada qo’shimcha rang bilan ifodalanilganda ma’nosi kengayganligi yoki aksincha ma’nosi torayganligi; rangni to’g’ri rang ma’nosida, o’xshatish, rang qaysi predmetga nisbatan qo’llanilish holatlari va yorug’likning ahamiyati va ranglarni qahramonlar tomonidan qabul qilinish yondashuvlari orqali tahlil qilinishida ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 326 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 267 b.

II. Asosiy adabiyotlar:

3. Алпатов В.М. Япония. Язык и культура. – М.: Языки славянских культур, 2003. – 208 с.
4. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 895 с.
5. Авдеенко И.А. Символ, концепт, текст пространство эксперимента // Комсомольского-на-Амуре государственного технического университета. – Комсомольск-на-Амуре, 2010. – № 1 – С. 45-48.
6. Богин Г.И. Обретение способности понимать: работы разных лет. – Тверь: Тверской государственный университет, 2009. Т. 2. – 152 с.
7. Кобо А. Кумдаги хотин. – Тошкент: Фафур Фулом, 1968. – 155 б.
8. Кудрина А.В. Мещеряков, Б. Г. Семантика цвета в разных культурах // Психологический журнал Международного университета природы, общества и человека. – Дубна, 2011. – С. 1-18.
9. Леонтович О.А. Россия и США: Введение в межкультурную коммуникацию. – Волгоград: Перемена, 2003. – 399 с.

10. Лосев А.Ф. Проблема символа и реалистическое искусство. – М.: Искусство, 1976. – 367 с.
11. Лотман Ю.М. Культура и взрыв. Внутри мыслящих миров. Статьи. Исследования. Заметки Текст.: [(1968-1992)] СПб.: Искусство, 2004. – 703 с.
12. Лотман Ю.М. Избранные статьи. Т.1. – Таллинн: Александра, 1992. – 478 с.
13. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
14. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004. – 256 с.
15. Никишина И.Ю. Язык сознание коммуникация. // “Понятие концепт в когнитивной лингвистике”. – М.: Макс Пресс, 2002. – № 21. – С. 5-7.
16. Normurodov B.A. Til va adabiyotda ranglarning ramziy ahamiyati. – Toshkent: Bilim, 1987. – 25 b.
17. Попова З.Д., Стернин, И.А. Когнитивная лингвистика [Текст]/З.Д. Попова, И.А. Стернин. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.
18. Попова З.Д., Стернин И.А. Общее языкознание. – М.: АСТ: Восток - Запад, 2007. – 408 с.
19. Рябкова Е.С. Альманах современной науки и образования // “Лингвокультурный концепт как элемент языка и культуры”. – М., 2012. – №4 (59). – С. 187-188.
20. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2011. – 164 b.
21. Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование // Волгаград: Вестник Воронежского университета, 2004. - Вып 1. – С. 29–35.
22. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры: Изд.2-е, испр.и доп[Текст]/Ю.С. Степанов. – М.: Академический проект, 2001. – 590 с.
23. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 124 с.

24. Юшкина Е.А. Поэтика цвета и света в прозе М.А.Булгакова. – Волгоград, 2008. – 201 с.
25. 安部公房全集 1962.04- 1962.11. – 東京: Abe Neri, 1998. – 490 p. [Abe Kobo Zenshyu 1962.04-1962.11. – Tokyo: Abe Neri, 1998. – 490 p.] – “Abe Kobo To‘plam. 1962.04- 1962.11. – Tokio: Abe Neri, 1998. – 490 b.”
26. 福田邦夫色の意味と文化赤橙黄緑青藍紫. – 日本: 研究店, 1979. – 254 p. [Fukuda Kunio Iro no imi to bunka sekitōryokuseiaishi. – Nihon: Kenkyū-ten, 1979. – 254 p.] – “Fukuda Kunio Qizil, olovrang, sariq, yashil, havorang, ko‘k va binafsh rang va ularning madaniy ma‘nosi. – Yaponiya: Ilmiy tadqiqot instituti, 1979. – 254 b.”

III. Qo‘shimcha adabiyotlar:

27. Adabiyot nazariyasi. 1 tom. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.
28. Аверинцев С.С. Символ // Литературный энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1987. – 447 с.
29. Атаев Ш.А. Символ и образ в трагедии Гете «Фауст» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2010. – № 3. С. 32-35.
30. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.
31. Джусупов Н.М. Тюркский символ в художественном тексте. – Астана: Сарыарка, 2011. – 218 с.
32. Философский энциклопедический словарь. – М.: Инфра-М, 1998. – 576 с.
33. Фролова О.П. Цветообозначения в японском языке // Языковые категории в лексикологии и синтаксисе. – Новосибирск, 1991. – С. 71-87.
34. Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: Московский государственный университет, 2007. – 544 с.

35. Haqqulov I. Yana qora rang talqini haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – №3. – B. 17-24.
36. Hasanov S. Go‘zallikdagi ranglar olami / Navoiyning yetti tuhfası. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991. – 192 b.
37. Isxoqov Yo. Ranglar ramzi // Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 123-138.
38. Jumatova N.S. Hozirgi o‘zbek she’riyatida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar: Filol.fan.nomz.diss. – Toshkent, 2000. – 126 b.
39. Колесов В.В. Концепт культуры: образ-понятие-символ // Вестник – СПб., 1992. – №16. – С. 35-36.
40. Комиссаров В. Теория перевода.(лингвистические аспекты) – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с.
41. Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: Московский государственный университет, 1996. – 245 с.
42. Мещеряков А.Н. Книга японских символов. – М.: Наталис, 2004. – 556 с.
43. Минералова И.Г. Анализ художественного произведения: стиль и внутренняя форма. – М.: Наука, 2011. – 256 с.
44. Мустаев К.Т. Поэтика цвета и числовых знаков-символов в “Песне о Роланде” и “Алпамыше”. – Самарканд: Зарафшон. – 1995. – 152 с.
45. Накамура Е. Слово о полку Игореве и Повесть о доме Тайра // Слово о полку Игореве: комплексные исследования. – М., 1988. – С. 80-89.
46. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. –Тошкент: Фан, 1980. – 198 б.
47. Самарина Л.В. Традиционная культура и цвет: основные направления и проблемы зарубежных исследований // Этнографическое обозрение. 1992. – С. 147-156.
48. Самоделова Е.А. Символика цвета у С.А. Есенина и свадебная поэзия рязанщины // Филологические науки. – М., 1992. – С. 12-22.

49. Сатоу Изаму Коданся японско-русский словарь. – Япония: Коданся Токио, 1981. – 1186 с.
50. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: «Прогресс», 2001. – 656 с.
51. Седова О.В. Поэтика цвета в прозе Е.И.Замятина. Канд.филол.наук диссер. – Елец, 2006. – 200 с.
52. Sodiqova M. O‘zbek tilida rang-tus bildiruvchi so‘zlar: Filol.nom.diss. – Toshkent, 1963. – 168 b.
53. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-tom. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 704 b.
54. Черкасова И.П. Лингвокультурный концепт «ангел» в пространстве художественного мышления. – Армавир: АГПУ, 2005. – 256 с.
55. 西尾実岩淵悦太郎岩波国語辞典. – 日本: 岩波書店, 1963. – 256 p.
- [Nishio minoru iwabuchi etsutarō Iwanami kokugoshiten. – Nihon: Iwanamishoten, 1963. – 256 p.] – “Nishio Minoru Niwanuchietsu Tarou Qomusiy lug‘at. –Yaponiya: Iwannami, 1963. – 256 b.”
56. 吉岡幸雄源氏物語の色辞典. – 日本: 研究社, 2008. – 302 p. [Yoshioka Sachio Genjimonogatari no iro jiten. – Nihon: Kenkyusya, 2008. – 302 p.] – “Yoshioka Yukio Genji haqidagi asarining rang lug‘ati. – Yaponiya: Tadqiqot markazi, 2008. – 302 b.”

IV. Internet saytlari:

57. <http://sharqyulduzi.uz/p=175>. Adizova I.
58. http://litvinskaya.blogspot.com/2010/03/blog-post_25.html
Литвинская К. Ассиметричный дуализм языкового знака.
59. <http://kachkine.narod.ru/Articles2010/KashPopovaSign.html>
Кашкин В. Асимметричность знака и межъязыковые различия.

ILOVA – 1

Lugʻatda aks etgan yapon tilidagi asosiy rang bildiruvchi soʻzlar

1. 青 ao – koʻk
2. 赤 aka – qizil
3. 茶色 chairo – jigarrang
4. 橙色 daidaiiro – olovrang
5. 灰色 haiiro – kulrang
6. 黄色 kiiro – sariq
7. 黒 kuro – qora
8. 緑 midori – yashil
9. 水色 mizuiro – havorang
10. 桃色 momoiro – pushti
11. 紫 murasaki – binafsharang

12. 白 shiro – oq

ILOVA – 2

*Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani va uning tarjimasidagi
rang bildiruvchi soʻzlar lugʻati*

1. 白っぽく – oqarib
2. ネズミ色 – sichqon rangi
3. 砂の色 – qum rangi
4. 黒い – qora, qoramtir, qop-qora
5. ベにがら色 – qizilrang
6. 白い – oq, oppoq, oqish
7. 薄桃色 – sargʻish, qoʻngʻir
8. 黄味がかっていた – toʻqsariq
9. 黄色い – sargʻish, sariq

10. 黒にやけている – qop-qora
11. 赤っぽい – qizg‘ish
12. 褐色 – qo‘ng‘ir
13. 淡い緑 – ochyashil
14. 灰色 – kulrang
15. 赤 – qizil
16. 淡い乳色 – sutrang
17. 青い – ko‘kish, ochiqmoviy, moviy
18. 緑色 – yashil
19. 鉛色 – qo‘rg‘oshin tusli
20. 古いインクのしみのような色 – eski siyoh rangi
21. 赤黒い – qip-qizil
22. 暗緑色 – qoramtiriyashil
23. 錆色 – sarg‘ish
24. コーヒー色 – qahva rangi
25. 厚い乳色 – oq
26. クレヨンいろ – oqish
27. 赤味 – qizg‘ish
28. 赤 – malla
29. 金色 – oltinrang
30. 夜明けの色 – bo‘zrang
31. 乳色 – sutrang
32. 薄い半透明な一片の色 – yupqa, tiniq, nimshaffof rangi
33. からかね色 – qo‘ng‘ir
34. 棟瓦色 – g‘ishtrang
35. ベッコウバエくらい – toshbaqa kosasi rangi